

Birinchi bob

Charlz Striklend bilan tanishgan vaqtimda, gapning rostini aytadigan bo'lsam, uning qandaydir favqulodda odamligi xayolimga ham kelmagandi. Endilikda esa uning ulug'ligini biror kimsa inkor eta olmasa kerak. Men bu o'rinda nom qozongan siyosatdon yoxud mashhur sarkardaning ulug'ligini ko'zda tutayotganim yo'q. Bu narsa ko'proq odamning o'ziga emas, balki shart-sharoitga va u yashaydigan makonga bog'liq. Vaziyatning o'zgarishi tufayli uning mashhurligi ko'pincha o'z-o'zidan qumga singgan suvday yo'qolib ketishi hech gap emas. Bosh ministr egallagan mansabimiz ezma maqtanchoqqa, general esa armiyaciz bor-yo'g'i mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan sherga aylanadi. Charlz Striklendning ulug'ligi esa haqiqiy ulug'likdir. Sizga uning san'ati yoqmasligi mumkin, lekin shunda ham loqayd munosabatda bo'lolmaysiz. U sizni qoyil qoldiradi, o'ziga jalb etadi. Uni mazax qilishgan vaqtlar orqada qolib ketdi. San'atkorga xos nuqsonlar ham fazilatlariga qo'shimchaday tuyuladi. To'g'ri, bu rassomning san'atdagi o'rni borasida hali-hanuz bahslar davom etmoqda, ko'klarga ko'tarib maqtash qanchalik asossiz bo'lsa, uni qoralovchilar ham, unga mensimay munosabatda bo'luvchilar ham shunchalik asossizdirlar. Uning asarlari dahoning ijodiyoti ekanligi shubhasiz.

San'atdagi eng muhim narsa deb ijodkor shaxsiyatini tushunaman, agar u original bo'lsa, barcha nuqsonlarini kechirishga tayyorman. Velaskes rassom sifatida, ehtimol, El' Grekoda yuqoriroq bo'lgandir. Lekin uning asarlariga ko'nikib qolamizda, ehtirosli va o'z qalbining mangu fidoyiligini ko'rsatgan durdonalarini unchalik ham qadrlayvermaymiz. Artist, rassom, shoir yoki sozanda o'zining ko'tarinki va ulug'vor san'ati bilan estetik tuyg'uning ehtiyojini qondiradi, lekin bu qoniqish jinsiy instinktga o'xshab ketadi. Uning siri bamisoli sarguzasht romanlarday kishini o'ziga tortadi. Bu xuddi koinot sirlariday anglab bo'lmas jumboqdir. Striklendning eng arzimaday tuyuladigan asarlari ham rassomning o'ziga xos, murakkab, azob-uqubatlar bilan to'la shaxsiyati to'g'risida ko'p narsalarni ayta oladi. Ular rassomning asarlari unchalik didiga o'tirishmaydigan odamlarni ham befarq qoldirmaydi, uning hayoti, xarakterining o'ziga xos tomonlariga qiziqish uyg'otadi.

Striklend vafotining to'rt yilligi arafasida Moris Gyurening вЂњMerkyur de FransvЂќda e'lon qilingan maqolasi bu rassomni unutilib ketishdan saqlab qoldi. Ko'pgina taniqli adabiyotchilar Gyure ochgan so'qmoqdan yurishdi. Ancha vaqtlargacha Fransiyada birorta tanqidchining rassom haqidagi fikrlariga unchalik qo'shilishmadi. Tanqidchining fikrlari g'alati tuyuldi. Lekin keyinroq maydonga kelgan ishlar Gyurening haqligini ko'rsatdi. Shu ma'noda Charlz Striklendning shuhrati fransuz qo'lyagan poydevorga asoslanadi, deb bemalol aytish mumkin. Bu shuhrat san'at tarixidagi eng romantik epizodlardan biridir. Lekin men Charlz Striklend san'atini tahlil qilmoqchi emasman, uning shaxsiyatini ochadigan qirralari to'g'risidagina to'xtalmoqchiman.

San'atning o'ziga xos xususiyatlarini bilmaydigan odamlar rassomchilikda muqarrar ravishda hech narsaning fahmiga borishmaydi va shu boisdan bunday asarlarni miq etmay tomosha qilganlari ma'qul deb fikr yuritadigan rassomlarga qo'shila olmayman. San'atga hunar deb qarash, uni faqat hunarmand odamlargina tushunadi, deyish tamomila xatodir. San'at tuyg'ularni namoyish etish shakli, tuyg'u esa hamma tushunadigan tilda ifodalanadi. San'at texnologiyasini amaliy jihatdan unchalik tushunmaydigan tanqidchilik esa hech qachon salmoqliroq gap ayta olmaydi, degan fikrga qo'shilaman. O'zinning esa rassomchilik sohasida hech narsaga aqlim yetmaydi. Baxtinga bunday xatarli sarguzashtni boshlashning zaruriyati ham yo'q. Zero, mening do'stim, talantli adib va ajoyib rassom, janob Eduard Leggat o'zining mo'jazgina kitobida Striklend ijodini mufassal tahlil etgan. Mazkur kitob Angliyaga qaraganda Fransiyada ko'proq muvaffaqiyat qozongan va men uni san'at asarlarini nozik his etish va nazokatli uslubda yozishning ajoyib namunasi degan bo'lardim.

Moris Gyure o'zining mashhur maqolasida keng ommada qiziqish va ishtiyoq uyg'otish uchun Striklendning hayotiy yo'li to'g'risida maroq bilan hikoya qiladi. San'atni yuksak ehtiros bilan sevgan Gyure chinakam, favqulodda o'ziga xos talantning qadriga yetadiganlarning e'tiborini o'ziga qaratishga harakat qildi. Ajoyib jurnalist bo'lganligi tufayli, maqsadga tezroq erishish uchun odamlarni qiziqitira oldi. Striklend bilan qachonlardir uchrashgan, u Londonda istiqomat qilgan paytidan biladigan, yozuvchilar Monmantrda yonma-yon o'tirgan rassomlar omadsiz va shunchaki bir suratkash deb yurgan odamlari chinakam daho rassom bo'lib chiqqanidan behad hayratlanardilar. Fransiya va Amerikadagi jurnallarda rassom to'g'risidagi maqolalar bodrab chiqdi. Bu maqolalardagi xotira va maqto'vlar xuddi olovga kerosin sepgandek, ommaning rassomga qiziqishini yanada avj oldirardi. Mavzu g'oyat qiziqish uyg'otadigan mavzu edi. Tirishqoq Veybrent-Rotgol's o'zining salmoqli monografiyasida Striklend to'g'risida fikr bildirilgan ishlarning uzundan-uzoq ro'yxatini keltiradi.

Inson tabiatida afsonalar to'qishga ishtiyoq kuchli bo'ladi. Shuning uchun ham odamlar o'zlariga o'xshagan kishilarning hayoti to'g'risida hammani hayron qoldiradigan va sirli hikoyalarga to'qishga intilishadi. Keyinchalik o'zlari to'qishgan afsonalarga o'zlari ham ishonib qolishadi. Bu o'rtamiyona hayotga qarshi romantikaning isyonidir.

Hayoti to'g'risida afsonalar to'qilgan odam esa mangu'likka daxldor bo'lib qoladi. Hazilkash faylasuf insoniyat janob Uolter Reli tamomila yangi joylarga ingliz bayrog'ini tikkanini emas, balki malikaning oyoqlari ostiga yomg'irpo'shini tashlagan vaqtning ehtirom bilan eslaydi, deb kulgan edi. Charlz Striklend xilvatda hayot kechirgandi. Uning do'stlaridan dushmanlari ko'proq edi. Shuning uchun rassom haqida fikr bildirganlar o'zlarining uzuq-yuluq xotiralari yoniga turli-tuman to'qimalar qo'shganlar. Holbuki, rassom to'g'risida biladigan o'sha narsalari ijodkor shaxsiyatini romantik tarzda hikoya qilish imkonini berardi. Uning hayotidagi juda ko'p narsalar g'alati va qo'rqinchli edi, qiyofasi doimo jazavaga tushgan holatda bo'lardi. Qismat uning boshiga g'oyat og'ir ko'rgiliklarni yog'dirgandi. U to'g'risidagi afsonalar asta-sekin shu qadar keng yayilib ketdiki, aqli raso tarixchi hech qachon unga suyanishni o'ziga ravo ko'rmaydi.

Lekin taqvodor Robert Striklend aqli raso tarixchi emasdi. U, chamasi, o'z otasining tarjimai holini, вЂњtarqalib ketgan ba'zi noaniqliklarni tushuntirish, hayotining ikkinchi qismidagi вЂќ hozirda ham barhayot kishilarga ko'p iztiroblar keltirgan вЂњtafsilotlarini izohlash вЂќ uchun yozgan ko'rinadi. Albatta, mazkur kitobda hikoya qilingan juda ko'p narsalar mo'tabar xonadonni xijolatda qoldirdi. Striklend - o'g'ilning asarini o'qib men rosa kuldim. U g'oyatda zerikarli va sayoz yozilganligiga ham xursand bo'ldim. Robert Striklend o'z asarida rassomni g'amxo'r er va ota, oqko'ngil, mehnatsevar va yuksak axloqli odam sifatida tasvirlagandi. Hozirgi davrda cherkov xizmatchisi bo'lgan muallif matnni tahlil etish sohasida mahorat ko'rsatadi. Ruhoniy Striklend otasi hayotidagi barcha faktlarni hurmatli o'g'ilning manfaatlariga moslashtirgan, kelajakda cherkov hayotida yuqori martabalarga erishishiga yordam beradigan qilib o'zgartirgan. Men xayolan uni yo'g'on gavdasiga ruhoniylar kiyimini kiyib olgan holda tasavvur qildim. Hayiqmay amalga oshirilayotgan bu ish g'oyat xatarli edi. Yangi afsona ota shuhratining oshishiga olib keldi. Zero, rassom shaxsiyati tufayli Striklend san'atidan shu vaqtgacha ko'ngli to'lmaganlar ham yo'q emasdi. Uning o'limiga ba'zilarning rahmi keldi. O'g'ilning yaxshi niyat bilan qilgan harakatlari g'alati bir tarzda otasining ixlosmandlarining ko'nglini ancha sovutdi. Striklendning eng yaxshi asarlaridan biri hisoblanuvchi вЂњSamariyalik xonim вЂќ rassomning yangi tarjimai holi tufayli boshlangan bahsdan keyin bundan to'qqiz oy oldin taniqli kolleksioner sotib olgan narxdan 235 funtga arzonlashgani tasodifiy emas. Tez orada kolleksioner vafot etgach, bu rasm kimoshdi savdosiga chiqarib yuborildi.

Ehtimol, Striklend san'atiga o'ziga xoslik va o'ta jozibadorlik yetishmas. Agar falsafa doktori Veytbrext-Rotgol's kitobi o'z vaqtida chiqmaganda, balki san'at shinavandalarining rassom asarlari haqidagi barcha shubhayu gumonlari tarqamagan bo'larmidi?! Doktor Veytbrext-Rotgol's inson zotining butun turish-turmushi zalolatB-dan iboratdir degan aqidaga rioya qiluvchi tarixchilar maktabiga mansubdir. Albatta, bu maktab namoyandalari favqulodda va romantikaga moyil odamlarni himmat egalari va namuna sifatida ko'rsatishni afzal biluvchilarga qaraganda kitobxonga ko'proq mamnuniyat bag'ishlaydi. Masalan, meni Antoniy bilan Kleopatrani faqat moddiy manfaatlargina birlashtirguday bo'lsa juda xafa bo'lardim. To'g'ri, Tiberiy qirol Georg V ga qaraganda yaxshiroq hokimi mutlaq bo'lganligiga ishonishim uchun favqulodda ishonchli dalillar kerak bo'ldi. Doktor Veytbrext-Rotgol's yaxshi niyatlar bilan tarjimai hol yozgan Robert Striklendni shunday iboralar bilan ta'zirini berdiki, ruhoniya beixtiyor rahmingiz keladi. Uning nazokatini mug'ambirlik, mujmal mulohazalarini qip-qizil aldamchilik, atayin indamay o'tilgan joylarni xoinlik deb atadi. Boshqa yozuvchilar uchun kechirish mumkin bo'lmagan, ammo o'g'li bo'lganligi tufayli kechirish mumkin bo'lgan haqiqatdan chekinilgan joylarni riyokorlik, tentaklik, ohanjamalik, makkorlik deb baholandi. Shaxsan o'zim janob Striklend otasi bilan onasi orasidagi kelishmovchiliklar to'g'risidagi ovozalarni inkor etish uchun Charlz Striklendning Parijdan yuborgan xatidagi вЪњhurmatga sazovor ayolвЪќ degan iborasini keltirganda shoshqaloqlikka yo'l qo'ygan deb hisoblayman. Chunki doktor Veytbrext-Rotgol's xatning asl nusxasini topib, undagi ochiq-oydin yozib qo'yilgan: вЪњХotinimni jin ursin. U hurmatli ayol. Lekin men uni allaqachon do'zaxda bo'lishini afzal bilardimвЪќ degan so'zlarini e'lon qiladi. Shuni aytish kerakki, o'sha vaqtlarda katta nufuzga ega bo'lgan cherkov bunday mulohazalarga, tabiiyki, ola qaragan. Doktor Veytbrext Charlz Striklendning otashin muxlisi edi, shu tufayli ham u barcha vositalar bilan rassomni qoralaydi deyishga o'quvchilarda asos yo'q. Bundan tashqari, doktor g'oyat olijanob ko'rinayotgan harakatlar tagidagi oqimni bexato seza olardi. Psixopatolog va shu bilan birga san'atshunos bo'lgan bu olim ong osti dunyosidan ham yaxshigina xabardor edi. Birorta mutasavvuf oddiy narsalar zaminidagi yashirin ma'noni undan yaxshiroq anglab yetmog'i amrimahol edi. Mutasavvuf aytilmagan narsalarni ko'ra oladi, psixopatolog esa gapirilmagan narsalarni ham bila oladi. Olim muallif o'z qahramonini tahqirlashi mumkin bo'lgan har bir tafsilotni ishtiyiq bilan hikoya qilganini kuzatish maroqli edi. U qahramonining shafqatsizligi va pastkashligiga misol bo'la oladigan biror holatni topganida xuddi dahriyni gulxanga tashlagan inkvizitor qozisiday xursandchilikdan entikadi. Muallifning tirishqoqligiga qoyil qolsa arziydi. Rassom hayotiga oid arzir-arzimas barcha tafsilot ham uning nazaridan soqit bo'lmagan. Biz bu asar orqali Charlz Striklend kirxona hisob-kitob daftarchasiga biror marta haq to'lamagan bo'lsa ham, olgan qarzini yarim kron kamroq to'lagan bo'lsa ham bilib olamiz. Demak, muallifning nazaridan rassom hayotining ikir-chikir tafsilotlari ham chetda qolmagan.

Ikkinchi bob

Charlz Striklend to'g'risida shu qadar ko'p narsa yozilganki, mening ham u haqida yozishim joizmikin, deb o'ylab qolaman. Uning o'z asarlari rassomga qo'yilgan haykaldir. Shu narsa rostki, men uni boshqa ko'pchilikka qaraganda yaqindan bilaman. Ilk marotaba uni Charlz rassom bo'lmasidan ilgariroq ko'rganman. Parijda nochor hayot kechirgan paytlarida ham tez-tez ko'rib turardim. Shunday bo'lishiga qaramasdan urush tasodiflari tufayli qismat meni Taitiga ulotirib tashlamaganda hech qachon u to'g'risida yozmagan bo'lardim. Ma'lumki, rassom hayotining oxirgi yillarini o'sha joylarda o'tkazgan. Men Taitida uni yaqindan bilgan talay odamlar bilan tanishdim. Shunday qilib, menda hozirgacha nisbatan uning mavhumroq bo'lib qolayotgan fojiali hayotining o'sha davrini ma'lum darajada oydinlashtirish imkoniyati tug'ildi. Agar ko'pchilik hisoblaganidek, Striklend chindan ham ulug' rassom bo'lsa, u bilan deyarli har kuni ko'rishib turgan odamlarning fikrini eshitish qiziqarlidir.

To'g'risini aytsam, bunday izohlarga zaruriyat bormikin o'zi! Kimligi xotiramda yo'q-ku, ammo qaysidir donishmand odamlar ruhiy muvoB-zanatlarini saqlab turishlari uchun kuniga ikki marotabadan o'zlari yoqtirmagan ishni bajarib turishlari lozim, degan ekan. Shaxsan men bu topshiriqni aniq bajaryapman, har kuni o'rnimdan turaman va har kuni o'rnimga yotaman. Tabiatim tarkidunyochilikka moyilroq odam bo'lganim uchun har haftada o'zimni yana bundan ham og'irroq azobni bajarishga majbur etaman вЪњТаумsvвЪќga adabiy ilovani o'qiyman. Son-sanoqsiz chiqayotgan bunday kitoblarning qaysi birlari yashab qolarkin, muvaffaqiyat qozonarkin? Agar muvaffaqiyat qozonsa ham uzoqqa bormasa kerak. Bunday kitoblarning muallifi tasodifiy o'quvchini biror soat ovuntirish, safarga otlanganlarni yo'ldagi zerikishdan qutqarish uchun qanday iztiroblarni boshdan kechirgani-yu, qancha tajribalar o'tkazgani yolg'iz Ollohga ayon. Agar bunday asarlarga yozilgan taqrizlarga qarab mulohaza yuritilguday bo'lsa, ularning aksariyati yaxshi yozilgan, ularda juda yaxshi fikrlar ifodalangan, ba'zilari esa butun umr mobaynida qilingan mehnatning natijasi. Aytilganlardan shunday xulosaga kelamanki, yozuvchi faqat ish jarayonida, yuk bo'lib turgan fikrlaridan qutulgani uchungina taskin topgani, asar to'g'risidagi yaxshi va yomon gaplarga ham, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga ham beparvo bo'lib qolgani ma'qul.

Lekin urush boshlanishi bilan birga narsalarga yangicha munosabatlar ham paydo bo'ldi. O'shlar bizning davrimizda tilga olinmaydigan xudoga sig'ina boshlashdi. Bizdan keyingi avlod qaysi yo'ldan ketishi endilikda ma'lum bo'lib qoldi. Tinib-tinchimas va o'z kuchini biladigan yosh avlod eshikni chertib o'tirmaydi, to'g'ridan-to'g'ri uyga kirib o'rnimizga o'tiradi qo'yadi. Ularning qiyqirig'idan hammayoq larzaga keladi. Keksalar yoshlarning qiliqlariga taqlid qilish hali davrlari o'tmaganligiga o'zlarini ishonitirmoqchi bo'lishadi. Ular yoshlar bilan birga jo'rovoq bo'lishga intilishadi, lekin ularning og'izlaridan jangovar hayqiriq emas, mungli nola chiqadi. Ular pardoz bilan o'zlarining avvalgi yoshliklarini qaytarmoqchi bo'lgan keksa satanglarni eslatadi. Esliroqlari esa qadr-qimmatlarini bilgan holda o'z yo'llaridan og'ishmay ketaveradilar. Ularning istehzoli tabassumlarida bir vaqtlar bizlar ham xuddi sizlardek edik, tez orada sizlar ham o'z o'ringizni yangi avlodga bo'shatib berasizlar degan ma'noni uqish mumkin bo'ladi. Hech qachon so'nggi so'z aytilmaydi. Nineviya shon-shuhratga ko'milgan paytda boshqa ko'pgina joylar tanazzulga yuz tutayotgandi. Gapirayotganlarga xuddi yangiday tuyulayotgan jasur so'zlar ko'pincha boshqalar tomonidan xuddi o'sha ohanglarda yuzlarcha marotaba aytilgan bo'ladi. Mayatnik orqaga va oldinga tebranib turadi. Harakat muqarrar ravishda doira bo'ylab sodir bo'ladi.

Ba'zan odam o'z davridan nariroq o'tib o'zga davrlarda ham yashaydi. Endilikda Jorj Krabbn kim eslaydi? U o'z davrida o'ta mashhur edi, hamma daho sifatida tan olgandi. U Aleksandr Popning shogirdi bo'lib, masnaviy yo'sindagi axloqiy hikoyalar yozardi. Lekin Fransiyada revolyutsiya ro'y berdi, keyin Napoleon urushlari boshlandi, shoirlar yangi qo'shiqlar aytishga tushishdi. Krabb esa masnaviy yo'sindagi axloqiy hikoyalar yozishda davom etdi. Aytish mumkinki, u dunyoni ag'dar-to'ntar qilib yuborgan o'spirinlarning she'rlarini o'qirdi va bularni safsata deb hisoblardi. Albatta, bu she'rlardagi juda ko'p gaplar safsata edi. Lekin Kits va Vordsvort qasidalari, Kol'rijning qator dostonlari, ayniqsa, Shelli asarlari bashariyatga ruhning hali noma'lum jihatlarini kashf etdi. Janob Krabb o'lguday tentak edi, u hamon masnaviy yo'lida didaktik tarixlarni yozishda davom etdi. Men gohida yoshlar

ijodini o'qib turaman. Ehtimol, jo'shqin Kits va ko'tarinki ruhdagi Shelli insoniyat asrlar mobaynida esda tutadigan yangi ijod namunalari e'lon qilishgandir. Bilmadim. Ular o'z qamlari ostidan chiqayotgan asarlar ustida zargarona hafsa bilan ishlashlariga qoyil qolaman. Uslublarining mukammalligiga hayratlanaman. Lekin ularning so'z boyliklari (chamasi, ular bolaliklarida Rojening вЪњLug'atвЪќini rosa o'qishgan bo'lsa kerak) menga hech narsani bildirmaydi. Nazarimda, ular haddan tashqari ko'p narsa bilishadiganday va lekin bularni yuzakiroq his etishadiganday tuyuldi. Yelkamga qoqib samimiy erkalatishlarini ham, hayajondan ko'kragimga o'zlarini tashlashlarini ham yoqtirmayman. Ularning ehtirolari juda majmag'il, orzulari esa maroqsiz tuyuldi menga. Men ularni yoqtirmayman. Chunki men boshqa davr odamiman. Men hamon masnaviy yo'lidagi didaktik tarixlarimni bitaveraman. Lekin bularning barchasini faqat o'zimni ovutish uchungina qilganimda tentak bo'lar edim.

Uchinchi bob

Bularning barchasi shunchaki aytilgan gaplar. Birinchi kitobimni yozganimda juda yosh edim. Baxtli tasodif tufayligina u e'tibor qozondi, turli odamlar men bilan tanishish yo'llarini qidira boshlashdi.

London adabiy olamiga kirib kelgan tortinchoq chog'larim to'g'risidagi ma'yus xotiralarga berilaman. Men anchadan beri Londonda bo'lganim yo'q. Agar romanlarda uning o'ziga xos belgilari to'g'ri tasvirlanayotgan bo'lsa, u yerdagi juda ko'p narsalar o'zgarib ketgan. Adabiy hayot qaynaydigan joylar ham o'zgaragan. Ilgarigi Xampsted, Notting-Xillgeyt, Xay-strit va Kensington singari adabiy markazlar o'z o'rnini Chelsi va Blumsberiga bo'shatib bergan. O'sha vaqtlarda qirqdan yoshroq yozuvchilar odamlar e'tiborida bo'lardi, endilikda yigirma beshdan oshgan yozuvchilar kulgili tuyuladi. U paytlarda biz o'z tuyg'ularimizdan uyalandik, boshqalarga kulgili ko'rinmaslik uchun o'zimizga ishonch tuyg'usini cheklab turardik. O'sha vaqtlardagi ziyolilar ahli axloqiy qadriyatlar uchun qanchalik g'amxo'rlik qilishganini unchalik bilmadim-u, lekin harholda bu narsalar hozirgidagidek ayqash-uyqash bo'lib ketmagandi. O'ylamay ish qilishimizni indamaslik pardasi bilan berkitsak-da, o'zimizni ikkiyuzlamachi deya olmasdik. Narsalarni o'z nomi bilan atash, to'g'risini aytish bizda majburiy hisoblanmasdi, ayollar esa u paytlarda mustaqil hayot kechirishga o'rganishmagandi.

Men Viktoriya vokzalidan uncha uzoq bo'lmagan joyda yashardim, iltifotli adabiyotchilar huzuriga izvoshta mehmonga borib turardim. O'zimda jur'at topib qo'ng'iroqchani bosgunimgacha ko'cha bo'ylab u yoqdan-bu yoqqa ancha vaqtgacha borib kelardim, so'ng qo'rquv va hayajondan yuragimni hovuchlab, odamlar bilan liq to'lib ketgan diqqinafas xonaga kirardim. Meni goh u, goh bu mashhur yozuvchiga tanishtirishardi, ulardan o'z kitobim to'g'risida maqtov gaplarni eshitganimda butun a'zoyi badanim qizib ketardi. Ular mendan o'tkir gaplar kutishayotganini his etib turardim, lekin bunaqa gaplar o'tirish tugagandan keyingina xayolimga kelardi. Tortinchoqligimni yashirish uchun men zo'r berib yonimdagilarga choy va kesib qo'yilgan buterbrodlarni uzataverardim. Men iloji boricha ko'zga tashlanmaslikka va bu ulug' odamlarni bamaylixotir kuzatish, aqlli gaplarini eshitishga harakat qilardim. Bu o'tirishlardagi barvasta bo'yli, jiddiy, qirraburun, odamga yeb qo'yguday tikiladigan xonimlar esimda qolgan. Men xuddi sehrlanganday ular qo'lqoplarini yechmasdan qovurilgan nonni yutoqib yeyishayotganini, keyin esa barmoqlarini go'yo birov ko'rmayotganday stullarga artishayotganini ko'rib turardim. Bu holat, tabiiyki, mebel' uchun yaxshi emas, lekin o'ylashimcha, xonadon sohibasi buning javobini o'z navbatida ularnikiga mehmonga borganda ikki hissa qilib qaytaradi. Xonimlarning ba'zilari so'nggi moda bo'yicha kiyinishardi, roman yozadigan odamlar bo'lishgani uchun qo'g'irchoqqa o'xshab yurishni istamasliklarini aytishardi. Agar qomating raso bo'lsa, uni ko'z-ko'z qilishga intil, ingichka oyoqqa kiyilgan chiroyli tuflari biror noshirga sening вЪњmahsulotвЪќingni sotib olishga xalaqit bermaydi. Boshqalari, aksincha, bunday qarashni yengiltaklik deb baholashar, boshqacharoq kiyinishar va turli-tuman bezaklarni taqib yurishardi. Erkaklar esa, odatda, sipo kiyinishardi. Ular dunyoviy odamlarga o'xshab ko'rinishga intilishar, ko'rganlar ularni nufuzli firmalarning boshliqlari deb o'ylashlari hech gap emasdi. Ko'rinishlari esa har doim horg'in edi. Men shu vaqtgacha hech qachon yozuvchilarni ko'rmagandim, shuning uchun ular juda g'alati, hatto qandaydir soxtaga o'xshab tuyulardi.

Ularning gaplarini qoyilmaqom deb bilardim, o'zlariga salgina qarshi chiqqan hamkasaba qalamkashlarni darhol haqorat qilib tashlashlarini eshitib hayron qolardim. Artistona ko'rinishli odamlarning afzalligi shundan iboratki, do'stlari ularning mazax qilishlariga o'zlarining ko'rinishlari va xarakterlari bilangina emas, balki asarlari bilan ham asos beradilar. Men hech qachon o'z fikrlarimni ularga o'xshab go'zal va osongina ifodalay olmasam kerak deb ishonardim. O'sha vaqtlarda so'zlash, nutqni san'at deb bilishardi. O'rnida topilgan o'tkir javob juda yuqori baholanardi. Chiroyli aytilgan epigramma o'tirishlarni jonlantirib yuborardi. Baxtga qarshi men so'zdagi bunday mushakbozliklardan birortasini eslab qolmaganman. Lekin, nazarimda, kasbimizning tijorat bilan bog'liq tomonlari to'g'risida gap ketganda suhbat yanada qizirdi. Yangi paydo bo'lgan kitobni muhokama qilayotganimizda, tabiiyki, biz uning qancha nusxasi tarqalgani, muallif qancha haq olgani, kitob unga yana qancha daromad keltirishi to'g'risida so'zlandik. Keyin muqarrar ravishda noshirlar to'g'risida gap ketardi, bir noshirning saxiyligi ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yilardi. Ularning qaysi birlari bilan hamkorlik qilish, qaysi birlari qalam haqiga ziqnalik qilmasligi yoki qaysi biri har qanday asarni ham o'tkaza olishi haqida so'zlashardik. Ba'zi noshirlar zamonaviy asarlarga, boshqalari esa eski uslubdagi ijod namunalari o'chligini ta'kidlardik. Keyin gap biz uchun buyurtmalar undiradigan komissionerlar, gazeta muharrirlari, ularga zarur maqolalar, mingta so'zga kim qancha to'lashi, to'laganda ham o'z vaqtida to'laydimi yoxud kechiktirib yuboradimi, singari masalalarga kelib taqalardi. Bularning barchasi menga g'oyat romantik tuyulardi. Men o'zimni qandaydir yashirin hamkorlikning a'zoiday his etardim.

To'rtinchi bob

O'shanda hech kim menda Roza Uoterfordchalik xayrixohlik uyg'otmagandi. Unda donishmand erkaklarga xos fazilatlar bilan birga, ayollarga xos nazokat uyg'unlashgandi, qalami ostidan chiqqan romanlar esa o'z originalligi bilan kitobxonlarni hayron qoldirardi. Charlz Striklendning xotinini ilk marotaba uning uyida uchratgandim. Uoterford xonim bir piyola choyga chaqirganda uning uyiga juda ko'p odam yig'ildi. Hamma bir-biri bilan valaqlashar, men esa bir chekkada jimgina o'tirardim, o'zimni g'oyatda noqulay his etardim. Lekin juda tortinchoq bo'lganligimdan mehmonlarning biror guruhiga qo'shila olmasdim, o'z ishiga g'arq bo'lgan odamday miq etmay o'tirardim. Uoterford xonim mehmondo'st xonadon sohibasi sifatida sarosimada o'tirganimni ko'rib yordamga shoshildi.

- Siz Striklend xonim bilan gaplashishingiz kerak, - dedi u. - Xonim kitobingizni o'qib qoyil qolibdi.

- Striklend xonim qanday ish bilan shug'ullanadi? - qiziqib so'radim men.

Agar Striklend xonim taniqli adiba bo'lsa, bu savolim bilan o'zining gumrohligimni ko'rsatgan bo'lardim. Shunday bo'lgan taqdirda u bilan suhbatlashish uchun ma'lum narsalarni bilib olmog'im darkor edi.

Roza Uoterfild xonim so'zlarining ta'sirini ko'rsatmoq uchun o'zini hayron qolgan kishi qilib ko'rsatdi.

- U - odamlarni bir piyola choyga chorlab turuvchi mehmondo'st ayol. Agar siz xonimga ma'qul kelsangiz, uning taklifiga sazovor bo'ldim deyavering.

Roza Uoterford beadabroq edi. Hayot uning tasavvurida roman yozish uchun qulay bir vosita, odamlar esa zarur xomashyo edi. Vaqt-soati bilan bunday xomashyolar orasidan uning iste'dodiga qoyil qoladiganlarni uyiga taklif etar va iltifot ko'rsatardi.

Odamlarning taniqli kishilarga yaqinroq bo'lishga intilishdek qusurlari ustidan miyig'ida kulgan holda o'zini g'oyat mashhur odam qilib ko'rsatishga intilardi.

Menga tanishtirilgan Striklend xonim bilan o'n daqiqalar chamasi yuzma-yuz turib gaplashdik. Men yoqimli ovozidan boshqa unda e'tiborga sazovorroq biror narsa payqamadim. U Vestminsterda yasharkan, uyining derazalari hali qurib bitkazilmagan cherkovga qarab turarkan. Men ham shu uyga yaqin joyda yashardim. Bu holat bir-birimizni yaqinroq his etishga imkoniyat yaratdi. Armiya va Flotning bosh do'koni Temza va Sent-Jeyms bog'i oralig'ida yashovchilar uchun bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'tardi. Striklend xonim mening yashash manzilimni so'rab oldi va bir necha kundan keyin nonushtaga taklifnoma yubordi. Men bunday taklifnomalarni juda kam olardim va shu boisdan, taklifni jon-jon deb qabul qildim. Hammadan erta borib qolmayin deb cherkov atrofini uch marotaba aylanib chiqib mehmonga kechikibroq kirib borganimda hamma jamuljam edi: Uoterford, Jey xonimlar, Richard Tuayning va Jorj Rod singari yozuvchilar yig'ilishgandi. Musaffo havoli bahor kunlaridan biri bo'lganligi tufayli, yig'ilganlar a'lo kayfiyatda edilar. Ular turli-tuman mavzularda gurunglashishardi. O'shlarga xos yenglariga gul tikilgan yashil ko'ylak, kamolot yoshidagi ayollarga xos baland poshnali tufli kiyib, Parij atir-upalari bilan o'ziga oro bergan Uoterford yangi shlyapada edi. Bu holat uning so'zlariga favqulodda keskinlik bag'ishlardi. Ilgari hech qachon bizning umumiy do'stlarimiz to'g'risida bu qadar jahl bilan so'zlaganini eshitmagandim. Axloqsizlik zakovatning qalbi deb ishonadigan Jey xonim yarim ovozda shu qadar beparda askiyalar qilardiki, bamisoli oq dasturxon ham qizarib ketguday bo'lardi. Richard Tuayning esa qandaydir bo'lmag'ur gaplarni tinmasdan valdirardi. Jorj Rod esa hozirgi holatda askiya aytishning hojati yo'q degan xayolga borib miq etmas, og'zini faqat lazzatli taomlardan biror bo'lagini tashlab yuborish uchungina ochib qo'yardi. Striklend xonim kam gapirsa-da, lekin unda umumiy suhbatni qovushtirib turish qobiliyati kuchli ekan. O'rta biron sukunat tushguday bo'lsa, biror o'rinni luqma tashlar, natijada suhbat yana jonlanib ketardi. Barvasta bo'yli, semiz emas-u, ammo to'ladan kelgan o'ttiz yetti yoshlardagi bu ayol unchalik go'zal emasdi, lekin kulcha yuzdan kelgan xonim samimiy boqadigan jigarrang ko'zlari bilan xushro'ygina ko'rinardi. Qop-qora sochlarini hafsala bilan taragandi, pardozi-andozni ham me'yorida ishlatgandi. Shu boisdan ham boshqa ikki xonimga nisbatan sodda va tabiiyroq ko'rinardi.

Uning oshxonasi o'sha davrning yaxshi didli odamlariga xos ravishda saranjom-sarishta edi. Devorlarga taxta qoplanib bo'yab qo'yilgan, unga chiroyli qora ramkalar ichiga olingan rasmlar osilgan. Yashil eshik pardalari yashil gilamga tegay-tegay deb turibdi. Gilamlarda aksi tushirilgan sershox daraxtlar orasida quyonlar o'ynashib yurishibdi. Bu rasmlarda, shubhasiz, Uil'yam Morisning ta'siri seziladi. Tosh taxta sopol-chinni bilan mustahkamlangan. O'sha vaqtlarda Londonda bunday kamtar, chiroyli, ma'yus bezatilgan oshxonalardan besh yuzdan ortiqrog'ini uchratish mumkin edi.

Men mehmondorchilikdan Uoterford bilan birga chiqdim. Havoning ochiqligi va uning yangi shlyapasi bog'ni sayr etish haqidagi qarorimizga olib keldi.

- Vaqtini juda chiroyli o'tkazdik, - dedim men.

- Nonushta haqida qanday fikrdasiz? Men unga agar uyingga yozuvchilar kelishini istasang ziyofatni yaxshilab qil, - deb tayinlagandim.

- Oqilona maslahat, - dedim men. Lekin xonimga yozuvchilar nima uchun kerak?

Uoterford xonim yelkasini qisdi.

- U yozuvchilarni qiziq odamlar deb tushunadi va modadan qolishni istamaydi. U bechora juda soddadil, bizlarning hammamizni favqulodda odamlar deb faraz qiladi. Unga bizlarni nonushta bilan siylash yoqadi, biz esa bundan hech narsa yo'qotmaymiz.

Shuning uchun ham mening unga munosabatim juda iliq.

Bosib o'tilgan yo'lga qarab turib shunday o'ylaymanki, Striklend xonim mashhur odamlarga yaqinroq bo'lishni xohlovchilarning eng beg'arazi ekan. U yoshligida poytaxtdan uzoqroqda tinch hayot kechirgan. Poytaxt kutubxonasidan unga yuborib turiladigan kitoblar faqat o'z romantikasi bilangina emas, London romantikasi bilan ham o'ziga rom etgandi. Unda mutolaaga o'ta zo'r ishtiyoq bor edi (bu asarning o'zidan ko'ra yozuvchi bilan, asarlardan ko'ra rassom bilan qiziquvchilarda kamroq uchraydigan xususiyat), u kundalik hayotda erisha olmaydigan xayollar dunyosida yashardi. O'zuvchilar bilan tanishganda o'zini xuddi ilgari faqat tomoshabinlar zalidan ko'rib yurgan sahnaga chiqib qolganday his etardi. Xonim ularni shu qadar ideallashtirardiki, yozuvchilarni o'z uyida ziyofat qilayotganda yoxud ularnikiga borganida boshqacha, qandaydir ko'tarinki olamda yashayotganday his etardi. O'zuvchilarning hayot tarzi uni hayron qoldirardi, lekin o'z hayotini bir daqiqa bo'lsin shu tarzda o'tkazishni xayoliga ham keltirmasdi. Ularning erkin axloqlari, noodatiy kiyinishlari, g'alati nazariyalari o'ziga jalb etardi, lekin uning o'z e'tiqodlariga zarracha ta'sir eta olmasdi.

- Aytimg-chi, janob Striklend degan odam bormi o'zi? - qiziqib so'radim men.

- O, albatta bor-da. U Sitida nimadir qiladi. Birja dalloli bo'lib ishlaydi, shekilli. Juda zerikarli odam!

- Ular o'zaro yaxshi munosabatdamilar?

- Bir-birlarini sidqidildan yoqtirishadi. Xonim sizni tushlikka taklif etsa uni ko'rib qolarsiz. Lekin chet odamlar ularnikiga kam borishadi. Juda beozor odam. Adabiyot va san'atga sira qiziqmaydi.

- Nega dilbar ayollar ko'pincha zerikarli odamlarga turmushga chiqishadi?

- Nega deganda aqlli erkaklar dilbar ayollarga uylanishmaydi.

Men bu fikrga e'tiroz bildira olmadim va Striklend xonimning bolalari bor-yo'qligini so'radim.

- Ha, bir qizu bir o'g'li bor. Ikkalasi ham maktabda o'qishadi.

Mavzu tugagan edi. Biz boshqa narsalar to'g'risidagi suhbatga o'tib ketdik.

Beshinchi bob

O'z mobaynida Striklend xonim bilan tez-tez uchrashib turdim. Men uning uyidagi tantanali choyxo'rlikdan ko'ra yoqimtoyroq intim nonushtalariga borib turardim. Biz bir-birimizni samimiy yoqtirib qolgandik. Men hali juda yosh bo'lganim tufayli, ehtimol, adabiyot maydoniga qo'yayotgan dastlabki qadamlarimga bosh bo'lib turgani haqidagi fikr unga qandaydir yoqimli edi. O'nimda har qanday masalada dardu hasratimni diqqat bilan eshitadigan va o'rinni maslahat beradigan odamning borligi ko'nglimga taskin

berardi. Striklend xonimda rahm-shafqat tuyg'usi kuchli edi. Bu aslida ajoyib fazilat, lekin shunday fazilatga ega kishilar ko'pincha uni suiiste'mol qilishadi. Ular o'z qurbonlariga rahm-shafqat selini shu qadar ko'p yog'dirib yuborishadiki, natijada ular tamomila o'zlarini yo'qotib qo'yishadi. Aziyat chekayotganlarning g'am-tashvishlari o'zlariga yetmaganday hamdardlik bildirayotgan odamning ohu nolalari buning yoniga qo'shiladi. Striklend xonim esa bu fazilatini suiiste'mol qilmasdi. Uning hamdardligini qabul qilsangiz bag'oyat xursand bo'lardi. Bu kuzatishlarimni samimiy ravishda Roza Uoterford bilan o'rtoqlashgan paytimda u shunday dedi:

- Sut ichish, ayniqsa, unga kon'yak aralashtirib ichish maza, lekin sigir undan tezroq qutulishni xohlaydi. Shishib ketgan yelin g'oyat yoqimsiz narsa.

Roza Uoterfordning tilini xuddi zaharli ilon deysiz. Hech kim unchalik so'z bilan chaqib ololmaydi. Shu bilan birga hech kim unchalik yoqimtoy so'zlarga usta emasdi.

Striklend xonimning yana bir xususiyati menga yoqardiv B"orasta yashashni bilardi. Uning uyi doimo saranjom-sarishta va ozoda edi. Hammayoqda anvoyi gullar ko'zga tashlanadi. Mehmonxonaga qalin ip gazlamadan darparda osilgan. Xona ancha sipo ko'rinsa-da, yorug' va qandaydir yoqimli. Taomlari did bilan va mazali tayyorlanardi. Ixchamgina oshxonasidagi stol chiroyli idish-tovoqlar bilan bezatilgan. Ikkala xizmatkor ham g'oyat bashang kiyinishgan, ko'rinishi yoqimtoy. Striklend xonim ajoyib uy bekasi ekanligi shundoqqina ko'rinib turibdi. Tabiiyki, u ajoyib ona ham. Mehmonxonani bolalarining rasmlari bezab turibdi. O'n olti yoshlardagi o'spirin o'g'li Robert Regbida o'qirdi. Bir suratda u sport kostyumida, boshqasida tik yoqali kamzuldagi ko'rinishi tasvirlangandi. U ham xuddi onasi singari keng peshonali bo'lib, chiroyli, o'ychan ko'zlari qandaydir yoqimtoy boqardi. U ozoda, sog'lom va qobiliyatli o'spirindek taassurot qoldirardi.

- Uni judayam aqlli deb o'ylamayman, - dedi bir kuni suratga tikilib turganimni payqab, - lekin u sofdil va yoqimli bola.

Qizi o'n to'rtga chiqqandi. Uning onasiniki singari qopqora va quyuc sochlari to'lqin-to'lqin bo'lib yelkasiga tushib turardi. Yuzlari samimiy, ko'zlari betashvish edi.

- Ularning har ikkalasi quyib qo'yganday o'zingiz, - dedim men.

- Ha, ular otasiga qaraganda ko'proq menga o'xshashadi.

- Nega meni shu paytgacha eringiz bilan tanishtirmadingiz?

- Siz u bilan tanishishni xohlaysizmi?

U kulib qo'ydi uning kulgusi haqiqatan juda chiroyli edi - qizarib ketdi. Men uning yoshidagi ayolning salgina narsaga qizarishidan hayron qolardim. Lekin soddadillik uning yetakchi jozibas edi.

- U adabiyotga tamomila begona, tor fikrli odam, - dedi u.

Xonimning so'zlarida mensimaslik ohangi yo'q edi. Aksincha, uni o'z do'stalaridan himoya qilganday muloyimlik bilan gapirdi.

- U birjada ishlaydi, odatdagi birja dallollaridan biri. Siz u bilan gaplashsangiz zerikib o'lasiz.

- Sizga ham u bilan yashash zerikarlirmi?

- Yo'q, axir men uning xotini man-ku. Men unga juda o'rganib qolganman.

U xijolatini yashirish uchun kulimsirab qo'ydi. Nazarimda, u Roza Uoterfordga o'xshab biror hazilni aytib yuborishdan cho'chiyotgandek tuyuldi. Jim bo'lib qoldi. Ko'zlarida qandaydir nazokat va yoqimtoylik uchqunlari yaltillaganday bo'ldi.

- U o'zini daho deb hisoblamaydi, hatto birjada ham unchalik ko'p daromad qilmaydi. Lekin hayratda qoladigan darajada yaxshi va samimiy odam.

- O'ylaymanki, u menga yoqib qoladi.

- Men biror kuni oilaviy davradagi ovqatlanishga sizni taklif etaman. Lekin zerikib qolguday bo'lsangiz o'zingizdan ko'ring.

Oltinchi bob

Shunday sharoit ro'y berib, nihoyat, Charlz Striklend bilan uchrashganimiz B-dan keyin ham u bilan durustroq tanisha olmadim. Bir kuni ertalab Striklend xonimning qisqagina xatini keltirib berishdi. Unda bugun kechqurun uyida mehmonlarni kutishini, ilgari taklif qilingan mehmonlardan biri kelolmasligi sababli, uning o'rnini egallashi mumkinligi aytilgandi. Xatda yana shunday so'z ham bor edi:

в B"otirish juda zerikarli bo'lishini oldindan ogohlantirib qo'yishni o'z burchim deb hisoblayman. Mehmonlar tarkibi shunday deyishimga to'la asos beradi. Lekin shunga qaramay tashrif buyursangiz cheksiz minnatdor bo'lur edim. Orada biroz vaqt topib ozgina gurunglashamiz B'k.

O'zaro yaxshi munosabatlarimiz mehmondorchilikka borishimni taqozo etishini tushundim.

Striklend xonim meni eri bilan tanishtirganda u qo'limni siqib qo'ydi.

Xonim unga tikilganча, hazillashdi:

- Men uni haqiqatan ham erim borligini bildirib qo'yish uchun chaqirgandim. Menimcha, u bunga shubhalana boshladi.

Striklend nazokat bilan kulib qo'ydi. Odatda, aytilgan gapda kulgiga sabab bo'ladigan biror alomat bo'lmagan paytda shunday kulinadi. U kulib qo'ydi-yu, lekin hech narsa demadi. Yangi mehmonlar xonadon sohibining e'tiborini o'ziga tortdi va men yana o'z xayollarimga g'arq bo'ldim. Hamma yig'ilib bo'lganda men ziyofat stolini kuzatib borish topshirilgan xonim bilan gaplashib turardim. Xayolimga madaniyatli odamlar o'zlarining qisqa umrlarini har xil zerikarli marosimlarga sarflashga bunchalik usta bo'lishmasa, degan fikr keldi. Bu shunday ziyofat ediki, xayolimga beixtiyor ravishda xonadon sohibasi shuncha mehmonni kutib o'zini nega bunchalik urintirarkin, mehmonlar esa bu mashaqqatni o'zlariga nima uchun ravo ko'risharkin, degan fikrlar keladi. Stol atrofida o'n nafar odam to'plangandi. Ular uchrashishganda bamaylixotir va loqaydgina ko'rishishdi, stol atrofida esa yengil nafas olib turib ketishdi. Bunday ovqatlanish xuddi jazoni o'tashday gap edi. Striklendlar o'zlari uchun unchalik qiziqarli bo'lmagan bu odamlarni ovqatlanishga taklif etishlari в B'kerakv B'k edi. Mezbonlar o'z burchlarini ado etishdi, mehmonlar esa vazifalarini bajarishdi. Nega deysizmi? Uy egalari yolg'iz o'tirmaslik uchun ularni taklif etishgandi, mehmonlar esa o'z xizmatkorlariga dam berish, taklifni rad etishga asos bo'lmaganligi uchun bu yerga kelishgandi.

Oshxona ancha tor edi. Stol atrofida taniqli advokat bilan davlat amaldori xonimlari bilan, Striklend xonim opasining eri polkovnik Mak-Endryu bilan va bir parlament a'zosining xotini o'tirishardi. Parlament a'zosi o'sha kuni palatadan chiqib keta olmasligi ma'lum bo'lgach, uning o'rniga meni taklif etishgan ekan. Ancha basavlat ko'rinayotgan bu ulfatchilikda qandaydir badhazmlik bor edi. Ayollar o'z mavqelaridan mag'rurlanayotganday, e'tiborni jalb etish uchun ustomonlik qilishayotganday ko'rinishardi. Erkaklar esa o'zlarini viqor bilan tutishayotgandi.

Hamma ham odatdagidan qattiqroq gapirar, ulfatchilikni jonlantirishga intilardi, shuning uchun ham xona shovqin-suron edi.

Lekin o'rtadagi umumiy gap qovushmayotgandi. Mehmonlar gazak qilayotganda, suyuq ovqat ichayotganda va baliq yeyayotganda faqat o'ng tomondagi qo'shnisi bilan muomala qilardi, sabzavot va shirinlik yeyayotganda esa chap tomonidagi hamrohi bilan gaplashardi. Siyosat va gol'f, bolalar va so'nggi prem'era, Qirollik akademiyasida namoyish etilayotgan rasmlar, ob-havo, yoz mavsumida mo'ljallanayotgan ishlar to'g'risida so'z borardi. Gap-so'zlar bir daqiqa tinmas, shu tufayli ham shovqin tobora kuchayardi. Striklend xonim xursand bo'lsa arzirdi ziyofat ko'ngildagidek o'tdi. Uning eri xonadon sohibi rolini yaxshi uddalayotgandi. Lekin u haddan tashqari kamgap edi. Pirovardida uning ikki tomonida o'tirgan xonimlarning yuzlarida horg'inlik alomatlarini sezdim. Chamasi, xonadon sohibi ularni zeriktirib yuborgan. Bir-ikki marotaba eriga tikilib turgan Striklend xonimning tashvishli nigohini payqadim.

Shirinlik yeb bo'lingach, Striklend xonim o'rnidan turdi, davradagi boshqa ayollar ham gurr etib joylaridan qo'zg'alishdi-da, mehmonxonaga kirib ketishdi. Ular chiqib ketishgach, Striklend eshikni yopib, stolning narigi tomoniga o'tib, taniqli advokat va hukumat amaldorining o'rtasiga o'tirdi. U hammamizga bir qadahdan portveyn quydi-da, so'ng sigara bilan siyladi. Advokat sharobni ajoyib ekan deb maqtadi, Striklend uni qayerdan xarid qilganini aytdi. Gap sharob va tamaki ustida ketdi. Keyin advokat o'zi qatnashgan sud jarayoni to'g'risida so'zladi, polkovnik esa polo o'yini xususida bilganlarini ma'lum qildi. Ular bilan gurunglashadigan biror gapim bo'lmaganligi tufayli, jim o'tirdim, boodoblik bilan ularning suhbatiga quloq tutdim. Hech kimning men bilan ishi yo'q edi, bekorchilikdan Striklendga razm sola boshladim. U men o'ylaganimdan ko'ra baland bo'yliroq, oriqdan kelgan, ko'rimsizgina odam ekan; yelkasi keng, qo'llari va oyoqlari uzun, kastyumi o'ziga yopishmayroq turibdi. U bamisoli yasanib olgan aravakashga o'xshardi. U unchalik chiroyli ham emas, unchalik xunuk ham bo'lmagan qirq yoshlardagi erkak edi. Bichimi ancha to'g'ri, lekin me'yoridan kattaroq bo'lgan, soqoli qirtishlab olingan yuzlari g'alati taassurot qoldirardi. Sochlari sarg'ishdan kelgan, kalta qilib olingandi, ko'zlari kulrang bilan ko'k rangning o'rtasidagi qandaydir rangga moyilroq edi. Xullasi kalom, ko'rinishi o'rtamiyona edi. Men endigina Striklend xonim uni tanishtirishdan uyalishining ma'nosini tushundim. O'zuvchilar va artistlar jamoasidan o'rin olmoqchi bo'lgan ayolning eri bunday bo'lmasligi kerak edi. Unda joziba yetishmasdi. U biror g'alatiroq tabiati bilan ham ajralib turmasdi, shunchaki, oqko'ngil, zerikarli, halol, o'rtamiyona bir odam edi. Uning ba'zi fazilatlarini, ehtimol, diqqatga sazovordir, lekin u bilan muloqot qilishga chidash mumkin emasdi. Bu jihatdan uni yo'q deb hisoblasa ham bo'lardi. Jamiyatning yaxshigina a'zosi, durustgina er va ota, halol dalol bo'lsa ham unga vaqt sarflash xayf edi.

Yettinchi bob

Mavsum o'z poyoniga yaqinlashayotgandi, atrofdagilarning barchasi ketishga tayyorgarlik ko'rishayotgandi. Striklend xonim oilasi bilan Norfolkka ketishga hozirlanayotgandi. U yerda bolalari dengiz havosidan bahra olishadi, eri gol'f o'ynaydi. Biz u bilan kuzda uchrashishga kelishib, xayrlashdik. Lekin o'zim jo'nab ketishimdan oldinroq xonim va uning bolalari bilan do'kon ostonasida uchrashib qoldik. U ham xuddi men singari Londondan jo'nab ketish oldidan zarur narsalarni xarid qilayotgan ekan. Xonim horg'inroq va tutaqibroq turganday tuyuldi. Men ularga boqqa kirib muzqaymoq yeyishni taklif etdim.

Striklend xonim, chamasi, o'z bolalarini menga ko'rsatib qo'yish uchun bo'lsa kerak, taklifimga darhol ko'na qoldi. Uning bolalari esa suratdagiga qaraganda ham jozibalibroq ekan, ona haqli ravishda ular bilan faxrlanardi. Men yosh bo'lganim uchun uyalishmas, ko'ngillariga kelgan gapni aytishdan tortinishmasdi. Ular g'oyatda yoqimtoy, butun vujudlaridan salomatlik anqib turgan yosh vujudlar edi. Daraxt soyasida o'tirish ham lazmatli edi shu damlarda.

Oradan biror soat o'tgach, xonim bir otli izvoshni chaqirib jo'nab ketishdi, men esa kunni o'tkazish uchun klubga yo'l oldim. O'sha kuni ko'nglimda qandaydir g'ashlik bor edi, shuning uchunmikin, bilmadim, o'zimda ularning osoyishta oilaviy hayotiga ma'lum darajada hasad paydo bo'lganini sezdim. Chamasi, ularning hammalari bir-birlarini yaxshi ko'rishardi. Ular gaplarining orasiga qandaydir so'zlar qo'shib qo'yishar, bu so'zlar esa chetdagi odamga hech narsani anglatmas, lekin o'zlari bundan huzur qilib kulishardi. Ehtimol, Charlz Striklend so'zlash jozibasini jihatidan zerikarli odamdir, lekin uning shaxsiyati o'zi yashayotgan muhitga mos edi. Shuning o'zigina ma'lum muvaffaqiyatgina emas, balki baxt ham edi. Striklend xonimdek ajoyib ayol uni sevardi. Men ularning hech narsa rahna solmayotgan, halol, tinch, ajdodlarining sog'lom an'analari davom ettirishga tayyor turgan yosh avlod vakillari tufayli osoyishta kechayotgan sermazmun hayotlarini tasavvur qilib ko'rdim. У Ъ Ъ Ular umrlarining oxirigacha, to'qarib-chirib ketgunlarigacha shunday, tinchgina hayot kechirsalar, o'z farzandlarining kamolini ko'rsalar, o'g'illari kelajakda sog'lom zuriyodlar hadya etadigan yaxshigina qizga uylansa, qizlari esa kelishgan yosh yigitga, harbiy odamga turmushga chiqsa kerak deb xayol qildim. Huzur-halovatda, farzandlar va nabiralalar qurshovida uzoq umr ko'rib, baxtli va foydali hayot kechirib mangu uyquga ketsalar kerak Ъ Ъ degan fikrga bordim.

Ko'pgina er-xotinlar tarixi shu tarzda kechadi. Bunday hayotning o'ziga xos jozibasini, sehri bor. Bunday hayot ko'm-ko'k maysazorlar oralab quyuq daraxtlar tagidan jildirab oqayotgan, lekin dengizga borib quyilmaydigan, osoyishta irmoqchani eslatadi. Lekin dengiz shu qadar osoyishta va befarqki, beixtiyor qalbingga to'satdan qandaydir g'am-anduh kirib oladi. Ehtimol, bu narsa o'sha vaqtlardayoq ma'lum bo'lib, shaxsiyatimdagi o'ziga xos g'alatilik nishonasidir. Ko'pchilikning bunday qismati hammavaqt menga chuchmal tuyulardi. Men buning ijtimoiy qimmatini, insonni baxtiyor etishdagi o'rnini e'tirof etardim-u, qaynoq qonim esa qandaydir boshqacha, isyonkorona hayotni qo'rsardi shekilli. Bunday tabiiy quvonchlar negadir meni cho'chitardi. Mening yuragim xavf-xatarliroq hayotga intilardi. Hayot yo'limda suv osti qoyalariyu xiyonatkor sayozliklar uchrasa ham mayli, lekin u bir tekisda, zerikarli o'tmasin, toki kutilmagan, to'satdan paydo bo'ladigan quvonchni anglash imkoni bo'lsin.

Sakkizinchi bob

Striklendlar to'g'risida barcha yozganlarimni o'qib ko'rarkanman, ularning qiyofalari ancha nursiz chiqqanini payqab qoldim. Kitob qahramonlarining hayot tarzini belgilaydigan o'zlariga xos xususiyatlarini aniq ko'rsatib bera olmadim, shekilli. O'ylaymanki, bu mening kamchiligim. Men ularning xarakteridagi hayotlarini butunlay boshqa o'zanga solib yuborgan qandaydir o'ziga xos xususiyatlarini topish uchun ko'p bosh qotirdim. Ishonamanki, men qahramonlarim tabiatlaridagi ba'zi odat va qiliqlarni ko'rsatib, ularni jonlantirishga harakat qildim. Bo'lmasa ular xuddi gulqog'ozdagi shakllarday o'z qiyofalarini yo'qotgan bo'lishardi. O'zimni oqlaydigan yagona tomoni shundaki, ular menga aslida ham xuddi mana shunday tuyulishardi. Ijtimoiy organizmning bir qismiga aylanib ketgan odamlar singari ular majhulga o'xshardi nazarimda. Bunday odamlar tanamiz to'qimalaridagi juda zarur, sog'lom vaqtida esa biz tomonimizdan sezilmaydigan to'qimalarga o'xshaydi. Striklendlar odatiy burjua oilalaridan biri edi. O'zlarini sher fahmlaydigan ikkinchi darajali yozuvchilarga e'tiqod qo'ygan yoqimtoy va mehmondo'st xotin, Oллоh belgilab bergan o'rindagi o'z burchini halol bajarayotgan zerikarli er, xushmuomala sog'lom bolalar. Bundan ham ko'ra maqbulroq oilaviy uyg'unlikni topish amrimahol edi.

Keyinchalik ro'y bergan hodisalarni eslarkanman, o'zimdanda o'zim so'rab qo'yaman: nahotki Charlz Striklend qiyofasida o'zidan boshqani tan olishni istamaydigan oddiy odamlardan ajralib turadigan biror xususiyatni seza olmagan tentak bo'lsam. Ehtimol, shundaydir. Axir o'sha davrlar bilan hozirgi davr o'rtasida katta masofa bor, u vaqtlarda hayotiy tajribam yo'q edi, odamlarni bilmadim. Lekin, baribir, o'sha vaqtda hozirgi hayotiy tajribam bilan unga ro'baro' kelganimda ham xuddi avvalgisiday munosabatda bo'lardim. Lekin xayolimda, inson zotidan kutilmagan narsalarni kutish mumkin, degan fikr bo'lar va o'shanda Londonga qaytib kelganimdan keyin eshitgan axborotimdan o'shandagidek lol qolmagan bo'lardim.

Poytaxtga qaytib kelgan kunimning ertasiga Jermin-stritda Roza Uorterfordni uchratib qoldim.

- Kayfiyatingiz chog' ko'rinadi, nima gap o'zi? - deb so'radim.

U kulib qo'ydi, ko'zlarida birovning baxtsizligidan kulish alomatlarini zuhur etdi.

Buning sababini darhol tushundim. U do'stalaridan kim bilandir ro'y bergan janjalni tarixni gapirib berdi. Adabiyot olamidagi bu ayolning butun tuyg'ulari junbushga kelgandi.

- Axir siz Charlz Striklend bilan tanishsiz-ku?!

Uning faqat yuzigina emas, balki butun gavdasi to'la jangovar tayyorgarlikni ifodalab turardi. Men bosh qimirlatib taniyman degan ishorani bildirdim-u, xayolimga bechora yo' izvoshning tagida qolgan, yo' bo'lmasa birjada yutqazgan, degan fikr keldi.

- Dahshatli qismat! U xotinini tashlab ketdi!

Uoterford, tabiiyki, Jermin-stritdagi piyodalar yuradigan yo'l bu gapni davom ettirish uchun qulay joy emasligini his etdi va artistona shaxs sifatida bu xabarning o'zi bilanoq meni lol qilib qo'ydi. Ustiga-ustak, buning hech qanday tafsilotini bilmayman deb aytdi. Men shahar shovqin-suroni bu janjalning sabablarini aytishga monelik qilmas deb o'yladim.

- Aytyapman-ku sizga, boshqa hech narsani bilmayman, - dedi u mening bezovtalanib berayotgan savollarimga javoban: -

O'ylaymanki, xushro'yroq birorta qiz uni yo'ldan urib, birga ketgan.

U maftunkor kulib qo'ydi va o'zini tish doktori kutayotganini aytib poshnalarini taqillatganicha jo'nab qoldi.

Bu yangilik meni xafa bo'lishdan ham ko'ra ko'proq xayolimni o'ziga band etdi. O'sha vaqtlarda mening hayotiy tajribam juda kam edi. Mening tanishlarim hayotida ilgari faqat romanlarda o'qiganim voqealar ro'y berganidan larzaga kelgan edim. Keyinchalik atrofimda ro'y berayotgan bunday voqealarga o'rganib ketdim, lekin o'shanda bu voqea meni nihoyatda tashvishga solgandi.

Striklend qirqdan oshgan odam edi. Shunday tabarruk yoshdagi odamning ishqiy sarguzashtlar yo'lga kirib ketishini tushuna olmayotgandim. O'shlik mag'rurligi tufayli bo'lsa kerak, men odam o'ttiz besh yoshdan keyin sevish qobiliyatiga ega bo'lolmaydi deb hisoblardim.

Bu yangilik meni noqulay ahvolga solib qo'ygandi. Men qishloqda vaqtimda Striklend xonimga xat yo'llab, tez orada Londonga qaytib kelishim bilanoq, agar xonim lozim topsa unikiga bir piyola choy ichgani borishimni bildirgan edim. Xonimnikiga bugun borishga va'da bergandim, lekin undan javob xati olmaganim. U meni ko'rishni xohlaydimi, yo'qmi? Ehtimol, bunday tashvishlar bilan mening xatimni yodidan chiqargandir. Shu tufayli ham bunday tashrifdan hozircha voz kechib turgan ma'qulroq. Boshqa tomondan esa, ehtimol, u bu tarixni butunlay sir tutishni xohlar, men esa bu g'alati voqeani eshitganimni unga bildirib qo'ysam odobsizlik qilgan bo'larman. Men hammadan ham ajoyib ayolning tuyg'ularini haqoratlab qo'yasmikanman deb andisha qilardim, xira bo'lib ko'rinishdan qo'rquardim. Tabiiyki, u judayam iztirob chekayotgandi. O'rdam bera olmaganingdan keyin birovning qayg'usiga qanday qarab turasan? Garchi shunday bo'lsa-da, mening qiziquvchanligim ayol o'z boshiga tushgan tashvishga qanday chidayotganini bilishga undardi. Bir so'z bilan aytganda, men judayam gangib qolgandim.

Keyin men hech nima bo'lmaganday, unikiga boramanu xizmatkor orqali, Striklend xonim meni ko'rishni istash-istamasligini aniqlayman, degan qarorga keldim. Bu unga meni ko'rishni xohlamasa qabul qilmaslik imkonini berardi. Xizmatkorga oldindan tayyorlab qo'ygan so'zlarimni aytayotganimda ham sarosimada edim. Dahlizda javob kutayotganimda ham avvaldan juftakni urib qolmaslik uchun o'zimni zo'rlab ushlab turardim. Xizmatkor yo'ldan qaytdi. Nazarimda, u bu xonadonda ro'y bergan barcha ko'ngilsizliklardan xabardorday edi.

- Mana bu uyga kiring, janob, - dedi u.

Men uning ketidan mehmonxonaga kirdim. Uy pardalari qariyb tushirilgan edi, Striklend xonim derazaga orqa o'girib o'tirardi. Uning kuyovi, polkovnik Mak-Endryu kamin oldida isinib turardi. Men o'zimni judayam noqulay sezdim. Bu yerda paydo bo'lishim, nazarimda, ularni sarosimaga solib qo'ydi va Striklend xonim meni qabul qila olmasligi haqidagi xatni jo'nata olmaganligi tufayligina mehmonxonasida kutib olayotganday tuyuldi. Polkovnik ham mening bostirib kirganimdan g'azabda bo'lsa kerak deb o'yladim.

- Hozir meni qabul qilishingizga unchalik ishonmagandim, - dedim yasama samimiylik bilan.

- Nega qabul qilmas ekanman? Emmi hozir bizga choy keltiradi...

Hatto nimqorong'i xonada ham Striklend xonimning ko'zlari yig'idan shishib, doim oppoq ko'rinadigan yuzlari qandaydir o'zgarib qolganini fahmladim.

- Siz mening kuyovim bilan tanishsiz, shekilli. Bahorda biznikida tanishgan edingizlar.

Biz qo'l berib ko'rishdik. Men shunchalik o'zimni yo'qotib qo'ydimki, nima deyishni ham bilmadim, lekin Striklend xonim mushkulimni oson qildi. U yo'zni qanday o'tkazganim bilan qiziqdi, choy kelgungacha xonimning yordamida gapga sal-pal aralashib turdim. Polkovnik esa o'ziga sodali viski keltirishB-larini iltimos qildi.

- Sizga ham viski ichishni maslahat beraman, Emmi, - dedi u.

- Yo'q, men choy ichmoqchiman.

Bu qandaydir ko'ngilsizlik ro'y berganligiga dastlabki ishora edi. Men o'zimni eshitmaganga oldim va Striklend xonimni suhbatga jalb etishga urindim. Kamin yonida turgan polkovnik miq etmadi. Ichimda qachon ketishim lozimligini chamalab turardim. Striklend xonim nima sababdan uyida qabul qilayapti, deb o'z-o'zimga savol berardim. Mehmonxonada gullar ko'rinmas, yozda yig'ishtirib qo'yilgan bezak buyumlari ham haligacha o'z o'rniga joylashB-tilmagandi. Odatda, chiroyli ko'rinadigan uy juda sovuq va qovog'i soliqday tuyulardi, xuddi devorning narigi tomonida murda yotganga o'xshardi. Men choyimni ichib qo'ydim.

- Sigareta chekishni xohlaysizmi? - so'radi Striklend xonim.

U sigareta turadigan qutichani qidirayotgandi, lekin u yaqin o'rtada ko'rinmayotgandi.

- Chamasi, bizda sigareta tugaganga o'xshaydi.

To'satdan ko'zlariga yosh kelib, xonadan chopqillab chiqib ketdi.

Men dovdirab qoldim. Chamasi, odatda, eri sotib oladigan sigaretaning yo'qligi yuragiga qattiq ta'sir qildi, uydagi kamchiliklar to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan odamning endi yo'qligi uni tamomila iztirobga solayotgandi. O'zining avvalgi xotirjam hayoti mangulikka yo'l olganini tushunib yetgandi. Aslzodalarga xos qonun-qoidalarga amal qilib o'tirishga hojat qolmagandi.

- Chamasi, bizda sigareta tugaganga o'xshaydi.

To'satdan ko'zlariga yosh kelib, xonadan chopqillab chiqib ketdi. Men dovdirab qoldim. Chamasi, odatda, eri sotib oladigan sigaretaning yo'qligi yuragiga qattiq ta'sir qildi, uydagi kamchiliklar to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan odamning endi yo'qligi uni tamomila iztirobga solayotgandi. O'zining avvalgi xotirjam hayoti mangulikka yo'l olganini tushunib yetgandi. Aslzodalarga xos qonun-qoidalarga amal qilib o'tirishga hojat qolmagandi.

7 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Men ketganim yaxshiga o'xshaydi, - polkovnikka shunday deb o'rnimdan turdim.
- Siz, bu ablah xotinini tashlab ketganini eshitgan bo'lsangiz kerak? - darg'azab qichqirdi u.

Men javob qaytarishga shoshilmadim.

- Ha, qandaydir ko'ngilsizlik bo'lganiga ishora qilishgandi.

- U qochib ketdi. Qandaydir satang bilan Parijga qochdi. Emmiga sariq chaqa ham qoldirmadi.

- Juda achinarli, - dedim nima deyshini bilmay.

Polkovnik bir zarb bilan viskini ichib yubordi. Bu baland bo'yli, qotmadan kelgan, ellik yoshlardagi, oq sochli, pastga osilgan mo'ylabli, ko'zlari ko'm-ko'k, lablari qurishgan kishi edi. Oldingi uchrashuvdan mening esimda qolgan narsa faqat uning biror ma'no uqish qiyin bo'lgan yuziyu iste'foga chiqqungacha o'n yil mobaynida haftasiga eng kamida uch martadan polo o'ynaganini maqtanib gapirib bergani bo'ldi.

- O'ylashimcha, hozir Striklend xonimning men bilan gaplashishga fursati yo'q, - dedim. - Unga juda achinayotganimni va biror narsa bilan yordam bera olsam o'zimni baxtiyor hisoblashimni yetkazib qo'ying.

U hatto mening gapimni eshitmadi.

- Bilmadim, endi u nima qiladi. Axir uning bolalari bor. Qanday qilib kun kechirishadi? Havo bilan ovqatlanishadimi? O'n yetti yil-a!

- O'n yetti yil? Bu bilan nima demoqchisiz?

- Turmush qurishganiga o'n yetti yil bo'ldi, - keskin javob berdi. Menga Striklend hech qachon ma'qul bo'lmagan. Albatta u bojam bo'lgani uchun hech narsa deya olmas edim. O'ki siz uni nazokatli odam deb hisoblaysizmi? Aslida Emmi unga turmushga chiqmasligi kerak edi.

- Ular butunlay ajrab ketishdimi?

- Rasman ajralishlari qoldi, xolos. Men, darhol ajralish to'g'risida ariza yozing, Emmi! Bu sizning o'z oldingizdagi va bolalaringiz oldidagi burchingiz, dedim. Yaxshisi, u mening ko'zimga mutlaqo ko'rinmasin. Aks holda ta'zirini berib qo'yaman. - Xayolimga bu ish polkovnik Mak-Endryuga unchalik oson bo'lmasa kerak, Striklend baquvvat odam-ku, degan fikr kelsa-da, indamay qo'ya qoldim. Yaxshi fazilatli kishilar boshqalar tomonidan ranjitsalar ham gunohkorlarni ham gunohkorlarni qarg'amasliklari yodimga tushdi. Men ikkinchi marotaba ketishga chog'lanib turganimda, Striklend xonim kirib qoldi. U ko'z yoshlarini artishga, yuziga salgina upa sepib o'zini epaqaga keltirishga ulgurandi.

- O'zimni tuta olmaganimga afsusdaman, - dedi u. Yaxshiyamki, siz ketib qolmabsiz.

U o'tirdi. Men endi tamomila esankirab qolgandim. Menga aloqador bo'lmagan narsa to'g'risida gaplashish tamomila noqulay bo'layotgandi. Men o'sha paytlarda xotin-qizlarning eng katta qusuri - shaxsiy ishlarini duch kelgan odam bilan qizg'in muhokama qilaverishi ekanligini bilmasdim. Striklend xonim, aftidan, o'zini tutib olishga urinayotgandi.

- Bu haqda ko'p gaplashishyaptimi? - so'radi u.

Oila boshiga tushgan musibatdan mening xabardorligimga uning qat'iy ishonchi meni sarosimaga solib qo'ydi.

- Men endigina dam olishdan qaytdim. Roza Uoterforddan boshqa hech kimni ko'rmadim.

Striklend xonim qo'llarini bir-biriga qovushtirdi.

- Undan nimaniki eshitgan bo'lsangiz, hammasini gapirib bering.

Men jim turardim, lekin u aytishga majbur qildi.

- Har qancha og'ir bo'lmasin, men bu gaplarni bilishni xohlayman.

- Uning gap sotib yurishini yaxshi bilasiz-ku. Uning so'zlariga ishonib bo'lmaydi. Eringiz sizni tashlab ketganini aytdi.

- Bor gap shumi?

Men Roza Uoterford xayrlashaturib qahvaxonadagi qiz haqidagi gapini aytishni lozim topmay yolg'on so'zladim.

- U erim qandaydir ayol bilan jo'nab ketganini gapirmadimi?

- Yo'q.

- Men bilmoqchi bo'lgan narsa shu edi.

Boshim qotib qolgan edi, lekin shunday bo'lsa-da, ketishim lozimligini fahmladim. Xayrlashayotganimda, Striklend xonimning xizmatiga doimo tayyorligimni aytdim. U ma'yus jilmaydi.

- Tashakkur sizga. Lekin men uchun biror narsa qila oladigan odam topilmasa kerak.

Haddan tashqari uyatchan bo'lganligim tufayli, xonimga hamdardlik ham bildira olmadim, xayrlashmoqchi bo'lib polkovnik tomonga o'girildim. Lekin u qo'limni siqib xayrlashmadi.

- Men ham ketaman. Agar siz Viktoriya-strit bo'ylab yurguday bo'lsangiz, yo'lda hamroh bo'lamiz.

- Judayam yaxshi, - dedim men. Ktdik.

To'qqizinchi bob

- Mudhish tarix, - dedi ko'chaga chiqishimiz bilanoq polkovnik.

U qaynsinglisi bilan soatlab muhoka

ma qilgan narsani men bilan ham gaplashish uchun birga chiqqanini tushundim.

- Bilasizmi, biz hatto o'sha ayolning kimligini ham bilmaymiz, - dedi polkovnik. Yaramas faqat Parijga jo'nab ketganini bilamiz, xolos.

- Mening nazarimda ular eng ibratli er-xotinlarga o'xshab tuyulishardi.

- Xuddi shunday edi. Siz kelmasingizdan oldin Emmi birgalikdagi hayotlari mobaynida biror marotaba ham janjallashmaganliklarini gapirib turgan edi. Siz Emmi bilasiz. O'rug' olamda undan yaxshiroq ayol yo'q.

Bunday gaplardan keyin men unga bir necha savol bilan murojaat etishni lozim topdim.

- Siz xonim hozirgacha biror narsadan shubhalanmagan deb hisoblaysizmi?

- Bo'lmasa-chi! Hech narsadan shubhalanmagan. Striklend avgust oyini Norfolkda xotini va bolalari bilan o'tkazgan. Avval qanday bo'lsa xuddi shunday dam olishgan. Biz xotinim bilan birga ular dam olayotgan joyga bir necha kunga bordik, men u bilan gol'f o'ynadim. Sentabr oyida uning sherigi ta'tilga ketishi lozim bo'lganligi tufayli, Londonga qaytib keldi, Emmi esa dengiz bo'yida qoldi. Ular bir uyni bir yarim oyga ijaraga olishgan ekan. Muhlat tugashidan oldin xonim qaysi kuni Londonga yetib kelishlarini xat orqali eriga bildiribdi. Eri esa Parijdan unga xat yo'llab, endi u bilan turmasligini ma'lum qilibdi.

- Bu qarorini nima bilan izohlabdi?

- Azizim, u hech narsani izohlab o'tirmabdi. Men xatni o'qidim. Xat bor-yo'g'i o'n qatorga yaqin, bundan ortiq emasdi.

- Hech narsaga tushunmayapman.

Shu daqiqada ko'chani kesib o'tgandik, katta ko'chadagi shovqin-suron gapimizni davom ettirishga imkon bermadi. Polkovnik menga aytib bergan narsalar haqiqatdan uzoqday eshitalayotgandi, Striklend xonim undan nimanidir yashirayotgan bo'lsa kerak, degan qarorga keldim. O'z-o'zidan ayonki, o'n yetti yil ahil yashagan er-xotin bir-birini biror sababsiz tashlab ketmaydi. O'xud ular aytilayotganiday ahil yashashmagandir. Polkovnik mening mulohazalarimni bo'lib yubordi.

ВЂ”Biror satang bilan qochib qolgan erkak qanday sabab ham ko'rsatardi. Ehtimol, xotinimning o'zi buning fahmiga yetar deb o'ylagandir. Mana shunaqa yaramas odam u.

- Striklend xonim endi nima qilmochi?

- Avvalo bu ish hujjat bilan tasdiqlansin-chi. O'zim Parijga borib kelmoqchiman.

- Idorasi nima bo'ldi?

- Idorasida ham juda ayyorona yo'l tutgan. Yil mobaynida ketishga tayyorlangan.

- U jo'nab ketishi to'g'risida sherigini ogohlantiribdimi?

- Buni xayoliga ham keltirmabdi.

Polkovnik Mak-Endryu savdo masalalarida ko'p narsalarga aqli yetmasdi, men esa bu ishlardan tamomila bexabar edim. Shuning uchun ham Striklend o'z ishlarini qay ahvolda tashlab ketganini tushunmadim. Mak-Endryuning gapiga qaraganda, tashlab ketilgan sherigi g'oyat g'azabda ekan, Striklendni sudga berishini bayon etibdi.

- Ko'rinishidan bu mashmasha unga besh yuz franklarga tushsa kerak.

- Xudoga shukrki, uy jihozlari tag'inam Emmi qaramog'ida. Unga shulargina qoladi.

- Siz xonim bir chaqasiz qoldi deganingizda bu narsalar yodingizdamidi?

- Albatta, yodimda edi. Unga ikki yuz yoxud uch yuz funt puliyu mana shu mebellar qoldi.

- Lekin ular endi qanday qilib tirikchilik o'tkazishadi?

- Bu yolg'iz Ollohgagina ma'lum.

Hammasini, chamasi, aql bilan idrok etsa bo'lardi, ammo darg'azab polkovnik o'z so'zlari bilan meni chalkashtirib yuborayotgandi. U Armiya va Flot do'koni oldidagi soatga qarab klubda karta o'ynaydigan sheriklari kutib turishgani esiga tushib, meni Sent-Jeyms bog'iga yolg'iz borishimga imkoniyat berganidan juda xursand bo'lib ketdim.

O'ninchi bob

Oradan bir-ikki kun o'tgach, Striklend xonim menga xat yuborib kechqurun unikiga kirishimni so'rabdi. Uyiga kirib borganimda yolg'iz o'tirgan ekan. Rohibalarniki singari qop-qora oddiy ko'ylak boshiga tushgan og'ir musibatdan belgi edi. Yuragidagi shuncha g'am-g'ussa bilan o'zini tutib o'tirganiga hayron qoldim.

- Sizga biror iltimos bilan murojaat etguday bo'lsam, uni bajarishga va'da bergandingiz shekilli? - dedi xonim.

- Ha, albatta.

ВЂ”Parijga borib Charli bilan uchrashib kelishga rozilik bera olasizmi?

- Menmi?

Bu gapdan lol bo'lib qolgandim. Axir men uni bir martagina ko'rgandim, xolos. Xonim menga qanday topshiriq berishni mo'ljallayapti?

- Fred u yoqqa bormochi. (Fred polkovnik Mak-Endryu edi.) Lekin men aminmanki, uning borishi joiz emas. U hamma ishni faqat chalkashtirib yuboradi. Bu narsani kimdan iltimos qilishni bilmay turibman.

Uning ovozi salgina titrab chiqdi. Men tomondan bir soniya bo'lsin ikkilanish to'ng'izlik bo'lishini his etdim.

- Lekin men eringiz bilan muloqotda bo'lmaganman. U meni bilmaydi, shu tufayli ham kavushimni to'g'rilab qo'yishi mumkin.

- Buning hech qanday ahamiyati yo'q, - javob berdi Striklend xonim sal tabassum qilib.

- Sizningcha, men qanday harakat qilmog'im kerak?

Bu savolimga u to'g'ridan-to'g'ri javob qaytarmadi.

- Menimcha, u sizni bilmasligi qaytaga yaxshi. Bilasizmi, u Fredni hech qachon yoqtirmagan. Hamisha uni tentak bir kimsa deb hisoblardi - harbiy odamlar diliga o'tirishmasdi. Fred o'zini tutolmaydi, o'rtada janjal ko'tariladi-da, ish natijasiz tugaydi. Agar siz mening nomimdan kelib qolganingizni aytasangiz, u albatta, gapingizga quloq soladi.

- Men sizni yaqindan beri taniyman, - javob berdim men. Bunday ishga eringizni yaxshi bilmagan bir odamning qanday aralashishi mumkinligini tushunmayapman. O'zimga bevosita aloqador bo'lmagan ishga burnimni tiqishni xohlamayapman. Nima sababdan Parijga o'zingiz borib qo'yaqolmaysiz?

- U yerda yolg'iz emasligini esdan chiqarib qo'yyapsiz, shekilli.

Men tilimni tishladim. Ko'z o'ngimda Charlz Striklend uyiga kirib borganim va unga tashrif kartochnasini uzatganim, ikki barmog'i bilan kartochnasini ushlaganicha qarshimga chiqqani namoyon bo'ldi.

- Xizmat?

- Men siz bilan xotiningiz to'g'risida gaplashmochi edim.

- Jiddiy gapiryapsizmi? Sal ulg'ayganingizdan keyin birovlarining ishiga burun tiqmaslik lozimligini tushunasiz. Agar iltifot ko'rsatib, chap tomonga qayrilsangiz eshikni ko'rasiz. Sizga omad yor bo'lsin.

Bu yerdan silliqqina chiqib ketish qiyinligini avvaldan seza oldim va Striklend xonim mushkulotlar to'ridan qutulmasidan oldin Londonga qaytib kelganimga o'zimni qarg'adim. Men zimdan ayolga razm soldim. U xayol daryosiga g'arq bo'lgan edi. Lekin bir soniyadan keyin menga qaradi, chuqur xo'rsindi va yengil kulimsirab qo'ydi.

- Hammasi kutilmaganda ro'y berdi, - dedi u. Biz o'n yetti yil turmush qurdik. Charli boshqa ayolga aylanishib ketadi deb hech qachon o'ylamagan edim. Biz juda ahil yashaganmiz. To'g'ri, men juda ko'p narsalarga qiziqar edim, bularni u yo yoqtirmas, yo beparvo edi.

- Siz birga ketgan... - qanday qilib muloyimroq so'rashni bilolmaB-yotgandim, - ayolning kimligini bila oldingizmi?

- Yo'q. Buni hech kim tasavvur ham qila olmayapti. Bu juda g'alati. Odatda, bunday paytlarda odamlar sevishganlarni restoran yoxud biror yerda ko'rib qolishadi-da, xotinlariga gapirib berishadi. Bu to'g'rida meni hech kim ogohlantirgani ham yo'q, men hech narsadan shubhalanganim ham yo'q. Uning xati bulutsiz osmondagi momaqaldiroqday bo'ldi. Men bilan baxtiyorligiga zarracha shubha qilmasdim.

Striklend xonim yig'lab yubordi, bechoraga yurakdan rahmim keldi. Lekin u shu ondayoq o'zini qo'lga oldi.

- Men umidsizlikka berilmasligim kerak, - dedi u ko'zlarini artib. - Hozir qanday tadbir ko'rish lozimligi haqida bir qarorga kelish kerak.

Ayol parokandalik bilan goh yaqin o'tmish, goh birinchi uchrashuvlariyu to'ylari to'g'risida gapira boshladi. Ko'z o'ngimda ularning birgalikda kechirgan hayot yo'llari namoyon bo'la bordi. Bu oila haqidagi ilgari fikrlarim haqiqatdan unchalik uzoq emasligini o'ylab qoldim. Striklend xonim Hindistondagi bir amaldorning qizi bo'lgan ekan. Otasi iste'foga chiqqanidan keyin u o'sha yerda, mamlakatning chekka bir go'shasida yashab qolibdi. Lekin har yilning avgust oyida havo almashtirish uchun o'z oilasini Istbornga olib borar ekan. Shu Istbornda u Striklend bilan tanishibdi. U yigirma yoshda, yigit esa yigirma uch yoshda ekan. Ular birgalikda tennis o'ynashibdi, sayr qilishibdi, habashlarning qo'shiqlarini tinglashibdi. Qiz yigitga turmushga chiqishga qaror qilibdi, yigit ham turmush qurishni taklif etibdi. Ular avvaliga London chekkarog'idagi Xampstedda, keyinroq, Striklendning moddiy ahvoli yaxshilangach, shahar markazida yashay boshlashibdi, o'g'il va qiz farzandlar ko'rishibdi.

- Bolalarini judayam yaxshi ko'rardi. Men uning joniga tekkan taqdirimda ham bolalarni ko'zi qandoq qiydiykin? Ishonish qiyin bunga. Bu ishlarning haqiqatdan bo'lib o'tganiga hali ham ishonmayman.

Oxirida eri yuborgan xatni ko'rsatdi. Bu xatni anchadan beri o'qishni istayotgandim, lekin uni so'rashga botina olmayotgandim. ВЪАzizam Emmi!

Umid qilamanki, sen uydagi barcha narsalar joy-joyida ekanligiga amin bo'lasan. Men Emmiga sening buyruqlaringni yetkazib qo'ydim. Sening va bolalaringning kelishiga ovqat tayyorlab qo'yadi. Men sizlarni kutib olmayman. Sizlardan alohida yashashga qaror qildim, bugun Parijga jo'nab ketaman. Bu xatni yo'lga jo'nayturib yubordim. Uyga qaytmayman. Qarorim qat'iy va o'zgarmas.

Hamisha seniki bo'lib qoladigan Charlz Striklend ВЪА.

- U hech narsani tushuntirmagan ham, afsus ham chekmagan. Axir bu g'alati emasmi?

- Juda g'alati xat, - javob berdim men.

- Buni faqat bir narsa bilangina izohlash mumkin - u o'zini yo'qotib qo'ygan. Men uni o'ziga rom qilib olgan ayolning kimligini bilmayman, ammo u erimni butunlay boshqa odamga aylantirib yuborgan. Chamasi, bu ancha eski sarguzasht bo'lsa kerak.

- Nega siz shunday deb o'ylayapsiz?

- Fred buni tushuntirib berdi. Charlzning kunora klubda bridj o'ynaydigan odati bor edi. Fred bu klubning a'zolaridan biri bilan tanish ekan. Bir kuni gap orasida Charlzni unga bridj o'yinining ashaddiy ishqibozi deb aytibdi. Uning tanishi juda ajablanibdi, karta o'yini ustida biror marotaba ham ko'rmaganman, debdi. Hammasi kunday ravshan, uni klubda deb o'ylagan paytimda kim bilan bo'lganligi o'z-o'zidan ayon.

Men jim bo'lib qoldim. Xayolimga bolalar keldi.

- Bularning hammasini Robertga tushuntirish juda qiyin kechgandir.

- O, men unga ham, qizimga ham hech narsa demadim. Axir biz shaharga maktablardagi o'qish boshlanishidan bir kun oldin yetib kelgan edik-da. Ularga faqat dadang kutilmaganda ish bilan jo'nab ketdi, deya oldim, xolos. Yurakda shunday kutilmagan sir bilan xotirjam bo'lish, bolalarning maktab bilan bog'liq barcha ehtiyojlari to'g'risida g'amxo'rlik qilish qiyin edi. Striklend xonimning ovozi yana qaltirab chiqdi.

- Bechora bolajonlarimning ahvoli ne kechadi? Tirikchiligimizni qanday o'tkazamiz?

Ayol o'zini qo'lga olishga urinayotgandi. U qo'llarini beixtiyor ravishda qisayotgani va qo'yib yuborayotganiga ko'zim tushdi. G'oyat achinarli manzara!

- Agar sizga yordam beradigan bo'lsa, albatta, Parijga boraman. Lekin siz men u yerda nimaga erishishim kerakligini ayting.

- Men uning uyga qaytishini istayman.

- Polkovnik Mak-Endryuning so'zlaridan siz u bilan ajralishga qaror qilganingizni tushungandim.

- Men hech qachon Charlidan ajralmayman! - g'azab bilan xitob qildi u. Charli hech qachon u ayolga uylana olmaydi. Men undan ham qaysarroqman, hech qachon undan ajralmayman. Men bolalar to'g'risida o'ylashga majburman.

So'nggi so'zlarini u o'z munosabatini tushuntirish uchun aytdi, lekin gap faqat bolalarga g'amxo'rlik ustida emas, rashk tuyg'usi ustida ham ketayotganini fahmladim.

- Siz hamon uni sevasizmi?

- Bilmadim. Men uning uyga qaytishini istayman. Agar u uyga kelsa, hammasini unutib yuboraman. Nima qilganda ham biz o'n yetti yil birga yashadik. Men bag'ri keng ayolman. Istagan ishini qilib yuraversin, faqat men bilmasam bo'ldi. Sarguzashtlari uzoq vaqtgacha davom etavermasligini u anglashi kerak. Agar u bag'rimizga qaytib kelsa, xuddi avvalgiday yashayveramiz, hech kim hech narsa bilmaydi.

Striklend xonim g'iybatlardan juda qo'rqishini sezganimda hayron bo'lgan edim. O'sha vaqtlarda ayollar hayotida odamlarning fikri juda katta rol o'ynashini bilmadim. Odamlar fikridan qo'rqish inson tuyg'ulariga nosamimiylik soyasini tashlaydi.

Striklendning qayerda yashayotgani ma'lum edi. Sherigi bankka yo'llagan g'azabkor xatida u to'g'risida bo'lmag'ur gaplarni aytdi, Striklendni yashayotgan aniq manzilini yashirayotganlikda aybladi. O'z navbatida Striklend ham beadablik bilan javob qaytardi va aniq manzilini oshkor qildi. U mehmonxonada yashayotgandi.

- Men hech qachon bu mehmonxonada to'g'risida eshitmaganman, - dedi Striklend xonim. Lekin Fred bu mehmonxonani bilardi ekan, juda qimmatligini aytdi.

Xonim qizarib ketdi. Uning ko'z oldida serhasham mehmonxonada yashayotgan, mashhur restoranlarda ovqatlanayotgan, kunduzlari ot poygalarida, kechqurun B-lari teatrlarda vaqtini o'tkazayotgan eri gavdalanayotganini tushundim.

- Bunaqada uzoqqa bora olmasligi tayin, - dedi u. U qirqdan oshganini esdan chiqarmaslik kerak. U yosh yigit bo'lganida bu hodisalarni tushungan bo'lardim. Bolalarimizning bo'yi yetib qolganda, bu - dahshat. U sog'lig'ini butunlay yo'qotib qo'yadi.

Ayolning qalbida g'azab va iztirob kurashayotgandi.

- Unga aytingki, usiz uyimiz uy bo'lmay qoldi. Go'yo hamma narsa o'z o'rnidaga o'xshaydi-yu, lekin hammasi qandaydir fayzsiz.

Men usiz yashay olmayman. Bundan ko'ra o'zimni o'ldirganim afzal. Unga bizning o'tmishimizni, birga kechirgan kunlarimizni, hamma-hammasini gapirib bering. Bolalarim uni so'rashsa, ularga nima deb javob beraman? Uning xonasi qanday bo'lsa, shundayligicha turibdi, uni kutyapti. Biz hammamiz uni kutyapmiz.

Unga nimalar deyishim lozimligini xonim so'zma-so'z tushuntirdi. Bundan tashqari, u bildirishi ehtimol bo'lgan e'tirozlarga qanday javob berishim kerakligini ham birma-bir aytib o'tdi.

- Men uchun qo'lingizdan kelgan hamma narsani bajarishga va'da bera olasizmi? - nolakor qo'shib qo'ydi u. - Qanchalar g'am chekayotganimni unga bildirib qo'ying.

Xonim barcha vositalar bilan erining rahmini keltirishni, insofga chaqirishimni istardi. Endi u mendan uyalmay bermalol yig'layotgandi. Garchi Striklendning bag'ritoshligini bilsam ham, azbaroyi ta'sirlanib ketganimdan, uni uyga qaytarish uchun qo'limdan kelgan barcha choralarni ko'rishga qasam ichdim. Men bu vazifani bajarish uchun ertasigayoq jo'nab ketishga va biror natijaga erishish uchun zarur bo'lgan vaqtgacha Parijda turishga so'z berdim. Kech bo'lib qolgani va ikkalamiz ham bu ko'ngilB-sizB-liklardan obdon charchaganimiz tufayli xayrlashib chiqib ketdim.

O'n birinchi bob

Menga topshirilgan vazifa to'g'risida Parijga ketayotganimda o'ylab borarkanman, uni natijasiz tugatishdan xavotirlanardim. Endilikda, yig'lab turgan Striklend xonimning qiyofasi ko'zimdan nari vaqtida fikrlarimni bir joyga jamlashim mumkin edi. Striklend xonimning o'zini tutishdagi aniq ko'rinib turgan qarama-qarshiliklar meni hayron qoldirardi. U juda baxtsiz edi, lekin rahmimni keltirish uchun barcha choralar bilan o'zini yanada baxtsizroq ko'rsatishga urinardi. Masalan, yig'lashga oldindan tayyorgarlik ko'rganini fahmlash qiyin emasdi. Zero, u qo'lga anchagina dastro'mol ushlab olgandi. Men uning tadbirkor ekanligiga qoyil qolardim. Lekin ayni ana shu tadbirkorligi tufayli, uning ko'zyoshlari unchalik ta'sir qilmasdi. Erini yaxshi ko'rgani uchun uyiga qaytarmoqchimi yoki har xil yomon so'zlardan qo'rqqani uchun men shu narsani bilolmay hayron edim. Uning yuragida toptalgan muhabbat iztiroblari bilan tahqirlangan xudbinlik azoblari omuxta bo'lib ketganini gumon qilardim, yoshligim tufayli bu hol insonlarga yarashmaydi deb hisoblardim. Men o'sha paytlarda inson zotining qiyofasi g'oyatda qarama-qarshi bo'lishini, eng olijanob odamlar ham tubanlashib ketishini, eng pastkash kimsalar esa ma'lum sharoitlarda olijanoblik kasb etishlarini bilmasdim.

Lekin safarimning kishini qiziqtiradigan tomonlari ham bor edi. Shuning uchun Parijga yaqinlashganim sari o'zimni tetik seza boshladim. To'satdan o'zimga chetdan nazar tashlab, daydib ketgan erning barcha gunohlarini kechirishga tayyor turgan qayliqning bag'riga qaytarishga qaratilgan ishonchli vakillik rolim o'zimga yoqa boshladi. Striklend bilan ertaga kechqurungacha ko'rishmaslikka qaror qildim. Zero uchrashadigan vaqtini nazokat bilan tanlash lozim edi. Masalan, nonushtagacha inson tuyg'ulariga ta'sir etish, insofga keltirish xomxayol edi. Mening shaxsiy xayollarim o'sha paytlarda doimo muhabbat masalalari bilan band bo'lardi. Oilaviy huzur-halovat haqida choy vaqtigacha gaplashishni tasavvur ham eta olmasdim.

Mehmonxonaga joylashib olganimdan keyin Charlz Striklend yashayotgan вЂњHotel' de bel'jвЂњni surishtirishga tushdim. Darbon bunday mehmonxona to'g'risida mutlaqo eshitmaganini bilganimdan keyin hayronligim oshdi. Striklend xonimning so'zlariga qaraganda esa bu Rivoli ko'chasi yaqinidagi katta va dabdabali mehmonxona edi. Ma'lumotnomalar kitobidan qidirganimizda esa shunday nomlanadigan yagona muassasa Muan ko'chasida ekan. Bu mavze shaharning eng serhasham emas, aksincha, ko'rimsizroq maskanlaridan edi. Men boshimni sarak-sarak qildim.

- Yo'q, biz qidirayotgan joyga o'xshamayapti.

Darbon yelkasini qisib qo'ydi. Parijda shu nomli boshqa mehmonxona yo'q. Kallamga Striklend haqiqiy manzilini atayin yashirganday, xayoliga kelgan mehmonxona nomini aytib, sherigini aldaganday tuyuldi. Negaligini bilmadim-u, lekin to'satdan menga bu Striklendning ruhiga to'g'ri keladigan holatday, g'azab otiga mingan dallol sherigini xalloslaganicha Parijga kelib, xilvatdagi qandaydir mehmonxonani qidirtirish uchun atayin qilayotganday tuyuldi. Shunga qaramay, joyni tekshirish uchun otlandim. Ertasiga soat, chamasi, oltirlarda fayton yollab izvoshchiga Muan ko'chasiga eltib qo'yishni buyurdim. Faytonni ko'cha muyulishida qoldirib, mehmonxonagacha piyoda bormoqchi bo'ldim. Ko'cha kambag'al xaridorlar uchun arzon mollar sotadigan do'konchalar bilan to'lib-toshib ketgandi. Do'konchalarning o'rtarog'ida, mening chap tomonimda вЂњHotel' de bel'jвЂњ mehmonxonasi joylashgandi. Men kamtaringina mehmonxonada joylashgan edim. Lekin u qarshidagi mehmonxonaga nisbatan judayam hashamatli tuyulardi. вЂњHotel' de bel'jвЂњ deb yozilgan kattakon yorliq uzoq yillar mobaynida ta'mirlanmagan va to'kilay deb turgan baland binoni bezab turardi. Uning ikki tomonidagi uylar bunga solishtirganda juda ozoda va ko'rkam ko'rinardi. Iflos bo'lib ketgan oynalar, chamasi, hech qachon ochilmagandi. Yo'q, noma'lum huriliqo deb burchi va nomusini unutgan Charlz Striklend va o'sha malak bu yerda jinoyatkorona aysh-ishrat qilishmayotgan bo'lsa kerak. Men ahmoqona holatda qoldim, deb juda darg'azab bo'ldim va Striklendni surishtirmasdan o'q jo'nab qolish payiga tushdim. Lekin pirovardida bino ostonasidan ichkari kirishga o'zimni majbur etdim. Bu faqat Striklend xonimga qo'limdan kelgan barcha ishni qilib ko'rdim, deyish uchungina bo'ldi, xolos.

Mehmonxonaga kiriladigan joy qandaydir do'koncha yonida ekan. Eshik ochiq edi. Ichkariga osib qo'yilgan вЂњIdora ikkinchi qavatдавЂњ deyilgan yozuv aniq ko'rinib turardi. Men torgina zinapoyadan ko'tarilib, shisha uychaga o'xshash maydonchaga chiqib qoldim. Unga stol va ikki stul qo'yilgandi. Uning tashqarisida taxta o'rindiqturardi. Chamasi, qavat nazoratchisi notinch tunlarini shu o'rindiqtida o'tkazsa kerak. Hech kimning qorasi ko'rinmasdi. Lekin elektr qo'ng'iroq tugmasi tagida вЂњQavat nazoratchisiвЂњ degan yozuv bor edi. Men qo'ng'iroq tugmasini bosdim, tez orada ko'zlari piriqirab turgan ko'rimsizgina yigit paydo bo'ldi. U nimcha va gilam shippakcha kiyib olgandi.

Negaligini bilmayman-u, men juda mensimagan ohangda undan so'radim:

- Bu yerda Striklend degan janob yashamaydimi?

- O'ttiz ikkinchi xona. Oltinchi qavat, - javob berdi yigit.

Men shu qadar esankirab qoldimki, dastlab nima deyishimni ham bilmay qoldim.

- U xonasidami?

Qavat nazoratchisi uychadagi taxtaga qaradi.

- Kalitni qoldirmapti. Yuqoriga chiqib ko'ring.

Men unga yana bitta savol berishni lozim topdim.

- Xonim uydami?

- Janob bir o'zi yashaydi.

Nazoratchi men yuqoriga ko'tarilib ketayotganimda gumonsirab qarab qo'ydi. Qorong'i va havosi og'ir yo'lakdan ko'ngilni aynitadigan achimsiq hid anqirdi. Uchinchi qavatda xalatsimon uychi kiyimdagidagi xurpaygan ayol eshikni ochdi va miq etmay menga qarab qoldi. Nihoyat, oltinchi qavatga chiqib bordim-da, o'ttiz ikkinchi raqamli xona eshigini taqillatdim. Ichkarida nimadir taraqturuq qilib ketdi-da, eshik ochildi. Qarshimda Charlz Striklend turardi. U biror so'z qotmadi, meni tanimayotgani ko'rinib turardi.

Men o'z nomimni aytdim. Keyin iloji boricha nazokat bilan muomala qilishga intildim.

- Siz meni eslay olmasangiz kerak. O'tgan yili yozda siznikidagi mehmondorchilikda qatnashish baxtiga musharraf bo'lgan edim.

- Kiring, - samimiy javob berdi u. Sizni ko'rganimdan juda xursandman. O'tiring.

Men xonaga kirdim. Bu torroq xona bo'lib, fransuzlar Lui-Filipp uslubi deb yuritiladigan mebellar bilan liq to'la edi. Xonada ustiga qizil choyshab yopilgan keng yog'och karavot, katta javon, dumaloq stol, kichkinagina qo'lyuvgich, qizil gazlama qoplangan ikkita stul joy olgandi. Polkovnik Mak-Endryu menga ta'riflagan shohona hayotdan nishona ham yo'q edi. Striklend stullarning biriga tashlab qo'yilgan kiyimlarni yerga uloqtirdi-da, o'tirishga taklif etdi.

- Xo'sh, xizmat? - so'radi u.

Striklend bu xonada birinchi tanishgan oqshomdagidan ham gavdalibroq ko'rinar edi. U, chamasi, bir necha kundan beri soqolini olmagan, oxori ketib qolgan kalta kamzul kiyib olgandi. O'ziga qaramagan, sochini taramagan bo'lsa-da, chamasi, o'zini nihoyatda erkin his etayotgandi. Men avvaldan tayyorlab qo'ygan iboraga u qanday munosabatda bo'lishini bilmasdim.

- Men rafiqangizning topshirig'iga muvofiq keldim.

- Men ovqatlanishdan oldin ozgina ermanli araqni ichmoqchi bo'lib turgan edim. Siz buni yoqtirasizmi?

- Ha, endi.

- Unday bo'lsa ketdik.

U anchadan beri cho'tkalanmagan bosh kiyimini kiydi.

- Biz birga ovqatlanishimiz mumkin. Axir siz menga ovqat olib berishga qarzdorsiz.

- Shunday. O'lg'iz o'zingizmisiz?

Nozik savolni o'z vaqtida va o'rnida bera olganimga xursand bo'ldim.

- Ha, o'zim! To'g'risini aytsam, uch kundan beri og'zimga tuz totmadim. Fransuz tilini o'zlashtirishim qiyin bo'lyapti.

U bilan zinadan tushib borarkanman, qahvaxonadagi qiz qayoqqa yo'qoldi ekan, deb hayron bo'lardim. Ular o'zaro janjallashib ulgurishdimi yoki oshiq beqarorligi o'tib ketdimi? So'nggi taxminim o'zimga ham ishonchsiz tuyuldi, axir u deyarli butun yil davomida qochib qolishga tayyorgarlik ko'rgandi-ku. Klisi ko'chasidagi qahvaxonaga kirdik-da, shundoqqina yo'l ustidagi stullarning biriga joylashdik.

O'n ikkinchi bob

Shu soatlarda Klisi ko'chasidagi qahvaxona, ayniqsa, gavjum bo'larkan. Yo'lkalar bo'ylab idora xizmatchilari va savdogarlar, xuddi Bal'zak asarlari sahifalaridan hozirgina tushib kelayotgan keksalar, erkaklar va ayollar u yoqdan-bu yoqqa yurishardi. Parij bechorahollari yashaydigan mahallalarning to's-to'poloni yurakka ta'sir etadi, turli-tuman kutilmagan oqibatlariga tayyorlaydi.

- Siz Parijni yaxshi bilasizmi? - so'radim undan.

- Biz Parijda asal oyimizni o'tkazgan edik. O'shandan beri bu yerga kelmadim.

- Marhamat qilib ayting-chi, qanday qilib bu mehmonxonaga kelib qoldingiz?

- Menga uni tavsiya etishdi. Men arzonroq mehmonxonaga qidirgan edim.

Ermanli araqni keltirishdi, biz eriyotgan qandga suv tomiza boshladik.

- O'ylaymanki, yaxshisi, sizni nima uchun qidirib kelganimni birdaniga aytib qo'yaqolganim ma'qul, shekilli, - deb boshladim gapimni xijolat chekib o'tirmay.

Uning ko'zlari yiltillardi.

- Ertami-kechmi kimdir qidirib kelishini bilardim. Emmi menga ancha xat yozdi.

- U holda nima demoqchiligimni juda yaxshi bilsangiz kerak.

- Men xatlarni o'qiganim yo'q.

Fikrlarimni jamlab olish uchun sigaret chekdim. O'zimga topshirilgan vazifaga qanday kirishsam ekan? Oldindan tayyorlab qo'ygan balandparvoz gaplarim bu yerda qo'l kelmasligini tushunib qoldim.

U to'satdan pishqirib yubordi.

- Haddan tashqari qiyin vazifa-a?

- Ha, shunday.

- Mayli, tezroq gapira qoling, keyin maishat qilamiz.

Men o'ylanib qoldim.

- Nahotki, siz xotiningiz naqadar iztirob chekayotganini tushunmasangiz?

- Hechqisi yo'q, o'tib ketadi!

Bu so'zlar qay darajada loqaydlik bilan aytilganini tasvir etolmayman. Men o'zimni yo'qotib qo'ydim, lekin buni unga sezdirmaslikka harakat qildim, ruhoniy Genri amaki odamlarni muhtojlarga yordam berishga da'vat etayotgan vaqtdagidek muloyimlik bilan gapirdim.

- Agar ochiqchasiga gapirsam xafa bo'lmaysizmi?

U kulib rozilik ishoratini qilib boshini qimirlatdi.

- Xotiningiz bunday munosabatda bo'lishingizga arziydigan biror ish qildimi? Unga biror da'voingiz bormi?

- Hech qanday.

- U holda o'n yetti yil birga yashaganingizdan keyin tashlab ketishingiz shafqatsizlik emasmi?

- Shafqatsizlik.

Men hayron bo'lib unga qaradim. Haqligimni chin yurakdan e'tirof etishi meni g'alati ahvolga solib qo'ydi. Mening ahvolim tangligidan tashqari, kulgili ham edi. Men unga pand-nasihat, do'q-po'pisa qilmoqchi, ko'ndirmoqchi, achchiq gaplar bilan uzib olmoqchi edim. Agar gunohkor tavbasiga tayangan bo'lsa, nasihatgo'y nima deya oladi? Bunday holatdan chiqish tajribasi menda yo'q edi, meni ayblamoqchi bo'lganlarida esa butunlay bo'ynimga olmay doimo tamomila rad etardim.

- Xo'sh, yana nima deysiz? - so'radi Striklend.

Men nafratlanib lablarimni qiyshaytirib turardim.

- Siz hammasini e'tirof etayotgan bo'lsangiz boshqa gapga hojat yo'q.

- Hojat yo'q.

O'z vazifamni yaxshi bajara olmaganim uchun jahlim chiqdi.

- Axir ayol kishini sariq chaqasiz qoldirish mumkinmi?

- Nega mumkin bo'lmasin?
- Qanday yashaydi u?
- Men uni o'n yetti yil boqdim. Nega endi o'zini o'zi boqa olmaydi.
- U o'zini-o'zi boqa olmaydi.
- Harakat qilib ko'rsin.

Albatta, men bunga javob berishim, ayollarning iqtisodiy ahvoli, oila qurayotgan erkakning majburiyatlari to'g'risida gapirishim mumkin edi. Lekin to'satdan pirovard-natijada hamma narsani faqat bir narsa hal qilishini tushunib qoldim.

- Siz uni sevmay qo'ydingizmi?
- Zarracha.

Bularning barchasi inson hayotiga doir jiddiy savollar edi. Lekin u bu savollarga shu qadar jo'shqinlik bilan surbetlarcha javob qaytarayotgan ediki, kulib yubormaslik uchun lablarimni tishlab o'tirardim. Uning o'zini tutishi menga nihoyatda jirkanch ko'rinayotgandi.

- Jin ursin sizni, axir bolalar to'g'risida o'ylashga majbursiz-ku. Ular sizga hech qanday yomonlik qilishmagan. Dunyoga keltirishingizni ham iltimos qilishmagan. Agar siz ularni o'z mehr va g'amxo'rlikingiz ostiga olmasangiz ko'chada qolishadi. ВЪ”Ular uzoq yillar mobaynida huzur-halovatda yashashdi. Barcha bolalar ham bunaqa yashayvermaydi. Ishonamanki, bundan bu yog'iga bolalarning o'qishi uchun mablag'ni Mak-Endryu to'lab turadi.

- Axir ularni yaxshi ko'rmaysizmi? Ular shunaqangi yoqimtoy bo'lishganki, qo'yaverasiz. Nahotki, ulardan butunlay voz kechsangiz?

- Men ularni kichkinaliklarida yaxshi ko'rardim. Endilikda, ular katta bo'lib qolishgandan keyin to'g'risini aytsam, ularga qiziqishim, mehrim zarracha qolmadi.

- Bu g'ayriinsoniylik!

- Ehtimol.

- Uyalmaysizmi?

- Yo'q.

Men gap oqimini o'zgartirmoqchi bo'ldim.

- Sizni shunchaki bir to'ng'iz deb hisoblashlari mumkin.

- Mayli!

- Nahotki, har qadamda qarg'asalar ham sizga baribir?

- Baribir.

Uning javoblari shu qadar nafrat ohangida aytilayotgan ediki, mening tabiiy savollarim o'zimga ham tentaklikka o'xshab tuyuldi. Men biror daqiqa o'ylanib qoldim.

- Atrofdagi barcha odamlar qoralab turganligini ko'rib turib ham odam bemalol yashashini hech tushunmayman! Ertami-kechmi bu narsa baribir sizga azob beradi. Hammamizda ham vijdon bor, qachonlardir baribir muqarrar ravishda uyg'onadi. Masalan, xotiningiz to'satdan o'lib qoldi, deylik. Shu holda vijdoningiz azob chekmaydimi?

U jim qoldi. Men uning gapirishini sabr-toqat bilan kutdim. Lekin pirovard-natijada jimlikni o'zim buzishga majbur bo'ldim.

- Bunga nima deysiz?

- Sizni telba deyman.

- Axir sizni xotiningiz va bolalaringizni boqishga majbur qilishlari mumkin, - dedim ranjib. - Qonun ularni o'z himoyasiga olishiga shubha qilmayman.

- Osmondagi oyni olib beradigan qonun ham bordir? Menda hech vaqo yo'q. Bu yerga bir necha yuz funt bilan kelganman.

Agar ilgari hayronlikdan lol qolgan bo'lsam, endi tamomila boshi berk ko'chaga kirib qoldim. Axir, darhaqiqat, вЪ”Otel' de bel'jвЪ”dagi kamtarona hayot uning iqtisodiy tang ahvolidan darak berardi.

- Bu pullaringiz tamom bo'lsa qanday tirikchilik qilasiz?

- Amallab ishlab toparman.

U butunlay xotirjam edi, ko'zlarida hamon istehzoli tabassum jilolanib turardi. Bu holat so'zlarim unga ahmoqona tuyulayotganini ko'rsatardi. Yana nima deyishimni o'ylab jim qoldim. Lekin bu safar birinchi bo'lib uning o'zi gapirdi.

- Nega Emmi yangidan erga chiqaqolmaydi. Hali yoshi o'tib qolgani yo'q, ko'rinishi ham yomon emas. Men uni ajoyib ayol sifatida tavsiya etishim mumkin. Agar men bilan ajralishni istasa, marhamat, aybni o'z bo'ynimga olaman.

Endi kulish navbati menga kelgandi. U qanchalik ayyorlik qilmasin, maqsadi menga ayon edi. U bu yerga ayol bilan kelganini har xil yo'llar bilan yashirayotgandi, izni yashirishga harakat qilayotgandi. Men qat'iy qilib javob berdim:

- Xotiningiz ajralishga hech qachon rozi bo'lmaydi. Bu uning qat'iy qarori. Bunga umid qilmasangiz ham bo'ladi.

U menga astoydil hayratlanib qaradi. Lablarida tabassum zuhur etdi va qat'iy ravishda shunday dedi:

- Azizim, menga baribir.

Men kulib yubordim.

- Bizlarni juda tentak deb hisoblamang-da. Siz qandaydir nozanin bilan jo'nab ketganingizni ham bilamiz.

Bu gapimga o'tirgan joyida tebranib ketdi va qattiq kulib yubordi. Uning kulgisi birovlarning zavqini keltiradigan darajada ediki, yaqinroqda o'tirganlar o'girilib qarashdi, keyin o'zlari ham kulib yuborishdi.

- Men bu yerda kulgiga sabab bo'ladigan biror narsa ko'rmayapman.

- Bechora Emmi, - ishshayib qo'ydi u.

Keyin uning yuzida nafrat ifodasi paydo bo'ldi.

- Ayol toifasining esi past-da o'zi. Sevgi! Hammayoqda sevgi deyaverishadi. Ularni tashlab ketishganda faqat boshqasi bilan ilakishib ketdi, deb o'ylashadi. Men faqat ayollar tufayligina shuncha ishlarni qiladigan ahmoqlardan emasman.

- Siz xotiningizni boshqa ayol tufayli tashlab ketmaganingizni aytmog'chisiz shekilli?

- Albatta.

- Bu chin so'zingizmi?

Bilmadim, nima sababdan chin so'zlayotganini tasdiqlashini talab etganimni o'zim ham tushuna olmayman. Bu shunchaki soddaligim tufayli bo'ldi, shekilli.

- Chin so'zim.

- Unday bo'lsa xudo haqqi, menga tushuntirib bering-chi, nima sababdan xotiningizni tashlab keldingiz?

- Men rassomchilik bilan shug'ullanmoqchiman.

Men ko'zlarim baqrayganicha unga tikilib qoldim. Hech narsaga tushunmadim va qandaydir vaqt orasida qarshimdagi odam jinni-pinni emasmi, degan fikr keldi. Mening yoshligimni, uni esa esini yig'ib olgan odamligini esda tuting. Azbaroyi lol bo'lib qolganimdan butun borliq yodimdan ko'tarilib ketdi.

- Lekin siz qirqa chiqdingiz-ku.

- Shuning uchun boshlaydigan vaqti yetdi, degan qarorga keldim.

- Siz rassomchilik bilan shug'ullanganmisiz o'zi?

- Bolaligimda rassom bo'lishni orzu qilgandim, lekin otam savdo ishlari bilan shug'ullanishga majbur etgan. U san'at orqali tirikchilik o'tkaza olmasan, deb hisoblardi. Men bundan bir yilcha oldin rasm chizish bilan shug'ullana boshladim. Hatto kechki rassomlar maktabiga qatnadim.

- Striklend xonim bu vaqt ichida klubda brij o'yini bilan bandsiz deb o'ylaganmi?

- Ha.

- Nega siz unga to'g'risini ayta qolmadingiz?

- Men buni sir tutishni lozim topdim.

- Rassomchilikdan biror narsa chiqayaptimi?

- Hozircha unchalik muvaffaqiyatli emas. Lekin o'rganaman. Shu tufayli bu yerga keldim. Londonda menga kerakli narsalar yo'q. Ko'ramiz, bu yerda nima bo'larkin.

- Nahotki siz shu yoshda rassomchilikni boshlab biror narsaga erishaman deb o'ylasangiz? Odamlar bu ishga o'n sakkiz yoshlarida kirishadi.

- Men esa hozir o'n sakkiz yoshdalik vaqtimdagiga qaraganda tezroq o'rganaman.

- O'zingizda iste'dod borligini qayoqdan bildingiz?

U darhol javob bermadi. Uning nigohi oldimizdan bir-biriga yopishib o'tib ketayotganlarda bo'lib, lekin ularni ko'rayotgani ham amrimahol edi. Sirasini aytganda, javobi ham berilgan savolning javobi emasdi.

- Men rasm chizishim kerak.

- Lekin bu judayam tavakkal ish-ku!

U menga qarab qo'ydi. Ko'zlarida shunday g'alati ifoda aks etdiki, o'zimni qo'ygani joy topolmay qoldim.

- O'shingiz nechada? Yigirma uchdami?

Savol andishasizlik bilan berilganday tuyuldi. Ha, mening yoshimda odam sarguzashtlarga o'ch bo'ladi. Uning yoshligi esa o'tib ketgan, jamiyatda ma'lum mavqega ega bo'lgan, xotin, bola-chaqali, birja dalloli edi. Men uchun tabiiy bo'lgan narsa u uchun nojoiz edi. Men xolis bo'lishga intildim.

- Albatta, mo'jiza ro'y berib siz ulug' rassom bo'lishingiz mumkin. Lekin bu milliondan bir imkoniyat ekanligini tushunishingiz kerak. Lekin pirovard-natijada noto'g'ri yo'lga qadam qo'yganingizni bilib qolsangiz fojia bo'ladi.

- Men rasm chizishim kerak, - qaytardi u.

- Agar uchinchi darajali rassom bo'lib qolguday bo'lsangiz shuning uchun hamma narsadan voz kechishga arziydimi? Hamma ishda ham birinchi bo'laverish har kimga ham nasib etavermaydi. Boshqa kasblarda o'rtamiyona bo'lsang ham shod-xurram yashashing mumkin. Lekin bu sohada o'rtamiyona bo'lish mumkin emas.

- Siz qip-qizil ahmoq ekansiz, - dedi u.

- Negaligini bilmaymanu, ayon haqiqatlar doimo ahmoqona bo'ladi.

- Sizga men rasm chizishim kerak deb aytyapman. Men boshqacha yo'l tuta olmayman. Agar odam daryoga tushib ketguday bo'lsa, yaxshi yoki yomon suzishidan qat'i nazar, suv qa'ridan qutulmog'i shart, aks holda daryoga g'arq bo'ladi.

Uning ovozi haqiqiy ehtiros ohanglari bor edi. Istaginga qarshi o'laroq, bu ovoz meni o'ziga rom qildi. Men uning vujudida qandaydir ulkan kuch tug'yon urayotganini his etdim. Uni irodasidan tashqari, qandaydir shafqatsiz va yengib bo'lmas narsa boshqarayotganga o'xshardi. Hech narsani tushuna olmay qoldim. Bu odamning ichiga shayton o'rnatilib olganday, bu shayton har bir daqiqada uni parcha-parcha qilib tashlashi, xarob etishi mumkinga o'xshardi. Striklend ko'rinishidan esa o'rtamiyona odam edi. Men undan ko'zimni uzmasdim, lekin bu hol uni xijolatga qo'ymasdi. Ichimda esa eski kamzul, anchadan beri tozalanmagan bosh kiyim, halpillab turgan shim kiyib olgan, anchadan beri olinmagan sarg'imgir soqol va katta burunli bu odamni kimga o'xshatishni bilmasdim. Og'zi katta, lablari qalin edi. Yo'q, men uning aniq ta'rifini baribir bera olmayman, shekilli.

- Siz xotiningizning yoniga baribir qaytmaysizmi? - dedim nihoyat.

- Hech qachon.

- Xotiningiz hamma ishni unutishga va yangidan hayot boshlashga tayyor. U sizga hech qachon va hech qanday ta'na qilmaydi.

- Uni jin ursin.

- Sizni qabih odam ekan deb hisoblasa ham maylimi? Xotiningiz va bolalaringiz ilojsizlikdan gadoychilik qilishga majbur bo'lishsa ham maylimi?

- Hammasiga tupurdim.

Keyin aytadigan so'zinning salmog'ini oshirish uchun biroz sukut saqladim va imkoniyat darajasida qat'iy ravishda dedim:

- Siz o'taketgan surbet ekansiz.

- Xo'sh, yuragingizni bo'shatib olgan bo'lsangiz, yuring, ovqatlanamiz.

O'n uchinchi bob

Bu taklifni iltifotsizlik bilan rad etish to'g'riligini tushunaman. Ehtimol, o'sha daqiqalarda vujudimni qoplab turgan qahrg'azabimni unga sochishim, keyinchalik polkovnik Mak-Endryuga bunday odam bilan bir stolga o'tirishdan voz kechganimni gapirib berib, uning iltifotiga sazovor bo'lishim mumkin edi. Lekin yuragimni ezib turgan o'z rolimni bajara olmaslikdan qo'rqish hissi meni erkin bo'lishga qo'ymasdi. Bu safar esa Striklendga aytayotagan barcha olijanob tuyg'ularim devorga otilgan no'xotdek bekor ketganligini anglaganimdan keyin bu gaplarni bas qila qoldim. Faqat sho'ir yoki avliyo odamlargina asfal't yo'lda gullar o'stirish mumkin degan sodda xayollarga borishi mumkin.

Men ichilgan ermanli araqning pulini to'ladim-da, arzon restoranga jo'nadik. U yerda odam juda ko'p ekan. Arzon restoran bo'lishiga qaramay, ovqatlari juda mazali ekan. Ishtaham yigitlarning ishtahasi edi. Restorandan chiqdik-da, qahvaxonaga kirib,

likyorli qahva ichdik.

Men Charlzga Parijga kelishimning sabablariga doir barcha gapni aytib bo'lgan edim. Biror samaraga erishmay turib, bu gapni to'xtatishim, nazarimda, Striklend xonimga nisbatan men tomonimdan xiyonatday tuyulsa-da, shunday loqayd odam bilan kurashni davom ettirishga endi darmonim qolmagandi. Faqat ayol zotigina bir narsaning o'zini o'nlaracha marotaba qaysarlik bilan qaytaraverishi mumkin. Endi Striklendning ruhiy holatini yaxshi anglash imkoniyati paydo bo'ldi, deya o'zimga taskin bera boshladim. Bu esa juda qiziq holat edi. Lekin buni amalga oshirish unchalik oson emasdi, zero, Striklend juda kamgap edi. Har bir so'z uning og'zidan juda qiyinchilik bilan chiqar, go'yo so'z uning uchun dunyo bilan mulqot vositasi emasga o'xshardi.

Ko'nglidagi gaplarni aytilaverib chaynalib ketgan iboralar, beadab xitoblar, uzuq-yuluq ishoralar orqaligina aniqlab olish mumkin bo'lardi. Lekin u biror arziydigan gap aytmasa ham uni zerikarli odam deb bo'lmasdi. Bu holat ehtimol uning samimiyligidan bo'lsa ajab emas. U, chamasi, birinchi marotaba ko'rayotgan Parij bilan unchalik qiziqmas (xotini bilan qisqa muddatga kelib ketganini hisobga olmasa ham bo'lardi), qarshisida gavdalanayotgan barcha yangi narsalarga ham zarracha hayratlanmay boqardi. Men Parijda juda ko'p marotaba bo'lganman va har safar yangidan hayratlanaveraman. Uning ko'chalaridan yurarkanman, o'zimni sarguzashtlarga o'ch baxtiyor odam sifatida his etardim. Striklend esa bamaylixotir edi. Xayolan o'sha kunlarga qaytib shunday xulosaga kelamanki, bu davrda u qalbining tug'yonli evrilishlaridan boshqa barcha narsalarga nisbatan ko'r va kar ekan.

Anchagina fohishalar yig'ilib qolgan mayxonada bema'ni janjal ro'y berdi. Bu qizlarning ba'zilari erkaklar bilan, ba'zilari esa dugonalari bilan o'tirishardi. Tez orada qizlardan biri biz tomonga tikilib turganini payqadim. Uning nigohi Striklend bilan to'qnash kelgach, kulib qo'ydi. Lekin Striklend uning tabassumiga e'tibor ham bermadi. Qiz o'rnidan turib zaldan chiqib ketdi va shu ondayoq qaytib kirib yonimizdan o'tib borarkan, g'oyat nazokat bilan biror ichimlik bilan mehmon qilishimizni iltimos qildi. U bizning stolimizga o'tirdi. Qizcha men bilan emas, Striklend bilan qiziqayotganini juda yaxshi bilib tursam ham u bilan valaqlashib o'tirdim. Men unga Striklend fransuz tilida bir necha so'znigina bilishini tushuntirdim. Qiz u bilan imo-ishoralar va buzuq fransuz tilida gaplashishga harakat qilib ko'rdi. Uning nazarida shunday qilsa, Striklend o'zini tushunadiganday. Qiz ingliz tilidagi o'nlaracha iboralarni bilardi. U faqat o'z tilida ifodalashi mumkin bo'lgan gaplarini sherigimga tarjima qilishni va uning javoblari ma'nosini ham o'g'irishni talab qildi. Striklendning vaqti chog' edi, bu holat uning kulgisini qistatsa-da, baribir, ancha loqayd edi.

- Siz, chamasi, g'olib chiqdingiz, - kuldim men.

- Baribir, o'zimni mamnun his eta olmayman.

Uning o'rnida bo'lganimda xijolat chekkan va o'zimni vazmin tuta olmagan bo'lardim. Qiz kulib turar, og'zi ham g'oyat bejirim, o'zi juda yosh edi. Men hayron bo'layotgandim: Striklend nimasi bilan qizni o'ziga rom eta oldi ekan? U o'z istagini yashirib o'tirmayotgandi, uning xohishini tarjima qilishimga to'g'ri keldi.

- Siz u bilan birga yurishingizni istayapti.

- Men u bilan og'iz-burun o'pishmayman, - to'ng'illadi u.

Men uning javobini iloji boricha yumshatib tarjima qilishga harakat qildim. Uning rad javobi, nazarimda, g'oyat iltifotsizlik tuyulgani uchun puli bo'lmaganligi tufayli shunday deyapti deb tushuntirdim.

- Lekin u menga yoqib qoldi, - e'tiroz bildirdi u. Unga tushuntiring, pul bermasa ham ketaveraman.

Bu gapini tarjima qilganimda Striklend yelkasini betoqatlik bilan qisib qo'ydi-da:

- Unga ayting, bu yerdan tuyog'ini shiqillatib qolsin, - dedi.

Striklendning ko'rinishi so'zlaridan ham ko'ra ifodaliroq edi. Qiz birdan boshini mag'rur ko'tardi, qizarib ketdi.

- Janob izzat-hurmatni bilmaydigan odam ekan, - qiz o'rnidan turayotib shunday dedi-da, zaldan chiqib ketdi.

Mening jahlim chiqdi.

- Uni haqorat qilishning nima zarurati borligiga tushunmayman. Axir u ko'p odamlar orasidan sizni tanlagan edi-ya...

- Bu satanglarni ko'rsam qonim qaynab ketadi, - uning gapini bo'ldi Striklend.

Men qiziqsinib uning yuziga tikildim. Uning yuzida nafrat ifodasi zuhr etgandi. Bu qo'pol va ta'sirchan odamning yuzi edi.

Ehtimol, uning ana shu ta'sirchanligi qizni o'ziga rom etgandir.

- Londonda istasam xohlagan ayol bilan yaqin bo'lishim mumkin edi. Men shu narsani deb bu yerga kelmaganman.

O'n to'rtinchi bob

Angliyaga qaytib ketayotganimda Striklend to'g'risida ko'p o'yladim, xotiniga aytadigan so'zlarimni tartibga solishga intildim. Mening so'zlarim uni qanoatlantira olmasligini bilardim. O'zim ham qilgan ishlarimdan ko'nglim to'lmagandi. Striklend meni garang qilib qo'ygandi. Men uning harakatlarini tushuna olmayotgandim. Rassom bo'lish to'g'risidagi fikr birinchi marotaba sizda qachon paydo bo'ldi, degan savolimga javob bermadi yoxud javob berishni shunchaki istamadi. O'zim esa buning tagiga yetolmasdim. To'g'ri, men uning og'irkarvon aqlida nafrat tuyg'ulari asta-sekin kurtak ota boshlaganligi haqidagi fikrga o'zimni ishontirishga urindim. Lekin u o'z oilasidagi hayotning bir xilligi va zerikarligidan hech qachon shikoyat qilmagandi. Hamma narsa Striklendning joniga tegib, rassom bo'lish uchungina oilaviy iplarni uzib tashlashi harholda g'alati edi. Tabiatan romantik bo'lganligim tufayli, o'zimcha buning izohini topdim. Qalbining qa'r-qa'rlariga ijod instinkti joylashib olgan deb o'yladim. Turmush tashvishlari bilan o'ralashib qolishiga qaramay, oxiri halokatga olib boradigan o'simta singari uning butun vujudini egallay boshlagan va pirovardida uni junbushga keltirgan, shekilli. Kakkquqush o'z tuxumini boshqa qushlarning uyasiga qo'yib, ochirib oladi. Keyin bu kakkucha o'z yemakdoshlari bo'lgan qushchalarning sho'rini quritadi. Bu ham yetmagandek, o'ziga boshpana bo'lgan inni pirovard-natijada buzib ketadi.

Lekin qizig'i shundaki, ijod instinkti Striklendday dallol odamning qalbiga o'rnashib qolganligi edi. Bu yaqinlari va o'zining sho'rishiga bo'lgandir balki. Vahiy har xil shakl va ko'rinishda keladi, odamlarning unga munosabati ham turlicha bo'ladi.

Ba'zilarga xuddi toshni uloqtirib tashlagan kuchli oqimdek tasir-tusir bilan, boshqalarga esa ohistalik bilan keladi. Striklendda mutaassib odamning to'g'riligi-yu, Iso shogirdlaridan birining shafqatsizligi mujassam edi.

Lekin men undagi jilovlab bo'lmas ishtiyoqqa yarasha asarlar yarata olish yo olmasligini aniqlashim lozim edi. Men undan Londondagi rassomchilik kechki maktabidagi hamkasabalari uning asarlari to'g'risida qanday fikrda ekanliklarini so'raganimda kulib qo'ydi.

- Ular meni maynavozchilik qilib yuribdi, deyishdi.

- Siz bu yerda ham biror maktabga qatnaysizmi?

- Ha. Bu mijg'ov men ustozimizni ko'zda tutayapman rasmimga ko'zi tushishi bilan qoshini chimirib nari ketdi.

Striklend jahl bilan pishqirdi. Unda zarracha sarosima sezilmasdi. Boshqalarning fikri uni qiziqtirmasdi.

Xuddi shu tufayli ham har safar Striklend bilan muomala qilganimda boshi berk ko'chaga kirib qolardim. Aksariyat odamlar boshqalarning men to'g'rimdagi fikrlariga e'tibor bermayman deyishganda, ko'pincha o'zlarini aldashadi. Odatda, ular o'zlarini xohlaganday ish yuritishadi va bu tufayli ularni hech kim tentaklikka yo'ymasliklariga umid qilishadi. Ba'zida esa ko'pchilikning fikriga qarshi ish tutishadi, zero bu holatda o'z yaqinlarining istagiga muvofiq ish yuritgan bo'lishadi. Agar ma'lum rasm-rusumlar do'stlaringiz tomonidan qabul qilingan bo'lsa, ularni pisand qilmaslik unchalik to'g'ri emas. Bu holatda odam o'z shaxsiyatiga haddan tashqari e'tibor bergan bo'ladi. O'z jasoratiga mahliyo bo'lib xavf-xatar tuyg'usini unutib qo'yadi. Lekin mashhurlikka intilish ishtiyoqi madaniy odamlarning hech qachon so'nmaydigan eng jo'shqin ishtiyoqidir. Atrofdagilarning fikri men uchun sariq chaqa deb ishonitirmoqchi bo'lganlarga ishonmayman. Bu quruq maqtanchoqlik, xolos. Mohiyat-e'tibori bilan bunday odamlar shunchaki mayda-chuyda ta'nalarga unchalik e'tibor berishmasligi mumkin. Chunki ular bunday gap-so'zlarga ko'pchilik uncha ishonvermasligini yaxshi bilishadi. Lekin mening qarshimda haqiqatan ham odamlarning gapidan zarracha hayiqmaydigan kishi turardi. U butun badaniga yog' surtilgan, hech kim quchog'iga ololmaydigan kurashchiga o'xshardi. Bu holat esa uni shakkoklik va erkinlik chegarasida ushlab turardi. Unga shunday deganim esimda:

- Agar hamma ham xuddi sizga o'xshagan bo'lsa, dunyo dunyo bo'lmasdi.

- Bema'ni gap. Har kim ham xuddi mendek harakat qila olmaydi. Ko'pchilik risoladagi odamlarday harakat qilishni yoqtiradi.

Men uni chaqib olmoqchi bo'ldim:

- Chamasi, вЂњShunday harakat qilingki, toki sizning har bir harakatingiz umumqoida darajasiga ko'tarila olsinвЂќ degan hikmatni eshitmagansiz shekilli?

- Birinchi marotaba eshitib turibman. Safsatadan boshqa narsa emas bu.

- Axborotingiz uchun bu gapni Kant aytgan.

Bunday odamni vijdonli bo'lishga da'vat etish mumkinmikin o'zi? Bu qo'lida ko'zgu bo'lmagan odamning o'z aksini ko'rishga intilishidagi foydasiz bir gap. Mening nazdimda jamiyat o'z xavfsizligini muhofaza qilish uchun ishlab chiqqan qoidalar odamlardagi vijdon tufayligina amalga oshadi. Shu boisdan, vijdonni qoidalarning bajarilishi ustidan nazorat qiladigan posbon, mirshab desa bo'ladi. Boshqacha aytganda, bizning вЂњmenвЂќligimizni belgilab turadigan asosiy a'zoyimizdagi josus bu. Inson shuhratga o'ch bo'ladi, ba'zida shuhrat uchun yovuz dushmaniga eshikni ochib berishga ham tayyor turadi. Dushman esa bunday odamni yaltoqilik bilan o'z tarafiga og'diradi, to'dadan ajrab inson bo'lib shakllanishiga yo'l qo'ymaslikka intiladi. Chinakam inson jamiyat farovonligi shaxsiy farovonlikdan yuqori turishini anglay boshlaydi. Insonni insoniyat, jamiyat bilan bog'lab turgan rishtalar juda mustahkam rishtalardir. Bir kuni u dunyoda shaxsiy manfaatlardan ham yuqori turuvchi manfaatlar borligi to'g'risidagi fikrga keladi, keyinchalik shu e'tiqodining quliga aylanadi, unga sajda qila boshlaydi, buni tan olmagan odamlarni qoralashga tushadi. Zero, u endi shu jamiyatning a'zosi bo'lgach, bundaylarga qarshi chorasiz ekanligini anglaydi. O'z harakatlari to'g'risida odamlarning fikr-mulohazalariga Striklend tamomila befarqligiga ishonch hosil qilganimdan so'ng insoniylik qiyofasini yo'qotgan bu gazandadan ixlosim butunlay qaytdi, undan yuz o'girdim.

Xayrlashayotganimizda menga shunday dedi:

- Emmiga aytingki, u bu tomonlarga kelib yurmasin. Men joyimni o'zgartiraman, baribir qidirib topolmaydi.

- Mening nazarimda u sizdan qutulgani uchun Ollohga hamdu sanolar o'qishi kerak, - dedim men.

- Azizim, buni tushunishga uni majbur eta olasiz, deb umid qilaman. Lekin, baribir, ayol zoti kaltafahm bo'lishini aytib qo'yay.

O'n beshinchi bob

Londonga qaytib kelganimda kechqurun Striklend xonimnikiga borishim iltijo qilingan xat kutib turardi. Unikida polkovnik Mak-Endryu xotini, Striklend xonimning opasi bilan o'tirardi. Garchi Mak-Endryu xonim sal so'nib qolgan, barcha yuqori unvonli ofitserlarning xotinlaridek o'zini oqsuyaklar toifasiga xos hisoblab mag'rur va jangovar tutuvchi, cho'ntagiga butun Britaniya imperiyasini yashirib olganday jiddiy qiyofada ko'rinsa-da, singlisiga juda o'xshardi. Bu xonimning butun harakatlari keskin va shiddatli edi, faqat yaxshi tarbiya ko'rganligi har qanday harbiy odam boshqalarga buyruq bera oladi degan qat'iy ishonchni ovoz chiqarib aytib yuborishiga izn bermasdi, xolos. Ko'yilagi qimmatbaho matodan bo'lishiga qaramay, didsiz tikilgandi.

Striklend xonim juda asabiylashayotgani ko'rinib turardi.

- Shunday qilib bizga qanday xabarlar keltirdingiz? - so'radi u.

- Men eringizni qidirib topdim. Afsuski, u uyga qaytmaslikka qat'iy qaror qilibdi. Men biroz jim turdim. U rassomchilik bilan shug'ullanmoqchi ekan.

- Bu bilan nima demoqchisiz? - hayronlikdan o'zini yo'qotar darajada qichqirdi Striklend xonim.

- Nahotki, siz uning bu ishtiyoqini hech qachon fahmlamagansiz?

- U butunlay aqldan ozibdi! - xitob qildi polkovnik.

Striklend xonim qoshini chimirdi. U o'z xotinalariga berildi.

- Hali oila qurmasidan oldingi paytlarda ham u ba'zida bo'yoq surtishni ermak qilardi. Ey, nimaligini aytsam buni moy chaplash desa ham bo'lardi. Biz uni mazax qilardik. U singari odamlar axir san'at uchun tug'ilmagan.

- Bu shunchaki bahona, xolos! - Gappa aralashdi Mak-Endryu xonim.

Striklend xonim bir qancha fursat o'z xayollariga g'arq bo'lib o'tirdi. U mening gaplarimni qanday tushunishni bilmayotgandi.

Mehmonxonada tartib o'rnatilib, avvalgi holiga qaytibdi. Sarishta sohibalik Striklend xonimning g'am-alamidan ustun kelibdi.

Mehmonxona avvalgidek huvillab qolmagandi. Lekin men Parijda Striklendni yaxshi bilib olganimdan keyin uni bunday sharoitda yashashini tasavvur eta olmadim. вЂњNahotki, ular biror marotaba bo'lsin Striklend bunday narsalar bilan butunlay chiqisha olmasligini sezishmagan bo'lsaвЂќ, - degan fikr xayolimga keldi.

- Agar u rassom bo'lishni xohlagan bo'lsa, nega indamadi? - so'radi nihoyat Striklend xonim. Boshqalarni bilmadim-u, lekin men uning bunday xohishini darhol inobatga olardim-ku.

Mak-Endryu xonim lablarini tishladi. U doimo san'at ahliga ixlos qo'ymagani uchun singlisiga dashnom berar, uning

вЂњmadaniyвЂќ do'stlarini mazax qilardi.

Striklend xonim so'zida davom etdi:

- Unda talantning biror zarrasi ko'ringanida birinchi bo'lib qo'llab-quvvatlamasdim, barcha sharoitni muhayyo qilmasdim, axir. O'z-o'zidan ayonki, birja dalloli emas, rassomning rafiqasi bo'lishni afzal bilardim-ku. Bolalar bo'lmaganda hech narsadan qo'rqmasdim, bu uyda emas, Chelsidagi biror arzonroq kulbada umrguzaronlik qilaverardim.

- Singilginam, mening sabr kosamni to'ldiryapsan-da! - xitob qildi Mak-Endryu xonim. - O'ylab topilgan bunday safsataga

ishonaman demoqchimisan?

- Lekin men buning ayni haqiqatligiga ishonaman, - dedim sekingina.

U men tomonga qandaydir nafratomuz qarab qo'ydi.

- Qirq yoshga kirgan erkak agar o'rtaga ayol zoti aralashmasa, o'z ishi, xotini va bolalarini tashlab ketmaydi. ВЪНЪArtistonabЪК doirangizdagi biror nozanin uning boshini aylantirganini men bilaman-ku, axir.

Striklend xonimning oqish yuzlari birdaniga qizarib ketdi.

- O'sha satang qanaqa ekan o'zi?

Men javob berishga shoshilmadim. Javobim bomba portlashiday ta'sir etishini his etdim.

- Uning yonida ayol zoti yo'q.

Polkovnik Mak-Endryu va uning xotini bu gapga ishonmasliklarini bildirishdi, Striklend xonim esa o'rnidan turib ketdi.

- Siz biror marotaba ham ayol zotini ko'rmaganingizni aytmoqchisiz, shekilli.

- Ko'radigan ayolning o'zi yo'q. U yerda yolg'iz yashayapti.

- Behuda gap! - qichqirib yubordi Mak-Endryu xonim.

- O'zim borsam bo'lar ekan, - po'ng'illadi polkovnik. - Har qanday qilib bo'lsa-da, u ayol haqida bilib kelardim.

- Parijga borib kelish mashaqqatini o'z bo'yningizga olmaganingizga afsuslanaman, - javob berdim unga achitib, - o'shanda hamma taxminlaringiz bema'ni bir gap ekaniga ishonch hosil qilib kelardingiz. U serhasham mehmonxonadagi keng xonani egallab turgani ham yo'q, katalakday va xaroba xonada yashayapti. Yengil hayot ketidan quvib uydan chiqib ketgani ham yo'q. O'nida sariq chaqasi ham yo'q.

- Siz, u biz bilmaydigan biror ayb ish qilib qo'ygan-u, mirshablardan yashirinib yuribdi, deb o'ylaysizmi?

Bunday taxmin ularning yuragida umid uchqunlarini yoqdi, lekin men bunga qat'iy qarshi chiqdim.

- Agar shunday bo'lganda sherigiga manzilini ma'lum qilib o'tirarmidi? - piching aralash e'tiroz bildirdim. - Nima bo'lganda ham bir narsaga aniq ishonaman: uning yonida hech qanday ayol yo'q. U hech qanday ayolni sevib qolgan emas, buni xayoliga ham keltirayotgani yo'q.

O'rtaga sukunat cho'kdi. Ular gaplarimning mag'zini chaqishayotgandi.

- Unday bo'lsa, - nihoyat sukunatni bo'ldi Mak-Endryu xonim, - agar sizning aytayotganlaringiz rost chiqsa, ahvol men o'ylaganchalik xatarli emas.

Striklend xonim opasiga qarab qo'ydi-yu, indamadi. Uning rangi zahil edi, ingichka qoshlari chimirildi. Yuz ifodasi qanday ma'no anglatayotganini tushuna olmasdim. Mak-Endryu xonim gapini davom ettirdi:

- Demak, bu shunchaki injiqlik xolos, tezda o'tib ketadi.

- Siz uning oldiga borishingiz kerak, Emmi, - dedi polkovnik. Nega endi biror yil Parijda turmasligingiz kerak. Bolalarga biz qarab turamiz. Bir xildagi hayot uning joniga tekkan, tezda esi joyiga keladi va mamnuniyat bilan Londonga qaytadi. Shundan keyin hammasi unut bo'lib ketadi.

- Men esa bormagan bo'lardim, - gapga aralashdi Mak-Endryu xonim. Yaxshisi, unga to'la erkinlik berilgani ma'qul. Shunda u biror kun dumini qisib qaytib keladi va avvalgicha hayot kechirishda davom etadi. Mak Endryu singlisiga sovuqqina qarab qo'ydi. Ehtimol, doimo ham u bilan o'zingni to'g'ri tuta olmaganisan, Emmi. Erkaklar nayrangboz bo'lishadi, ular bilan muomala qilishni bilmoq kerak.

Mak-Endryu xonim ham ko'pchilik ayollar singari sadoqatli va sevgan xotinini tashlab ketadigan erkaklarni ahmoq deb hisoblovchi, lekin bu ish uchun xotin kishi aybdor deguvchi ayollar toifasiga kirardi. Yurak o'zicha ish tutadi, uni tushunish esa qiyin.

Striklend xonim o'tirganlarga ohista ko'z tashlab chiqdi.

- U qaytib kelmaydi, - dedi u qat'iy ravishda.

- Eh, jonginam, u to'g'risida senga aytib berishgan gaplarni eslab ko'r. U saranjom-sarishtalik va qulay sharoitga o'rganib qolgan, izzat-hurmat ko'rsatishlarini xush ko'rgan. Nahotki sen uni ovloqdagi mehmonxonaning g'aribgina xonasida uzoq yashay oladi, deb o'ylasang. Ustiga-ustak, puli ham yo'q ekan. U qaytib kelishi kerak.

- Hozirgacha biror ayol bilan qochib ketgan hisoblardim va shu bois menda qandaydir umid bor edi. Bunday holat uzoq davom etmasligiga ishonardim. O'sha ayol uch oyda joniga tekkan bo'lardi. Agar u ayol tufayli qochib ketmagan bo'lsa hammasi barbod bo'libdi.

- Bularning hammasi juda g'aroyib-ku, - dedi polkovnik bu gaplarga burnini jiyirib.

- U albatta qaytib keladi, Dorotining bu to'g'ridagi taxmini tamomila to'g'ri.

- Lekin men uning qaytishini istamayman, - dedi Striklend xonim.

- Emmi!

- Agar u biror ayolni to'satdan yaxshi ko'rib qolib qochib ketganda kechirgan, bu tabiiy holat deb bilib, uni ayblamagan bo'lardim. Uni qochib ketishga majbur qilishgan deb hisoblardim. Erkaklar sodda va bo'sh-bayov, ayollar esa shilqim bo'lishadi. Lekin bu butunlay boshqa holat. Men uni ko'rgani ko'zim yo'q. Endi hech qachon uni kechirmayman.

Polkovnik Mak-Endryu va uning qaylig'i bir-biriga gal bermay xonimga dalda bermoqchi bo'lishdi. Ular xonimning gaplaridan lol bo'lib qolishdi. Aqldan ozibsan, deb o'zini ishontirmoqchi bo'lishar, uni tushunishni butunlay istashmasdi. Striklend xonim nihoyat menga murojaat qildi.

- Loaqal siz meni tushunarsiz?

- Unchalik emas. Gapingizni to'g'ri tushungan bo'lsam, agar u sizni boshqa ayol tufayli tashlab ketgan bo'lsa kechirasiz-u, qandaydir fikrni o'ylab ketgan bo'lsa, kechirmaysiz, shundaymi? Chamasi, siz birinchi holatda o'z taqdiringiz uchun kurashish imkoniyati bo'ladi, ikkinchi holatda esa butunlay ilojsizman deb o'ylayapsiz.

Striklend xonim menga o'qrayib qarab qo'ydi, lekin hech narsa demadi. Ehtimol, men mo'ljalga aniq tekkandim. Keyin xirillagan va hayajonli ovoz bilan gapini davom ettirdi:

- Odamni bunchalik yomon ko'rib qolish mumkinligi hech qachon xayolimga kelmagan. Qancha vaqt davom etsa ham, baribir, bir kuni qaytib keladi, deb o'zimni ovutardim. Hech bo'lmasa o'lim qo'ng'irog'i bong urayotganda meni chaqirtirar deb o'ylagandim va bunga tayyor edim. Men unga xuddi onasiday mehribonlik ko'rsatgan va pirovard-natijada, uni sevganimni va hammasini kechirganimni aytardim.

Men ko'pincha ayollarda sevgan odamlarining o'limi oldida o'zlarini g'alati tutishlarini ko'rib ajablanardim. Ba'zida esa hatto yaqin

odamlarining uzoq yashashlaridan afsuslanishayotganday, bu holat ularning erkinliklariga monelik qilayotganligidan ranjishayotganday tuyulardi.

- Lekin endi barchasi tamom. U men uchun tamomila begona odam. Ochlikda, tanholikda, g'ariblikda o'lib ketaversin buning menga hech qanday aloqasi yo'q. Biror dahshatli kasallik yoqasidan olishiga umid qilaman. U endi men uchun yo'q.

Shu joyga kelganda Striklendning so'zlarini bildirib qo'yishni o'rinli deb bildim.

- Agar siz u bilan ajralishni istasangiz, bu ishga zarur bo'lgan hamma narsaga tayyor.

- Nega men unga erkinlik uchun imkon yaratib berarkanman?

- Menimcha, u bunday erkinlikka intilayotgani yo'q. Shunchaki, sizga qulay bo'larmikin deb shunday degandi-da.

Striklend xonim asabiy holatda yelkasini qisdi. Men xafa bo'ldim. O'sha vaqtlarda odamlar haqidagi fikrlarim boshqacharoq edi, chiroylikkina bu ayolning bunday munofiqona qarashlari xafa qilgandi. Inson qiyofalari bu qadar turli-tumanligini tushunmasdim. Endilikda esa ichi torlik va keng fe'llik, qahr-g'azab va mehr-shafqat, nafrat va muhabbat ham odamlar yuragidan o'rin olabishini tushundim.

Striklend xonimga azob berayotgan, tahqirlangan tuyg'ularini yengillash tiradigan biror so'z topa olarmikinman? deb o'ylandim. Bunga urinib ko'rmoqchi bo'ldim.

- Mening nazarimda gohida eringiz o'z harakatlariga javob bermaydigan odamday tuyuladi. Fikrimcha, u ilgari odam emas.

Xayoliga kelib qolgan ishtiyoq uning butun vujudini egallab olgan. Azbaroyi oldi-ketiga qaramay, o'z xayollariga o'ralashib ketganidan uning holati xuddi o'rgimchak to'riga ilinib qolgan pashshaga o'xshaydi. Bamisoli sehlranganday. Bunday vaqtda odamdagi ikkinchi men birinchini siqib chiqarishi to'g'risidagi jumboqli hikoyalar esga tushadi. Qalbi xuddi o'ziniki emasday, tanasi esa xuddi sirlil o'zgarishlarga qodirday. Eski vaqtlar bo'lganida Charlz Striklendning ichiga shayton kirib olgan deyishardi.

Mak-Endryu xonim kafti bilan tizzalarini berkitib turgan ko'ylagining etaklarini siladi, oltin bilaguzugi qo'li bilan pastga qarab yurdi.

- Bularning barchasi quruq safsata, xolos, - dedi u aftini bujmaytirib. To'g'ri, men Emmi eriga haddan tashqari ishonib yuborganini inkor etmayman. Agar u o'z ishlari bilan andarmon bo'lib qolmaganda, nimalar ro'y berayotganini fahmlagan bo'lardi. Masalan, Alek yillar mobaynida biror fikrini mendan yashirib yurolmaydi-ku.

Polkovnik o'zini olamdagi eng yaxshi odamday ko'rsatib, qayoqlargadir tikilib qoldi.

- Lekin, Charlz Striklend, baribir, berahm hayvon ekan. Mak-Endryu xonim menga yeb qo'yguday tikildi. Men xotinini nima uchun tashlab ketganini aniq bilaman: u xudbinligi, ha, xuddi shunday xudbinligi tufayli tashlab ketgan.

- Bu judayam jo'n izoh, - javob berdim men va ichimda bu izoh hech narsani tushuntirib bera olmaydi, deb qo'ydim. Keyin charchaganligimni bahona qilib, ketishga otlandim, Striklend xonim meni yo'ldan qaytarishga harakat ham qilib ko'rmadi.

O'n oltinchi bob

Keyingi voqealar Striklend xonim sabotli ayol ekanligini ko'rsatdi. U baxtsizliklar to'g'risidagi oxiri ko'rinmas hikoyalar odamlarning joniga tegib ketganini fahmlab, o'z iztiroblarini yashirin tutardi. U qayerda paydo bo'lmasin do'stlari galma-galdan tez-tez mehmonga chaqirib turishardi - o'z qadr-qiyamatini muqarrar ravishda baland tutardi. Ancha bashang, lekin sodda kiyinar, o'zini quvnoq va kamtar tutardi. O'z g'am-tashvishlarini aytishdan ko'ra, o'zgalarning alamli hikoyalarini eshitishni afzal ko'rardi. Eri to'g'risida doimo mehr-shafqat bilan gapirardi. Dastlabki paytlardagi eriga munosabati meni hayron qoldirdi. Bir kuni u menga shunday dedi:

- Siz, shubhasiz, yanglishyapsiz, aniq manbalarga qaraganda Charlz Angliyadan bir o'zi ketmagan.

- Agar shunday bo'lsa, izni yo'qotish bo'yicha daho ekan.

U ko'zini mendan olib qochdi va qizarib ketdi.

- Harholda, men sizdan iltimos qilaman, agar biror odam qandaydir satang bilan birga qochib ketgan, deguday bo'lsa, uni rad etmang.

- Yaxshi, rad etmayman.

U gapni boshqa tomonga burdi. Tez kunda Striklend xonimning do'stlari davrasida bu voqeaning o'ziga xos bayoni paydo bo'lganini eshitdim. Striklend go'yoki teatrda birinchi marotaba ko'rib qolgan fransuz raqqosasiga oshiq beqaror bo'lib, uning ketidan Parijga jo'nagan emish. Bunday ovoza qayerdan paydo bo'lganini surishtirib o'tirmadim, lekin bu gap Striklend xonimga odamlarning rahmini keltirar, uning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlardi. Bu esa uning o'rganmoqchi bo'lgan kasbiga yordam berishi mumkin edi. Polkovnik Mak-Endryu xonim sariq chaqasiz qoldi, deganda mubolag'a qilmayotgandi. U yashashi uchun biror mablag' manbai topmog'i, buni qanchalik tez boshlasa shuncha yaxshi edi. U yozuvchilar jamoatchiligidan ko'pchiligini tanishi va bu narsa unga ish berishini o'ylab, stenografiya va mashinkada yozishni o'rganishga kirishdi. Uning o'qimishliligi va ma'lumoti ajoyib mashinkachi bo'lishiga zamin yaratardi. Oilaviy fojeasi esa mustaqil yo'l tutishiga majbur etardi. Do'stlari uni ish bilan ta'minlab turishga, o'z tanish-bilishlariga uni tavsiya etishni va'da qilishdi.

Bolalari yo'q va ma'murchilikda yashaydigan Mak-Endryular xonimning bolalariga homiylik qilishni o'z zimmlariga olishdi. Shunday ekan, Striklend xonim faqat o'zini boqsa kifoya edi. U o'z uyidan chiqib ketib, mebellarni sotdi. Vestminsterda kichikroq ikki xonali uyda Striklend xonim yangi hayot boshladi. U o'ta tirishqoq bo'lganligi tufayli, ishida muvaffaqiyat qozonishiga shubha qilmasa bo'lardi.

O'n yettinchi bob

Yuqoridagi voqealar sodir bo'lganidan keyin besh yil o'tgach, men biroz muddat Parijda yashashga qaror qildim. Har kuni bir ishni qaytaraverish g'oyat jonga tegadigan va zerikarli mashg'ulot. Do'stlarim o'z hayot yo'llaridan asta-sekin olg'a borishardi. Ular endi meni biror narsa bilan hayratlantira olishmasdi. O'zaro uchrashib qolganlarimizda nima deyishlarini avvaldan bilib turardim, hatto ularning ishqiy sarguzashtlari ham unchalik qiziq tuyulmasdi. Biz bir tomondagi so'nggi bekatdan ikkinchi tomondagi oxirgi bekatga bo'zchining mokisidek borib kelaveradigan tramvay vagonlariga o'xshardik. Bu vagonlar qancha yo'lovchini tashishini ham aniq hisoblash mumkin edi. Hayot nihoyatda zerikarli o'tardi. Meni vahima bosdi. Uydan voz kechdim, arzimas uy-ro'zg'or anjomlarini sotib yubordim-da, hammasini yangidan boshlashga qaror qildim.

Jo'nab ketishdan oldin Striklend xonimnikiga kirdim. Men uni anchadan beri ko'rmagandim, shu tufayli xonimdagi o'zgarishlar aniq ko'zga tashlanardi. U qarib va ozib, yuzidagi ajinlar ko'payibgina qolmay, fe'li ham o'zgartirayotganday tuyuldi. U o'z ishlarini

ancha yo'lga qo'yib yuborgandi, Chanserileynda idorasi bor edi. Striklend xonimning o'zi endi deyarli mashinkalash bilan shug'ullanmas, faqat qo'l ostida ishlaydigan to'rtta qizning ishlarini tekshirardi. O'z mahsulotlarining xaridorgir bo'lishi va chiroyli chiqishi uchun ko'k va qizil ranglardan foydalanar, tayyor ishlarni tovlanadigan qattiq va yoqimtoy rangli qog'ozlarga o'rab berardi. Darhaqiqat, uning ishlari go'zalligi va nozikligi bilan nom qozongandi. U yaxshigina daromad qilardi. Lekin faqat yashash uchun ishlash unchalik yoqimli mashg'ulot emas, degan tasavvurda edi, shu bois suhbatdoshlariga o'zining oqsuyak ayollardan ekanligini eslatib qo'yardi. Striklend xonim gap orasida mashhur tanishlarining nomlarini qalashtirib tashlar, o'zi ijtimoiy zinapoyaning shu pog'onasida qolayotganidan afsuslanganday bo'lardi. Bunday jur'atidan o'zi ham xijolat chekkanday bo'ldi, lekin ertaga Janubiy Klinsingtonda yashovchi taniqli advokat davrasida ziyofatda bo'lishidan hayajondaligini bildirdi. O'g'li Kembrijda o'qishini mamnuniyat bilan hikoya qilardi. Shuningdek, u biroz kinoyaomuz shaklda bo'lsa-da, qizi to'xtovsiz ravishda raqsga taklif etilayotganligini ham qo'shib qo'yishni unutmadi. Men no'rin savol berib qo'ydim:

- Qizingiz ham ishlaringizga qarashadimi?

- Zinhor! Men bunga yo'l qo'ymayman, - javob beradi Striklend xonim. U juda yoqimtoy va men ishonamanki, o'ziga yaxshigina qayliq topa oladi.

- Bu sizga katta madad bo'lardi.

- Ko'pchilik u katta sahnaga chiqishi kerak, deb hisoblaydi. Lekin men bunga rozi bo'lmayman. Men eng yaxshi dramaturglarimizning barchasi bilan tanishman, unga ertagayoq yaxshigina rol' topib berishim mumkin, lekin men bunday doiraga kirib qolishini istamayman.

Bunday kalondimog'lik meni hayron qoldirdi.

- Eringiz to'g'risida biror xabar eshitdingizmi?

- Yo'q, hech narsa eshitmadim. Chamasi, u o'lib ketgan.

- Agar uni Parijda uchratib qolsam sizga xabar beraymi?

U bir daqiqacha o'ylab qoldi.

- Agar u judayam qiynalib qolgan bo'lsa, biroz yordam berishim mumkin. U holda sizga ozroq pul jo'nataman, zarur paytlarida ozgina-ozginadan berib turasiz.

- Siz juda olijanobsiz, - dedim men.

Lekin men u bu ishni olijanobligi uchun qilmayotganini bilardim. Iztirob odamni olijanob qiladi, degan gapga kafillik berib bo'lmaydi. Baxt gohida odamda shunday tuyg'ular uyg'otishi mumkin. Lekin iztirob aksariyat hollarda odamni maydakash va qasoskorga aylantiradi.

O'n sakkizinchi bob

Parijga kelganimdan keyin ikki hafta o'tar-o'tmas Striklendni uchratib qoldim.

Men Dam ko'chasidagi uylardan birining beshinchi qavatidan kichkinagina xonani tezda topib oldim. Ikki yuz frankka eski mebellar xarid qildim. Qavat nazoratchisi ertablari menga qahva qaynatib berishi va xonamni tartibga solishi lozim edi.

O'rnatib olganim zahoti eski tanishim Dirk Struvenikiga jo'nadim.

Dirk Struve o'z fe'l-atvorlariga qarab ba'zilar bepisandlik bilan istehzoli kuladigan, ba'zilar hayronlikda yelka qisib qo'yadigan odamlar toifasiga kirardi. Tabiat uni qiziqchi qilib yaratgandi. U rassom, rassom bo'lganda ham yomon rassom edi. Biz Rimda tanishgandik, rasmlarini yaxshi eslardim. U siyqasi chiqqan mavzularda rasm chizishga o'ch edi. San'atga mislsiz muhabbat qo'ygan bu odam nuqul rimliklarni aks ettirardi. Uning rasmlarida Ispaniya maydonining zinapoyalarida dam olayotganlar, o'tkir uchli shlyapa kiyib olgan ko'zlari katta-katta mo'ylabli dehqonlar, turfa rangli kiyim-kechak kiyib olgan bolalar, keng yubkali ayollar tasvirlanardi. Rasmdagilar yo cherkov eshigining oldida dam olishayotgan, yo tiniq osmon ostida sarv daraxtlari orasida sayr qilayotgan, yo Uyg'onish davridan qolgan favvora oldida muhabbat sarguzashtlarini bir-birlariga hikoya qilib maroqlanishayotgan, yo bo'lmasa, buqalar qo'shilgan aravalar atrofida uymalashib yurgan holatda ko'rsatilardi. Ularning barchasi obdon hafsala bilan chizilgan va bo'yalgandi. Ehtimol, fotografiya ham tasvirga olinayotganlarni bunchalik aniq ko'rsata olmasdi. Rassomlardan biri Medichining dala hovlisida Dirka в Ыъ Shokolad в Ык qutichalari chizish bo'yicha mutaxassis deb baho bergandi. Uning rasmlarini ko'zdan kechirib, Mone, Mane va boshqa impressionistlar butunlay bo'lmagan deb o'ylash mumkin edi.

- Albatta, men ulug' rassom emasman, - derdi u. Shubhasizki, Mikelanjelo emasman, lekin menda nimadir bor. Mening rasmlarim sotilyapti. Bu rasmlar turli toifadagi odamlarning uylariga fayz bag'ishlamoqda. Sen bilasanki, mening ishlarimni faqat Gollandiyada emas, Norvegiya, Shvesiya va Daniyada ham sotib olishyapti. Savdogarlar va badavlat ishbilarmenlar rasmlarimni juda yoqtirishadi. Bu yerlarda qishning nihoyatda sovuq, uzoq bo'lishini tasavvur ham qila olmasan. O'sha joylarning aholisi Italiya mening rasmlarimda tasvirlangandek deb o'ylashni xohlashadi. Italiyani xuddi men tasvirlaganday tasavvur etishadi. Bu tomonlarga kelmasimdan oldinlari ham men uni xuddi shunday tasavvur etardim.

Darhaqiqat, bu tasavvur uning qon-qoniga singib ketgan va o'ziga rom etib qo'ygan, shu bois haqiqatni ko'ra olmasdi, uning nazdida Italiya romantik qaroqchilar va ajoyib xarobalar vatani bo'lib ko'rinardi. U g'arib, pastkash va siyqasi chiqqan idealni chizishda davom etardi. Bu hol asarlariga o'ziga xos joziba kasb etardi. Shaxsan men uchun Dirk Struve faqatgina masxaravozlik manbai emasdi. Rassom birodarlari esa chizgan rasmlariga mensimay qarashlarini yashirib o'tirishmasdi. Lekin u yaxshigina pul topardi. Rassom oshnalari o'ylab ham o'tirmay cho'ntagiga xo'jayinlik qilishdan tap tortishmasdi. Dirk qo'li ochiq odam edi, uning soddadilligini suiiste'mol qiluvchilar zarracha tortinmay qarz olaverishardi. Rahmdilligi, ochiqko'ngilligi me'yorida ortiq darajadalligidanmi, olgan qarzariga minnatdorchilik bildirishni ham o'zlariga ep ko'rishmasdi. Undan qarz olish yosh bolani talaganday bir gap edi. Ustiga-ustak, tentak deb yozg'irishardi. Nazarimda, o'z epcilligidan g'ururlanib yuradigan cho'ntak o'g'risi izvoshda butun boyligi solingan chamadonchani unutib qoldirgan merov xotinning o'ljasini osongina qo'lga kiritganiga unchalik ham xursand bo'lavermaydi. Tabiat Struvega laqmalik hadya qilganida saxiylik ko'rsatganiga qaramay ta'sirchanligi ham o'ziga yetarli edi. Ko'pincha masxaralash va tahqirlar yomg'iri ostida qolishiga qaramay, ko'ngilli ravishda o'zini shunday zarbalar tagida qoldirayotganday tuyulardi. U ketma-ket qilinayotgan tahqirlardan ozor chekayotgan bo'lsa-da, oqko'ngil bo'lganligi bois, jahli chiqmasdi. Avval otilgan ta'na toshining og'rig'i ketmasdan yangisi otilaverardi. Uning hayoti fojialarga to'la edi. Men uni hech qachon masxara qilmasdim. Shu bois rahmdil hamroh topganidan xursand bo'lib adoqsiz g'am-alamlarini menga to'kib solishga harakat qilardi. Eng achinarlisi shunda ediki, bu g'am-alamlar qanchalik fojiali bo'lsa, shunchalik kulgili edi.

U yomon rassom bo'lishiga qaramay, san'atni favqulodda nozik his etardi, rasmlar ko'rgazmasini Struve bilan birgalikda aylanish odamga chinakam lazzat bag'ishlardi. San'at asarlaridan behad hayratlana biladigan Struvega tanqidiy fikrlash ham yot emasdi.

Dirk katolik mazhabiga mansub edi. U avvalgi avlod rassomlarining qadriga yetish bilan birga, zamonaviy rasmlarga ham munosib baho bera olardi. Yangi talantlarni tezda fahmlay olar, ular to'g'risida bag'rikenglik bilan mulohaza yurita bilardi. Men hech qachon rassomchilik asarlariga bu qadar to'g'ri baho beradigan ikkinchi odamni ko'rmaganman. Buning ustiga ko'pchilik rassomlarga qaraganda yaxshiroq bilimga ega edi, ularga o'xshab san'atning boshqa sohalaridan xabarsiz emasdi. Musiqiy va adabiy didi rassomchilik to'g'risidagi mulohazalarining teran va turfa xilligiga olib kelardi. Men singari yoshlar uchun Dirk Struvening maslahat va izohlari haqiqatan katta ahamiyatga molik edi.

Rimdan jo'nab ketganimdan keyin taxminan ikki oyda bir martadan o'ziga xos ingliz tilidagi uzun xatlarini olib turdim. Bu xatlarni o'qiganimda entikib, jo'shib, qizg'in qo'l harakatlari bilan so'zlayotgan Dirkn ko'rib va eshitib turgandek bo'lardim. Parijga kelmasimdan sal oldinroq u ingliz qiziga uylangan bo'lib, endilikda Monmartarda o'rnamshib olgandi. U bilan to'rt yildan beri ko'rishmasdik, xotini bilan ham tanish emasdik.

O'n to'qqizinchi bob

Parijga borishimni Struvega xabar qilmaganligim tufayli, eshik qo'ng'irog'ini chalganimda chiqib kelgan rassom dastlab meni tanimadi. Keyin xursandchilikdan qichqirib yubordi-da, ustaxonasiga surgab ketdi. Bunaqa qizg'in kutib olish odamga xush yoqar ekan!

O'choq yonida nimadir tikayotgan xotini o'rnidan turib, mening istiqbolimga yurdi. Dirk meni tanishtirdi.

- Sen uni bilasan, - dedi xotiniga murojaat etib, - u to'g'risida senga ko'p gapirib berganman. Menga qarab esa: - Nega kelishingni xabar qilmading? Kelganingga ancha bo'ldimi? Uzoqroq muddatga keldingmi? Eh, sen bir soat oldinroq kelganingda birgalikda ovqatlanardik.

U menga savollar yog'dirib tashladi, yumshoq o'rindiqa o'tkazib, yelkamga shapatilab urib, sharob, pechen'e, sigara bilan siylay boshladi. Bir daqiqa bo'lsin meni tinch qo'ymas, uyda viski yo'qligiga achinar, qahva tayyorlashga shoshilar, yana nimalar bilandir ko'nglimni olishga intilar, xursandligidan o'zini qo'yishga joy topa olmas, kular, azbaroyi hayajonlanayotganidan terlab ketgandi.

- Sen zarracha o'zgarmagansan, - dedim unga kulib qararkanman.

Dirkning ko'rinishi hamon beo'xshov edi. Bo'yi past, semiz, oyoqlari kalta-kalta. Hali yoshligiga qaramay u o'ttizdan oshmagandi sochi deyarli qolmagandi. Yuzi dum-dumaloq bo'lib, terisi oqqa moyil qizg'ish, lablari qip-qizil edi. U doimo oltin gardishli kattakon ko'zoynak taqib yurardi, ko'zlari ko'm-ko'k va katta-katta edi, mo'ylabi azbaroyi yuzining rangiga o'xshab ketganidan yo'qqa o'xshardi. U Rubens chizishni yaxshi ko'rgan xushchaqchaq semiz savdogarlarga o'xshab ketardi.

Birmuncha muddat Parijda bo'lmoqchiligimni, uy ham topganimni unga gapirganimda, oldindan aytmaganimga ta'na qildi. O'zi uy topib jihozlashga yordam berishi, ko'chishga ko'maklashishi mumkinligini bildirdi, bekorga mebel' uchun pul harjlaganimdan koyindi. Uning yordamidan foydalanmaganimni do'st kishining ishi emas deb astoydil ginaxonlik qildi. Struve xonim jimgina paypoq to'qib o'tirar, erining gaplarini kulimsiragancha bamaylixotir eshitib o'tirardi.

- Ko'rib turganingdek, uylandim, - to'satdan e'lon qildi Dirk, - xotinim to'g'risida nima deysan?

U xotiniga nihoyatda mayinlik va nazokat bilan tikildi, terlaganidan burnining uchigacha tushib ketayotgan ko'zoynagini ko'tarib qo'ydi.

- Bu savolingga nima deb javob bera olardim? - kuldim men.

- Qo'ysang-chi, Dirk, - deb so'z qistirdi Struve xonim.

- Axir u ajoyib emasmi? Do'stginam, vaqtni o'tkazmay uylan, iloji boricha tezroq uylan. Men eng baxtli odamman. Unga bir qara. Axir u tayyor rasm emasmi? Sharden rasmlariga o'xshaydi-a? Men dunyodagi barcha go'zallarni ko'rganman, lekin hech qachon Struve xonimdan go'zalrog'ini ko'rmaganman.

- Dirk, agar jim bo'lmasang, ketib qolaman.

- Tentakkinam, - dedi u.

Xonim erining ovoqidagi behad ehtirosdan uyalinqirab qizarib ketdi. Dirkning xatlaridan men xotinini esini yo'qotar darajada yaxshi ko'rishini bilardim, endilikda undan ko'z uza olmayotganini ko'rib bunga yanada ishonch hosil qildim. Ayol uni sevishevmasligini esa aniq ayta olmayman. Bechora Pantalone esa o'ziga bunday qizg'in muhabbat uyg'otishi qiyin edi, lekin ayolning ko'zlari yoqimtoy kulib turardi. Ehtimol, uning o'zini vazmin tutishida chuqur tuyg'ular yashiringandir. Men Struve xonimda rassomning es-hushini olgan maftunkor go'zallikni payqamadim, lekin ayolda qandaydir sokin joziba bor edi. Arzonroq kulrang matodan qoyilmaqom qilib tikilgan ko'ylagi balanddan kelgan kelishgan qomatiga quyib qo'yganday yarashgandi. Ana shu qomat tikuvchidan ko'ra haykaltarosh uchun qiziqarliroq edi. Struve xonim, oq yuzdan kelgan qizg'ish-qo'ng'ir sochlarini soddagina qilib turmaklab olgandi. Ko'm-ko'k ko'zlarida xotirjamlik uchqunlarini sezish qiyin emasdi. Uni g'oyatda go'zal deb ayta olmasam-da, Struve bekorga Shardeni eslatmagandi. U ulug' rassom tasvirlagan va shu orqali manguikka daxldor qilgan yengil bosh kiyim kiyib, peshband tutib olgan ayolni eslatardi. Xonim juda aqlli va ish bilan band ayol taassurotini qoldirmasdi, lekin undagi sokin jiddiqlik qiziqishimni uyg'otardi. Uning Dirk Struvega turmushga chiqqanligi juda g'alati edi. U ingliz ayoli bo'lishiga qaramay, qanday doiradan ekanligini, qanday tarbiya olganini, turmushga chiqqungacha qanday yashaganini bilmasdim. U deyarli gapirmasdi, lekin ahyon-ahyonda oraga biror so'z qistirganda ovozi yoqimtoyligi, harakatlari tabiiyligi sezilardi.

Men Struedan ishlayotgan yoki ishlamayotganini so'radim.

- Ishlayapsizmi deb so'rayapsizmi? Ha, oldingilariga qaraganda yaxshi rasmlar chizayapman!

U qo'limdan ushlab dastgohda turgan rasm oldiga olib bordi.

Men beixtiyor seskanib ketdim.

Dirk cherkov oldida dam olayotgan Kampan'i kiyimidagi bir to'da ital'yan dehqonlarini chizgandi.

- Hozir shu rasmni chizayapsanmi? - so'radim undan.

- Ha. Bu yerdagi modellar Rimdagidan yomon emas.

- Judayam chiroyli-a, to'g'rimi? - dedi Struve xonim.

- Bechora xotinim meni ulug' rassom deb fahmlaydi.

Uning xijolatli kulishi bu fikrdan maza qilayotganini yashira olmadi. Uning ko'zlari dastgohdagi rasmda edi. Boshqa rassomlarning asarlari to'g'risidagi g'oyat o'rinli tanqidiy mulohazalarini o'zining tuturuqsiz asarlariga tatbiq eta olmagan g'alati edi.

- Boshqa rasmlaringni ham ko'rsat, - dedi Struve xonim.

- Ko'rishni xohlaysanmi?

Rassom og'aynilarining masxaraomuz kulishlaridan to'yib ketgan Dirk Struve soddadillik bilan o'z ishlarini ko'rsatishga rozi bo'ldi.

U oldimga o'ynab yurgan jingalak sochli ikki ital'yan bolasi tasvirlangan rasmini qo'ydi.

- Juda ajoyib chiqqan-a, to'g'rimi? - so'radi Struve xonim.

U menga yana anchagina asarlarini ko'rsatganida Dirk Parijda ham xuddi Rimdagidek tuturiqsiz asarlar chizayotganiga ishonch hosil qildim. Bularning barchasi soxta, mayda, hech narsaga arzimaydigan chizmalar edi. Hayotda esa Dirk Struvechalik halol, samimiy odamni bilmasdim. Bunday ziddiyatni qanday angiamoq kerak?

To'satdan xayolimga kelib qolgan savolni o'zim ham bilmagan holda undan so'radim:

- Marhamat qilib aytg-chi, tasodifan bo'lsa-da, Charlz Striklend degan rassomni uchratmaganmisan?

- Nahotki sen uni tanisang? - qichqirib yubordi Dirk.

- U nobakor odam, - dedi Struve xonim.

Dirk kuldi.

- Bechoraginam. - Dirk xotining oldiga yugurgilab kelib, ikkala qo'lini o'pib qo'ydi. Xonimning uni ko'rgani ko'zi yo'q.

Striklendni tanishib juda g'alati!

- Bema'ni qiliqli odamlarni jinim suymaydi, - dedi xotini.

Dirk kulimsiragancha men tomonga o'girildi.

- Gap nimadaligini hozir senga tushuntirib beraman. Kunlardan bir kun uni asarlarimni ko'rsatishga chaqirdim. U uyimizga kirib kelganida barcha rasmlarimni ko'rsatdim. Struve bir daqiqa jim qoldi. O'zi uchun g'oyat yoqimsiz bo'lgan bu hikoyani nima uchun boshlaganini tushunmasdim. U rasmlarimni ko'rduyu indamadi. Men barcha mulohazalarini oxirida aytsa kerak, deb o'yladim.

Rasmlarimni ko'rsatib bo'lgach: вЂњMana, barcha asarlarimni ko'rsatib bo'ldim, ko'rsatadigan boshqa birorta rasmim qolmadivЂќ,- dedim. U esa menga: вЂњMen sizdan yigirma frank qarz so'ragani kelgan edimvЂќ, - dedi.

- Dirk aytgan pulini berdi-ya! - g'azab bilan qichqirib yubordi Struve xonim.

- To'g'risini aytsam, lol bo'lib qoldim. Ha, men odamlar qarz so'raganda - yo'q deyişhini yomon ko'raman. U bergan pulimni cho'ntagiga soldi, вЂњTashakkurvЂќ deb bosh qimirlatib qo'ydi-da, chiqib ketdi.

Dirk Struve bu tarixni gapirib berayotganda dag'al yuzida shu qadar tunganmas hayrat ifodasi zuhr etib turardiki, uni ko'rgan kishi beixtiyor kulib yuborardi.

- Rasmlarimni yomon deganda ham sira xafa bo'lmasdim, lekin u biror so'z ham aytmedi.

Striklendning u bilan qilgan muomalasidan taajjublanishi emas, balki o'zini yo'qotar darajaga kelgan Dirkning hozirgi aft-basharasini ko'rish kulgili edi.

- Men u turqisovuqning basharasini endi hech qachon ko'rmayman deb umid qilaman, - dedi Struve xonim.

Dirk kulib yelkasini qisib qo'ydi. U endi asl holiga, odatdagi sofko'ngilliligiga qaytgandi.

- Nima bo'lganda ham u ulkan rassom, judayam ulkan.

- Striklendmi? - xitob qildim men. - U holda boshqa Striklend bo'lsa kerak.

- Sariq soqolli barvasta odam. Charlz Striklend. Ingliz.

- Men uchrashganimda soqol qo'ymagan edi, lekin endi soqol qo'ygan bo'lsa, ehtimol sariq soqollidir. Men bilgan Striklend rassomchilik bilan bor-yo'g'i besh yildan beri shug'ullanadi.

- Bu o'sha. U ulug' rassom.

- Bo'lmagan gap!

- Axir men biror marotaba bu to'g'rida xato qilganmanmi? - so'radi Dirk. - Aytyapman-ku senga, u dahol, deb. Men bunga shubha qilmayman. Agar yuz yildan keyin sen bilan meni kimdir eslasa, faqat Charlz Striklend bilan tanish bo'lganligimiz tufayligina eslaydi.

Men hayratda qoldim va nihoyatda hayajonlanib ketdim. To'satdan xayolimga Striklend bilan oxirgi gaplashganimiz keldi.

- Uning asarlarini ko'rsa bo'ladimi? Rasmlari muvaffaqiyat qozonayaptimi? Qayerda yashaydi u?

- Yo'q. Asarlari muvaffaqiyat qozonayotgani yo'q. O'ylaymanki, u hali birorta rasmini ham sota olgani yo'q. Kimga bu asarlar to'g'risida gapirsang kuladi, xolos. Lekin men uning ulug' rassomligini bilaman. Axir bir vaqtlar Mone ustidan ham kulishgan-ku. Koro hayot vaqtida birorta asarini pullay olmagan. Men Striklend yashaydigan manzilni bilmayman, lekin u bilan uchrashuvni tashkil qilishim mumkin. U har oqshom soat yettilarda Klishi ko'chasiidagi qahvaxonaga keladi. Biz ertaga o'sha joyga borishimiz mumkin.

U meni ko'rishni istashiga unchalik ishonmayman. Men unga butunlay unutishni istayotgan narsalarini yodiga tushiraman. Lekin, shunday bo'lsa-da, baribir boraman. Uning asarlarini ko'rish mumkinmi?

- Yo'q. U senga hech narsa ko'rsatmaydi. Biroq men Striklendning ikki yoki uchta rasmi bor savdogarni bilaman. Lekin sen u yerga mensiz bora ko'rma: baribir, hech narsa tushunmaysan. Ularni senga o'zim ko'rsataman.

- Dirk, sen mening achchig'imni keltiryapsan! - xitob qildi Struve xonim. - Shuncha gaplardan keyin nega uning rasmlarini ko'klarga ko'tarib maqtayapsan o'zi? - Xonim men tomonga o'girildi: - Bilasizmi, bir kuni Gollandiyadan kelgan qandaydir odamlar Dirkning rasmlarini sotib olish uchun biznikiga kelishganida, erim tushmagur, ularni Striklend rasmlarini sotib olganingiz ma'qul, deb yo'ldan ursa bo'ladimi!

- Siz uning rasmlari to'g'risida qanday fikrdasiz? - kulimsirab so'radim xonimdan.

- O'taketgan tuturiqsiz.

- Eh, mening quvonchim, sen hech narsa tushunmaysan.

- Nega bo'lmasa gollandlarning sendan achchig'lanishdi. Sen ularni mazax qilayapsan degan fikrga kelishdi.

Dirk Struve ko'zoynagini olib hafsala bilan artdi. Azbaroyi hayajonlanganidan yuzlari qizarib ketdi.

- Nahotki, seningcha, dunyodagi eng qimmatbaho narsa - go'zallik xohlagan yo'lovchi ko'tarib ketaverishi mumkin bo'laveradigan dengiz qirg'og'idagi tosh bo'lsa? Go'zallik g'aroyib va har kimga ham nasib etavermaydigan, san'atkor ahli og'ir ruhiy iztiroblar tufayligina dunyoga keltiradigan noyob hodisa. U kashf qilingandan keyin ham hammaning tishi unga o'tavermaydi. Go'zallik san'atkor bizga chalib beradigan kuy. Yuragimizda bu kuy aks-sado berishi uchun bilim, hissiyot, fantaziya kerak odamga.

- Nega men sening rasmlaringni ajoyib deb hisoblayman, Dirk? Ko'rishim bilanoq, ular meni o'zicha lol qilishgan.

Dirkning lablari bilinar-bilinmas titradi.

- Jonginam, yotib uxlay qol, men do'stimizni nariroqqacha kuzatib qo'yaman-u, darrov qaytib kelaman.

Yigirmanchi bob

Dirk Struve Striklend bo'lib turadigan qahvaxonaga olib borish uchun ertasiga kechqurun menikiga kirishga va'da berdi. Bu Parijga Striklend bilan gaplashish uchun kelganimda u bilan araq ichgan qahvaxona ekan. Uning bu yerda hamon bo'lib turishi, eski odatlariga sodiq qolganligini ko'rsatardi. Bu esa menga o'ziga xos holat bo'lib tuyuldi.

- Ana u, - dedi Struve, qahvaxonaga qadam qo'yishimiz bilanoq.

Oktabr oyi bo'lishiga qaramay, oqshom ancha iliq edi, shundoqqina yo'l ustiga qo'yilgan stollar atrofida anchagina odam o'tirardi. Men to'planganlarga birma-bir qarab chiqdim, lekin Striklendni topa olmadim.

- Ko'rmayapsanmi, huv ana, burchakda shaxmat o'ynab o'tiribdi. Shaxmat taxtasi ustiga engashib olgan kishiga ko'zim tushdi, lekin keng ayvonli shlyapasi va sarg'imgir soqolini ko'rdim, xolos. Stollar orasidan zo'rg'a o'tib, uning oldiga yaqinlashdik.

- Striklend!

- Nima deysan, baqaloq! Senga nima kerak?

- Men eski qadrdonimni boshlab keldim, u siz bilan ko'rishmoqchi.

Striklend yuzimga qarab qo'ydi, lekin tanimadi, shekilli, yana shaxmatga engashdi.

- O'tiringlar va shovqinlamanglar, - to'ng'illab qo'ydi u.

U piyodasini surdi va shu ondayoq o'yinga berilib ketdi. Bechora Struve xafa bo'lgannamo menga qarab qo'ydi, lekin men bunday arzimas ishlarga xafa bo'lib o'tirmadim. Men sharob buyurib, Striklend o'yinni tugatishini bamaylixotir kutib turdim. Men Striklendni kuzatib turish imkoniyati tug'ilganidan xursand edim. Lekin u men bilgan odam emasdi. Avvalo baroq va tartibga keltirilmagan sarg'imgir soqoli yuzining ancha qismini berkitib turardi, sochlari juda o'sib ketgandi. Lekin hammadan ham nihoyatda oriqlab ketganligi uni butunlay o'zgartirib yuborgandi. Shundoq ham katta burni avvalgidan ham oldinga osilib tushgan, yuzlari kirtayib, ko'zlari kattalashib ketgandi, tanasi skeletga o'xshardi. Besh yil avvalgi yirtiq-yamoq, hammayog'i dog'-dug', kiyilaverganidan obdon puturdan ketgan kamzuli badanida halvirab turardi. Tirnoqlari o'sib ketgan iflos qo'llariga uzoq tikilib turdim. Suyak va teridangina iborat bu qo'llar katta-katta, kuchli va chiroyli edi! Men o'yinga butkul berilib ketgan bu odamga qarab turarkanman, ochlikdan sillasi qurigan Striklendni qanday kuch ushlab turganiga hayron bo'lardim.

Striklend donani yurib, boshini ko'tardi-da, stulga suyangancha qayoqlargadir parishonxotir tikildi. Barvasta soqolli fransuz raqibi taxtadagi vaziyatni uzoq mulohaza qildi, so'ng beg'araz so'kinib, shaxmat donalarini taxtadan sidirib tashlab, qutichaga solib qo'ydi. Striklendni so'kib, ko'nglini bo'shatdi-da, ofitsiant bilan hisob-kitob qilib chiqib ketdi. Struve o'z stulini stolning yaqinrog'iga surdi.

- Xo'sh, biz endi gaplashishimiz mumkin, - dedi u.

Striklendning ko'zlari Struvega tahqiromuz tikilardi. U masxaralash uchun biror so'z topa olmayotgani tufayli jim turganini aniq sezayotgandim.

- Eski qadrdonimni siz bilan uchrashtirish uchun olib keldim, - dedi ko'zlari yonib Struve.

Striklend menga bir dam tikildi. Men indamay turaverdim.

- Uni biror marotaba bo'lsin ko'rmaganman, - dedi u nihoyat.

Nega bunday deganini tushunmadim-u, lekin meni ko'rganidagi yilt etgan uchqunga qarab meni tanigani shubhasiz edi. Lekin endi men bir necha yil avvalgiga o'xshab uyalib o'tirmadim.

- Yaqinda xotiningiz bilan gaplashgan edim, sizga u haqdagi eng keyingi yangiliklar qiziq bo'ladi deb ishonaman.

Striklendning ko'zlari porlab ketdi.

- Biz o'shanda oqshomni yaxshigina o'tkazgan edik, - dedi u. - Necha yil bo'ldi o'shanga?

- Besh yil.

U yana araq so'radi. Struve, biz qanday qilib uchrashib qolganimizni va gap orasida ikkalamiz ham Striklendni tanishimizni tasodifan bilib qolganimizni erinmay so'zlab berdi. Striklend uning gaplariga quloq solgan-solmaganini bilolmadim. Ikki marotaba menga parishonxotirlik bilan qarab qo'ydi, lekin ko'proq u o'z xayollari bilan band edi. Tabiiyki, Struve shunday valaqlab turmasa u bilan gapni davom ettirishim qiyin edi. Oradan yigirma daqiqalar o'tgach, golland soatiga qaradi-da, ketishi lozimligini aytdi. Mendan, birga ketamizmi, deb so'radi. Men tanho qolsak Striklenddan biror narsani bilib olarman deb o'ylab, qolishga qaror qildim.

Baqaloq ketgach, dedim:

- Dirk Struve sizni ulug' rassom deb hisoblayapti.

- Jin ursin, nega endi bu narsa meni qiziqtirishi kerak.

- Rasmlaringizni ko'rishga ruxsat etasizmi?

- Bu yana nimasi?

- Ehtimol, birortasini sotib olishni istarman.

- Ehtimol, men uni sotishni istamasman.

- Siz rasmlardan mo'maygina daromad qilayapsiz deyman? - dedim kulimsirab.

U to'ng'illab qo'ydi.

- Siz ko'rinishingizga qarab shunday deyapsizmi?

- Ko'rinishingiz obdon och qolgan odamning ko'rinishi.

- Xuddi shunday.

- U holda yuring, ketdik ovqatlanishga.

- Nega siz buni menga taklif etayapsiz?

- Harholda sizga achinganimdan emas, - sovuqqina javob berdim, - ochdan o'lib ketasizmi-yo'qmi, menga baribir.

Uning ko'zlari yana olovlanib ketdi.

- U holda ketdik. - U o'rnidan turdi.

- Yaxshilab ovqatlanish yomon narsa emas.

Yigirma birinchi bob

Qaysi restoranga olib borishni uning ixtiyoriga tashlab, yo'lda gazeta sotib oldim. Ovqat buyurganimizdan keyin gazetani ochib вЪНSen-Gal'm'евЪќ shishasiga tirab qo'ydim-da, o'qishga tushib ketdim. Biz indamay ovqatlanardik. Ahyon-ahyonda Striklend menga tikilayotganini sezardim, lekin o'zim boshimni ko'tarmasdim. Qanday qilib bo'lsa-da, uni gapga solishga urinardim.

- Gazetada biror qiziqroq narsa bor ekanmi? - so'radi indamay ovqatlanib bo'lganimizdan keyin.

Uning gap ohangida salgina achchig'lanish ma'nosini uqdim.

- Men teatr to'g'risida fel'etonlarni o'qishni yoqtiraman, - javob berdim gazetani buklarkanman.

- Maza qilib ovqatlandim, - dedi u.

- Qahvani ham shu yerda ichib qo'yaqolmaymizmi?

- Bo'ladi.

Biz bittadan sigara oldik. U indamay chekardi, menga qaraganda ko'zlarida kulgi jilolanayotganini sezardim. Men sabr-toqat bilan kutdim.

- O'tgan yillar mobaynida qanday ishlar bilan shug'ullandingiz? - so'radi u nihoyat.

O'zim haqimda nima deyishim mumkin edi? Bu og'ir mehnat va yoshlik ishtiyoqi, goh u, goh bu sohada o'z o'rnini topishga urinish, kitob va odamlarni anglashga doimiy intilish yillari bo'lgandi. Men uning ishlari, hayoti, shaxsiyatiga qiziqishim borligini zinhor sezdim. Va shu ishim nihoyat o'z samarasini berdi. U birinchi bo'lib gapirdi. Striklend so'zamol emasdi. Uzuq-yuluqroq bo'lsa-da, bosib o'tgan hayotiy yo'lini gapirib berdi, qolgan-qutgan joylarini tafakkurim yordamida to'ldirib oldim.

Hayotiga nihoyatda qiziqqan odaming o'zi haqida nihoyatda zerikarli hikoya qilib berganini eshitish juda azob ekan. Buni xunuk yozilgan va o'chinqirab qolgan qo'lyozmani o'qishga o'xshatish mumkin. Menga ayon bo'lishicha, uning butun hayoti turfa xil mashaqqatlar silsilasidan iborat. Lekin yana bir narsani aniq angladimki, ko'pchilik uchun nihoyatda dahshatli va fojiali holatlar unga zarracha ta'sir ko'rsata olmas, tashvishga solmas ekan. Atrofdagilardan Striklendni keskin ajratib turadigan narsa bashang va bamaylixotir hayot tarzi bilan chiqisha olmaslik, to'g'rirrog'i, nafrat ekan. U katalakdek, g'aribgina xonada xotirjam yashay olar, atrofini chiroyli narsalar bilan bezashga ham intilmasdi. Men ishonamanki, xona gulqog'ozlari nihoyat darajada ifloslanib ketganini ham sezmasdi. U yumshoq oromkursida emas, oshxona o'rindig'ida o'tirardi. U zo'r ishtiyoq bilan ovqatlanardi, lekin nima yeyishi ahamiyatsiz edi. Ovqat uning uchun ochlik tuyg'usini bartaraf etish vositasi hisoblanardi. Ovqat topishning iloji qolmaganda esa necha kunlab och yuraverardi. Keyingi yarim yil ichida esa yemagi kuniga faqat bir bo'lak non va bir shisha sutligini bilib oldim. Tabiatan ta'sirchan bo'lgan bu odam tuyg'ular uyg'otadigan barcha narsalarga tamomila befarq edi.

Yetishmovchilik unga azob bermasdi, hayratlanarli joyi shunda ediki, shunday hayot tarzini kechirayotib ham ruhan tetik edi. Londondan olib kelgan ozgina puli tugagandan keyin tushkunlikka berilmadi. Rasmlari sotilmasdi, menimcha, ularni sotishga ham unchalik intilmasdi, tirikchilik o'tkazishning boshqa yo'llarini axtarishga harakat qilardi. Hamma narsaga qiziquvchan londonliklarni tungi Parij hayoti bilan tanishtirish ishi bilan shug'ullanganligini istehzoli yumor bilan gapirib berdi. Bu mashg'ulot ma'lum darajada uning o'ziga ancha mos kelardi. Shu bahonada qandaydir yo'llar bilan u Parijning ko'pchilik nigohidan panadagi ko'chalarini miridan-sirigacha o'rganib oldi. Madlen ko'chasida soatlab yurib, qonun tomonidan taqiqlangan tomoshalarni ko'rishga ishqiboz, iloji boricha ichib olgan londonlik sayyohlarni qidirardi. Ba'zida Striklend mo'maygina pul ishlab topardi. Pirovardida, uning kiyim-kechagi shu qadar dabdalasi chiqib eskirib ketdiki, natijada, sayyohatchilarning aksariyatini bu juldur kiyimli yo'l boshlovchi bilan birga ketishga yuragi dov beravermasdi. Keyin yana omadi yurishib qoldi, ish topdi, Angliyaga yuboriladigan dori-darmonlarning reklamasini tarjima qilish bilan shug'ullandi. Bir kuni ishtashlashlar vaqtida bo'yoqchilik bilan ham shug'ullandi.

Lekin o'z san'atini ham tashlab qo'ymadi, faqat rassomlar studiyasiga borishni tark etib, yolg'iz o'zi ishlay boshladi. Mato va bo'yoqlar uchun pul topilardi, unga boshqa narsaning keragi yo'q edi. Bilishimcha, u juda qiyinchilik bilan ishlar ekan, biror odamdan yordam olishni istamay oldingi avlod vakillari tomonidan hal etilgan ba'zi texnik muammolarni ham o'zi yechishga ko'p vaqtini sarflardi. U nimagadir ehtiros bilan intilardi, lekin nimaga intilayotganini men bilmasdim, ehtimol, buni o'zi ham bilmasdi. Lekin qarshimda o'z yo'lidan qaytmaydigan shijoatli odam turganini his etardim. To'g'ri, u esi joyida odamga o'xshamasdi. Menga u o'z rasmlarini ko'rsatmaydiganday, bu rasmlar o'ziga ham yoqmaydiganday tuyulardi. U orzular olamida yashardi, real hayotning esa unga qizig'i yo'q edi. Butun ishtiyoqiyu ehtirosi bilan mehnat qilarkan, botiniy ko'zi bilan ko'rib turgan narsalaridan boshqa butun borliqni butkul unutardi. Keyin rasmni tugatar-tugatmas (nazarimda, u juda kamdan-kam holatlardagina asarini tugatardi) o'z asariga qiziqishi so'nardi-qolardi. Hech qachon qilgan ishidan ko'ngli to'lmasdi. Yaratgan asari ko'nglida ko'rib turganidan ko'ra xira va ahamiyatsizroq tuyulardi o'ziga.

- Nega asarlaringizni ko'rgazmaga qo'ymaysiz? - so'radim undan. - Nahotki, boshqa odamlarning fikrini bilishga qiziqmasangiz?

- Qiziquvchan emasman.

Bu so'zlaridan nafrat ohanglarini sezish qiyin emasdi.

- Axir siz shuhrat to'g'risida o'ylamaysizmi? Bu tuyg'udan biror rassom zoti begona emas-ku.

- Bolalarcha go'llik bu! Agar boshqa biror odamning fikrini sariq chaqaga olmaydigan bo'lsang, olomonning fikridan ne foyda?

Men kuldim:

- Hamma ham bunday mulohaza yuritavermaydi!

- Kim shuhrat keltiradi? Tanqidchilar, yozuvchilar, birja dallollari, ayollar.

Umringda sen ko'rmagan, seni mutlaqo tanimaydigan odamlar qo'llaring bilan yaratgan mo'jizani ko'rib hayajonlanishlari, o'zlarini qo'yarga joy topolmay qolishlarini ko'rish g'oyat lazzatli bo'lsa kerak. Shuhrat kimga yoqmaydi? Odamlar yuragida qo'rquv va iztiroblar uyg'otadigan tuyg'udan ko'ra shuhrat afzalroq bo'lsa ne ajab?

- Shunchaki bir gap.

- Axir sizga yaxshi yoki yomon rasm chizishingiz baribir emas-ku?

- Baribir. Men uchun eng muhimi - ko'nglim ko'rib turgan narsamni chizish.

- Masalan, men esa inson qadami yetmagan orolda men qilgan ishni o'zimdan boshqa hech kim ko'rmaydi, degan ishonch bilan ishlay olishimga shubha qilaman.

Striklend anchagacha jim turdi, lekin uning ko'zlari xuddi yuragini hayajonga to'ldirgan qandaydir narsani ko'rayotganday yonib turardi.

- Men gohida behudud dengiz kengliklari orasida qolib ketgan orolni ko'raman; o'sha yerdagi kishilar nigohidan uzoqdagi vodiya, menga tamomila notanish daraxtlar orasida tinchgina yashardim. O'sha yerda qidirgan narsalarimni topa olardim, deb o'ylayman.

U risoladagidek gapira olmasdi. Sifatlovchi so'zlar o'rniga qo'l harakatlarini ishlatar, tez-tez tutilib qolardi. Nazarimda, u aytmoqchi bo'lib turgan fikrni o'z so'zlarim bilan ifodalashga urindim.

So'nggi yillarga nazar tashlab, qilayotgan ishlaringiz sarson-sargardonliklaringizga arziydi, deb o'ylaysizmi?

Nimani ko'zda tutayotganimni tushunmay, menga qarab qo'ydi. Men tushuntirdim.

- Siz tinchgina uyingiz va baxtli desa bo'ladigan hayotingizdan voz kechib ketdingiz. Siz o'ziga to'q odam edingiz. Bu yerda, Parijda g'aribona hayot kechiryapsiz. Agar hayotni qaytadan boshlash imkoni bo'lganda yana shu ishni qaytargan bo'larmidingiz?

- Albatta.

- Bilasizmi, siz o'z xotiningiz va bolalaringiz haqida mendan sira so'raganingiz yo'q. Nahotki, ular to'g'risida sira o'ylamasangiz?

- Yo'q.

- Savollarimga bu qadar qisqa, javob qaytarmasangiz afzalroq bo'larmidi. Lekin siz ularga yetkazgan azoblaringiz, iztiroblaringiz uchun ba'zida vijdoningiz qiynaladi-ku?

Striklend yayrab kuldi va boshini sarak-sarak qilib qo'ydi.

- Nazarimda, siz vaqt-vaqti bilan o'tmish haqida o'ylasangiz kerak. Yetti yoki sakkiz yil oldingi voqealarni emas, ancha oldingi, xotiningiz bilan ilk uchrashuvlaringiz, sevib qolganingiz, uylanganingiz haqida o'ylarsiz. Nahotki, siz uni birinchi marotaba quchog'ingizga olgandagi quvonchni unutgan bo'lsangiz?

- Men o'tmish to'g'risida o'ylamayman. Faqat bugungi kungina ahamiyatga ega bo'ladi.

Men bir daqiqa xayol surib qoldim. Javob mujmal edi, lekin shunga qaramay, nazarimda, aytayotgan gapining ma'nosini salgina uqqanday bo'ldim.

- Siz baxtlimisiz? - so'radim undan.

- Ha.

Men xayol surganimcha jimgina turardim. U ham nigohimga bardosh berdi, keyin ko'zlarida istehzoli uchqun alangalandi.

- Ishlarim yomon, ehtimol, siz meni qoralarsiz?

- Bema'ni gap, - so'zini keskin bo'ldim, - hayvon o'rgatuvchining xavfli ilon bilan o'ynashishini qoralab bo'lmaydi. Zero, uning psixikasini o'rganish, shubhasiz, qiziqish uyg'otadi.

- Demak, siz men bilan faqat yozuvchi sifatida qiziqayotgan ekansiz-da?

- Ha, faqat yozuvchi sifatida.

- Unday bo'lsa meni qoralashingiz mumkin emas ekan. O'zingiz ham farishta emassiz!

- Ehtimol, shuning uchun ham men bilan gaplashganingizda o'zingizni bemalol tutyapsiz.

U jilmayib qo'ydi-yu, hech narsa demadi. Afsuski, men uning kulishini tasvirlay olmayman. Bu yoqimtoy kulgi emasdi, lekin bu kulgisi tufayli yuzlari yorishib ketdi, odatdagiday, badqovoq emas, istehzoli - ayyorona ma'no kasb etdi. Shuningdek, bu asta-sekinlik bilan ko'zlarining burchagidan boshlanadigan, ehtimolki, tugallanadigan qandaydir noinsoniy kulgi edi. Bu kulgi meni so'rashga majbur etdi.

- Siz bu yerda, Parijda birortasini sevib qolmadingizmi?

- Bunday bema'ni ishlarga vaqtim bo'lgani yo'q. Hayot judayam qisqa narsa, ham san'at, ham sevgiga vaqt yetmaydi.

- Siz go'shanishin odamga o'xshamaysiz?

- Bularning barchasi men uchun yoqimsiz.

- Inson zoti shunaqa yaratilgan.

- Nega ustimdan kulyapsiz?

- Chunki men sizga ishonmayman.

- U holda siz to'qim tabiat ekansiz.

Men unga sinovchan tikilganimcha jim turaverdim.

- Men bilan maynavozchilik o'ynashingizdan nima foyda? - dedim nihoyat.

- Tushunmayapman

Men kulib yubordim.

- Hozir tushuntiraman. Mana siz oylab hech narsa haqida o'ylamaysiz va bu bilan hammasini bir umrga unutdim deb o'ylaysiz. Siz erkinlikdan lazzatlanayapsiz va endilikda qalbim faqat o'zimga tegishli deb o'ylayapsiz. Xuddi boshingiz yulduzlarga tegib turgandek tuyuladi sizga. Keyinroq esa kutilmaganda bunday hayotga bardosh bera olmasligingizni, oyoqlaringiz yerdan ko'tarilmay doimo balchiq ichida turganini his etasiz. Bu botqoqlik sizni ham o'z domiga tortmoqchi bo'ladi. Siz birorta satang, tagi past, hayvonsifat ayolga duch kelasiz. Ayol zotining barcha eng yaramas tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan bu ayolga yovvoyi hayvondek tashlanasiz. Uning bag'rida taskin topasiz, junbushingiz ko'zingizni ko'r qilib qo'yadi.

U menga tikilib turardi, bu gaplar zarracha ta'sir etmadi. Men undan ko'zimni uzmasdim va g'oyat ohista gapirardim.

- Yana bir narsa: bularning barchasi o'tib ketgach, siz kutilmaganda o'zingizni favqulodda pokdomon his etasiz, tanasiz ruh hisoblaysiz o'zingizni. Bamisoli shamol, daraxtlar, daryo suvlari bilan qo'shilib, birlashib ketganday bo'lasiz. O'zingizni xudo deb fahmlaysiz. Shu narsani tushuntirib bera olasizmi?

Gapimni tugatmaguncha mendan ko'zini uzmadim. Uning yuzida g'alati ma'no zuhurlanib qoldi. Bunday qiyofa qiynoqlar natijasida o'lib ketgan odamning yuzida bo'lishi mumkin, deb o'yladim ichimda. Striklend miq etmasdi. Men suhbatimiz poyoniga yetganini angladim.

Yigirma ikkinchi bob

Parijda o'rnashib olganimdan keyin pyesa yozishga boshladim. Bir maromda hayot kechirardim, ertalablari ishlardim, kunduzlari Lyuksemburg bog'ida sayr etar yo bo'lmasa, ko'chalarda kezardim. Jahondagi eng yaxshi rasmlar galereyasi, ko'rganingda doimo o'yga toldiradigan Luvrda soatlab vaqtimni o'tkazardim, daryo sohili bo'ylab sotish uchun yoyilgan eski kitoblarni varaqlardim. Men bu kitoblarni sotib olishni mo'ljallamasdim. Goh u joyda, goh bu joyda ko'rayotgan kitoblarimdan biror sahifasini o'qirdim va yana nariroqdagi kitoblar oldida paydo bo'lardim. Shunday qilib juda ko'p kitoblar bilan tanishib chiqardim, ularni batafsilroq o'qishni esa istamasdim. Oqshomlari do'stlarimnikiga borardim. Struvelarnikiga tez-tez kirib turardim, gohida ularning kamtarona kechki ovqatlariga sherik bo'lardim. Dirk Struve ital'yan ovqatlarini tayyorlashdagi pazandaligi bilan maqtanardi. Darhaqiqat, aytish kerakki, uning ital'yancha makaronli ovqati rasmlariga qaraganda durustroq chiqardi. Pomidor sharbatiga obdon to'ydirilgan makaronli ovqatni katta taboqda keltirilib, ajoyib uy noni va qizil vino bilan tanovul qilganimizda shohona bazmda o'tirgandek his etardik o'zimizni. Men Blansh Struveni yaqindan bilib oldim. Ingliz bo'lganim, u esa o'z vatandoshlari bilan juda kam uchrashganligi tufayli, chamasi, mening har bir kelishim unga quvonch bag'ishlardim. U xushmuomala, soddadil edi. Kam gapirsa ham uning fazilatlarini yaqqol ko'zga tashlanardi. Negaligini bilmayman-u, lekin uning ko'nglida qandaydir sir yashiringanday

tuyulardi menga. Ehtimol, erining ezma va bir qop yong'oqligi oldida tabiatan bosiqlik uchun shunday tuyulayotgandir. Dirk hamma narsani valaqalayverardi. Hatto intim masalalarni ham uyalmay-netmay muhokama qilaverardi. Xotini bunday paytlarda mushtar bo'lardi, lekin faqat bir marotaba eri qanday qilib surgu dori ichganini uzoq, butun tafsilotlari bilan hikoya qilganida o'zini tutib turolmadi. O'z ko'rgiliklarini tamomila jiddiy tarzda so'zlab berishidan o'zimni to'xtatib turolmadim, rosa kuldim. Struve xonimning esa joni chiqib ketdi.

- O'zini ahmoq qilib ko'rsatish nima uchun zarur bo'lib qoldiykin-a! - qichqirdi u.

Xotining jahli chiqib ketganini ko'rganda ko'zlari yanada kattaroq ochildi, mo'ylabi qimirladi.

- Jonginam, xafa bo'ldingmi? Bundan keyin hech qachon surgu dori ichmayman. Safro o'ynab ketganidan bo'lsa kerak. Ishim bir joyda o'tirib qilinadigan ish-da. Ko'proq harakat qilishim kerak. Axir uch kungacha ichimdan...

- Xudo xayringni bergur, og'zingni yumsang-chi, - erining gapini bo'ldi xotin ko'zlariga yosh kelib.

Struvening afti burishdi, jazolangan boladay lablarini cho'chchaytirdi. U yordamga chaqirganday yalingannamo menga qarab qo'ydi, lekin men o'zimni tutolmay hamon kulardim.

Bir kuni Struvening so'zlariga qaraganda Striklendning ikki yoki uch rasmi bo'lgan savdogarnikiga kirdik. Lekin uy egasi Striklend yaqinda bu rasmlarni qaytarib olganini aytdi. Negaligi noma'lum.

- To'g'risini aytsam, men bundan unchalik xafa emasman. Men ularni faqat janob Struvega hurmatim tufayligina olgandim, iloji bo'lsa sotishga va'da bergandim. - U yelkasini qisdi. - Men, albatta, yosh rassomlarni qo'llab-quvvatlab turaman. Lekin bu yerda masala boshqacharoq. O'zingiz bilasiz, uning talanti sariq chaqaga arzimaydi.

- Men sizga halol bir gapni aytib qo'yayki, hozirgi vaqtda unga teng keladigan rassom yo'q. So'zlarim esingizda tursin, siz mo'may daromad oladigan imkoniyatdan mahrum bo'lyapsiz. Shunday vaqtlar keladiki, bu rasmlar do'koningizdagi barcha rasmlardan ortiqroq baholanadi. O'z asarlarini yuz frankka ham sota olmagan Moneni eslang. Endilikda ular qancha turadi?

- To'g'ri. Lekin Monedan yomon bo'lmagan o'nlab rassomlar hamon o'z rasmlarini sotisha olmayapti. Ular hozir ham arziydigan pul turmaydi. Buni qanday bilib bo'ladi? Axir muvaffaqiyat xizmatiga qarab keladimi? Bema'ni gap. Buning ustiga sizning oshnangiz muvaffaqiyat qozona oladimi-yo'qmi, buni isbotlamoq kerak. Janob Struve, sizdan boshqa hech kim bunday fikrda emas.

- U holda, sizningcha, bunday sharaftga kim munosib? - so'radi Dirk g'azabdan qizarib. - Fikri tor odam ekansiz!

- Siz o'tmishda ulug' rassomlar Rafael', Mikelanjelo, Engr, Dela-Krualarni eslab ko'ring - ularning barchasi o'z davrida dovrug' qozonishgan.

- Ketdik, - Struve menga murojaat etdi, - aks holda men uni o'ldirib qo'yaman.

Yigirma uchinchi bob

Men Striklendni tez-tez ko'rib turardim va ahyon-ahyonda u bilan shaxmat ham o'ynardim. Uning fe'liga tushunib bo'lmasdi. Goh parishonxotir bir alpozda, hech kimga e'tibor bermay burchakda o'tirar, yaxshi kayfiyatda vaqtida esa uzuq-yuluq va tutilib nimalarnidir gapira boshlardi. Men undan biror marta bo'lsin arziydiganroq bama'ni gap eshitmaganman, lekin uning dahshatli kinoyalari gohida juda qiziqarli bo'lardi. Striklend faqat o'zi o'ylagan narsasining gapirardi. Odamlarning izzat-nafsigaga tegish uning uchun hech narsa emasdi, bundan xafa bo'lishganda esa faqat kular, xursand bo'lardi. Masalan, u gohida Dirk Struveni haqoratlovchi shu qadar achchiq so'zlar aytardiki, bechora umrbod uchrashmaslikka qasam ichib, bu yerdan uzoqlashardi. Lekin Striklendning zabardast siymosi baqaloq gollandni o'ziga tortaverar, shu bois gunoh ish qilib qo'ygan kuchukchadek yana uning yoniga kelaverardi. Holbuki, u yana haqoratlanishini yaxshi bilar va bundan juda qo'rqardi.

Negaligini bilmadim-u, Striklend men bilan ishtiyok-la gaplashardi. Bizning munosabatlarimiz o'ziga xos edi. Bir kuni u mendan ellik frank qarz so'radi.

- Bo'lmaydi, - javob berdim unga.

- Nega?

- Ne sababdan sizga qarz berib turishim kerak ekan?

- Hozir juda qiynalib qoldim.

- Buning menga qizig'i yo'q.

- Ochlikdan o'lib ketsam ham sizga baribirmi?

- Bu bilan mening nima ishim bor? - so'radim o'z navbatida.

Bir-ikki daqiqa baroq soqolini tortqilagancha menga tikilib qoldi. Men kuldim.

- Nima kulgingizni qistatyapti o'zi, bilishni xohlardim? - Ko'zlari g'azabkor yonardi.

- Nahotki, siz shunchalik soddasiz? Axir siz hech qanday majburiyatni tan olmaysiz, shuning uchun ham sizga hech kim hech narsaga majbur emas.

- Hozir borib o'zimni osib qo'ysam nima qilasiz? Xona haqini to'lashga sariq chaqa ham yo'q, uy egasi ko'chaga haydab chiqarishi mumkin.

- Tupurdim, menga nima.

U pishqirib qo'ydi.

- Manmanlik bu! Men shunday qilsam, baribir, vijdoningiz qiynaladi.

- Shunday qilib ko'ring. Keyin bir gap bo'lar, - javob berdim men.

Ko'zlariga bilinar-bilinmas tabassum yugurib, qolgan arag'ini jimgina ichib qo'ydi.

- Shaxmat o'ynamaymizmi? - taklif qildim unga.

- Mayli.

Shaxmat donalarini terib bo'lganimizda u taxtaga mamnun tikilib qoldi. Askarlaring jangga tayyorligini ko'rish maroqli edi.

- Siz rostdan ham qarzga pul berib turadi, deb o'yladingizmi?

- Nega bermas ekansiz?

- Siz meni hayron qoldiryapsiz va xafa qilyapsiz!

- Nega?

- Ma'lum bo'lishicha, siz botinan sentimental odam ekansiz. Hissiyotlarimga ta'sir ko'rsatadigan bunday yo'ldan foydalanmasangiz yaxshi bo'lardi.

- Agar shu gaplarga rahmdillik qilsangiz, sizni jinimdan yomon ko'rgan bo'lardim.

- Shunday bo'lgani ma'qul, - kuldim men.

Biz dastlabki yurishlarni qilganimizdan keyin o'yinga berilib ketdik. O'yin tamom bo'lgach, unga aytdim: agar shu qadar nochor ahvolda bo'lsangiz rasmlaringizni menga ko'rsating. Ehtimol, ulardan birortasi ma'qul kelsa sotib olarman.

- Tuyog'ingizni shiqillatib qoling, - gapimni bo'ldi u.

U o'rnidan turib, eshik tomon yura boshladi. Men uni istehzoli kulgi bilan to'xtatdim.

- Araqning pulini to'lashni unutingiz, shekilli!

U meni so'kdi, jahl bilan stol ustiga tanga pul tashlab chiqib ketdi.

Shundan keyin bir necha kun mobaynida men uni uchratmadim. Lekin kunlarning birida, qahvaxonada gazeta o'qib o'tirgan paytimda kirib keldi-da, yonimga o'tirdi.

- Ko'rib turishimcha, o'zingizni osmabsiz, shekilli, - kinoya qildim.

- Yo'q, men buyurtma oldim. Ikki yuz frankka kekxa tunukasozning portretini ishlayapman.

- Bu buyurtmani qanday topdingiz?

- Men bulka sotib oladigan bulkapaz ayol tavsiya etibdi unga. Tunukasoz o'z portretini ishlab beradigan odam qidirib yurganini aytgan ekan. O'rtada turgani uchun unga yigirma frank berishga to'g'ri keldi.

- Tunukasoz qanday ko'rinishdagi odam ekan?

- Portret uchun juda mos ekan. Yuzi qizil, semiz qo'yning soniday yog'liq, yiltillaydi, o'ng yuzida kattakon tukli so'gali ham bor. Striklendning dimog'i chog' edi, Dirk Struve davramizga kelib qo'shilganda yana unga yopisha ketdi. Kutilmagan epchillik bilan sho'ri qurg'ur gollandning zaif joylarini topib, oldingiday zaharxanda kinoyalar qilishi bilan emas, bo'ralab so'kib, surobini to'g'ri qilish. Bu hujum shu qadar kutilmaganda ro'y berdiki, bechora Struve bo'ridan qochmoqchi bo'lgan qo'ydek o'zini qayoqqa qo'yishni bilmasdi. Vaziyatdan qanday chiqishini bilmagan gollandning ko'zlariga pirovardida yosh keldi. Lekin eng yomon tomoni shunda ediki, bu yoqimsiz manzaraning guvohi bo'lgan har bir odam ham garchi Striklendga nafrat bilan qarasa-da, kulgidan o'zini to'xtata olmasdi. Dirk Struve eng nozik tuyg'ulari ham beixtiyor kulgi uyg'otadigan baxtsiz odamlar toifasiga kirardi.

Lekin nima bo'lganda ham mening o'sha qishda Parijda o'tkazgan kunlarimdan eng yoqimlilari Dirk Struve bilan bog'liq. Uning kamtarona oilaviy o'chog'i kishini o'ziga maftun etardi. Er-xotinning munosabati yurakka xushnudlik baxsh etardi, Dirkning xotiniga nisbatan beg'ubor va bolalarcha sevgisi g'amxo'rona nazokat bilan yo'g'rilgandi. Jo'shqinligining beso'naqay samimiyligi beixtiyor muhabbat uyg'otardi. Xotini erining sevgisiga qanday javob berishi lozimligini tushunganim holda ayol ham eriga qizg'in bog'lanib qolganini ko'rib xursand bo'lardim. Agar ayolda yumor tuyg'usi bo'lsa, o'ylardim men, erining haddan tashqari unga sajda qilishidan zavqlanib kulgan bo'lardi. Lekin kulgan taqdirda ham bu e'tibordan ta'sirlanmasligi va mamnun bo'lmasligi mumkin emas. Dirk - umr bo'yi faqat xotinini sevadigan toifadan, xotini keksayib, butun tarovatini yo'qotgan taqdirda ham uning uchun dunyodagi eng yosh va eng go'zal ayol bo'lib qoladi. Bu er-xotinlarning turmush tarzi bir me'yorda va osoyishta davom etishi bilan ajralib turardi. Ularning uylarida ustaxonadan tashqari yotoqxonayu kichkinagina oshxona bor edi, xolos. Struve xonim barcha uy yumushlarini faqat o'z qo'llari bilan bajarar, bozorga borar, pishirib-kuydirar, narsa to'qir, xullas, xuddi chumolidek kechgacha tinim bilmasdi. Kechqurun yana to'qishga tushar, ustaxonada o'tirib olganicha Dirkning royal chalishini eshitardi. U royalni durustgina chalar, lekin chalayotgan musiqasiga hissiyotlarini haddan tashqari ko'p sarflardi. Bu ijroda uning sevgi bilan to'lib-toshgan ta'sirchan va olijanob qalbi kuylanardi.

Ularning hayoti tinch va osoyishta edi. Dirk Struve bilan bog'liq g'alatilik bularning butun hayot tarziga o'z muhrini bosgandi.

Yigirma to'rtinchi bob

Rojdestvo bayramiga bir necha kun qolganida Dirk Struve bayramni birgalikda kutib olishga taklif qilib kelibdi. Bayram arafalari unda doimo nozik his-tuyg'ular uyg'otar va bunaqa paytlarda do'stlar davrasida bo'lishni, bayramni butun qonun-qoidalarini o'rniga qo'ygan holda kutib olishni yoqtirardi. Har ikkalamiz Striklendni ko'rmaganimizga bir oylar bo'lgandi. Men bir necha muddatga Parijni tomosha qilish uchun kelishgan do'stlarim bilan ovora edim. Struve esa har qachondagidan ko'ra qattiqroq xafa bo'lgan va shu boisdan endi hech qachon uning yoniga yaqinlashmaslikka o'ziga o'zi o'z bergandi. Striklend - yaramas odam, endi uning qorasi o'chsin, degandi. Lekin yaqinlashib kelayotgan bayramlar uning qalbini olijanob tuyg'ularga g'arq etdi, Striklend rojdestvoni tanholikda o'tkazishini eslab yuragi orziqdi. Struveday odam do'stlar bayram stoli atrofida to'planishadigan kunda Striklendning tanholikda, g'amgin xayollarga g'arq bo'lgan holda o'tirishiga chiday olmasdi.

Dirk o'z ustaxonasiga bayram archasini o'rnatdi. Men archaning yasatilgan shoxlariga har birimiz uchun uncha munosib bo'lmagan turli sovg'alarni osib qo'yganini ko'z oldimga keltirdim. Struve Striklend bilan uchrashishga ich-ichidan qo'rqib turganini sezdim. O'zini shunchalik haqoratlagan odamni osongina kechirib, oldiga bosh egib borish g'oyatda tahqirli ekanligini bilgani holda meni yarashish sahnasida guvoh bo'lishimni istardi.

Ikkalamiz Klishi ko'chasiga yo'lga tushdik, lekin Striklend qahvaxonada yo'q ekan. Ko'chada poylash sovuqlik qilardi. Shu bois sigaralar tutunidan zalning havosi dimiqib va buzilib ketishiga qaramay, charm divanga o'rnashdik. Striklend ko'rinmasdi, bir ozdan keyin Striklend gohida shaxmat o'ynaydigan fransuz rassomini ko'rib qoldik. Uni yonimizga chaqirdim, rassom bizga kelib qo'shildi. Struve undan Striklendni qachon ko'rganligini so'radi.

- Striklend kasal,- javob berdi rassom, - sizlar bilmasmidilaring?

- Jiddiy kasalmi?

- Bilishimcha, judayam jiddiy.

Struvening rangi oqarib ketdi.

- Nega menga bu haqda xabar bermadi? U bilan aytishib qolgan men ahmoqman, o'zi. Hoziroq uning oldiga borish kerak. Hech kim unga qaramayotgan bo'lsa kerak. U qayerda turadi?

- Xabarim yo'q, - javob berdi fransuz.

Ma'lum bo'lishicha, hech qaysimiz Striklend turadigan joyni bilmas ekanmiz. Dirkning jahli chiqib ketdi.

- U o'lib qolishi va buni hech kim sezmasligi mumkin. Dahshat! Buni o'ylashning o'zi qo'rqinchli! Biz darhol uni qidirib topmog'imiz kerak.

Men Struvega Parijday shaharda biror odamni tavakkal qilib qidirish ma'nosiz ekanligini tushuntirmoqchi bo'ldim. Avvalo qanday harakat qilish rejasini ishlab chiqmog'imiz kerak.

- Judayam yaxshi! U esa o'lim to'shagida yotgan bo'lishi mumkin, biz qidirib topganimizda esa kech bo'ladi.

- Jim tursang-chi, o'ylagani qo'lasanmi?! - baqirib berdim unga.

Menga faqat bir manzil - в Ёль Оtel' de bel'jв Ёk mehmonxonasi ma'lum edi, lekin Striklend allaqachon u yerdan chiqib ketgan ekan. Shu tufayli u yerdagilar Striklendni eslashmasa kerak. Agar o'z manzilini atayin yashirib yurishini e'tiborga oladigan bo'lsak, uni qidirib topishga, mehmonxona nazoratchisiga manzilini qoldirganligiga hech qanday ishonch yo'q edi. Buning ustiga, oradan besh yildan ortiqroq vaqt o'tgan edi. Lekin u hamon shu qahvaxonaga kelib turar ekan, yaqinroqdagi biror joyda yashab turgani ehtimoldan xoli emasdi.

Shunda to'satdan portret chizish uchun buyurtmani Striklend non sotib oladigan shirin kulcha pishiruvchi ayol orqali amalga oshirganini aytgani esimga tushdi. Uning yashaydigan joyini, ehtimol, shu ayol orqali toparmiz. Men ma'lumotnomalar kitobidan novvoyxonalarini qidira boshladim. Yaqin atrofda beshta novvoyxona bor ekan, barchasini aylanib chiqishga to'g'ri keldi. Struve istar-istamas orqamdan ergash'di. Uning o'z rejasi bo'lib, Klishi ko'chasiga tutashadigan barcha tor ko'chalarni aylanib, odamlardan Striklend shu yerda turish-turmasligini surishtirish edi. Mening soddagina rejam o'zini oqladi, ikkinchi bulkaxonaga borganimizdayoq peshtaxta ortida turgan ayol Striklendni tanishini bildirdi. U faqat qarshidagi uchta uyning qay birida yashashini aniq bilmasligini aytdi. Lekin bizni zafar quchdi, biz so'ragan birinchi uy nazoratchisi Striklendning xonasi eng yuqori qavatda ekanligini aytdi.

- U, chamasi, kasal, - gap boshladi Dirk.

- Hammasi bo'lishi mumkin, - beparvo javob berdi uy nazoratchisi. - Haqiqatan ham men uni bir necha kundan beri ko'rmayapman.

Struve zinapoyadan mendan oldin zipillab chiqib ketdi. Men nihoyat yuqori qavatga chiqib borganimda u eshikni ochgan kamzulli qandaydir ishchi bilan gaplashib turardi. Ishchi qo'shnisining eshigini taqillatishlari kerakligini, bu uying egasi haqiqatan rassomligini, lekin bir haftadan beri ko'rinmayotganini aytdi. Struve eshikni taqillatish uchun endigina qo'lini uzatayotganda to'satdan to'xtadi-da, g'amguzor yuzini men tomon o'girdi.

- O'lib qolgan bo'lsa-chi?

- Striklend o'lmaydiganlar xilidan.

Men eshikni taqillatdim. Javob bo'lmadi. Men eshik dastasini buradim, eshik qulflanmagan ekan. Biz uyga kirdik, oldinda men, orqada Struve edi. Xona qorong'i bo'lib, qiya oyna tomla boloxona ekan. Tepadan tushib turgan xira nurgina uyni salgina yoritib turardi.

- Striklend! - deb chaqirdim.

Javob bo'lmadi. Endi bu narsa menga ham g'alati tuyuldi, orqamda turgan Struve xuddi bezgak tutayotgandek titrardi. Men chiroqni yoqishga jur'at eta olmasdim. Burchakdagi karavot elas-elas ko'zga tashlandi, g'alati bo'lib ketdim: chiroq yoqilguday bo'lsa, karavotda yotgan jonsiz jasadga ko'zimiz tushib qolsa-ya!

- Gugurtlaring yo'qmi, tentaklar?

Qorong'ilik ichidan Striklendning qo'pol ovozi eshitib, titrab ketdim.

- Ey, xudoyim! - qichqirib yubordi Struve. - Men sizni o'lib qoldi, deb o'ylabman.

Men gugurtni yoqib, sham topish ilinjida u yoq-bu yoqqa razm soldim. Torgina bu xona ham yotoqxona, ham ustaxona vazifasini bajararkan. Unda karavot, ramkaga solingan, rasm chizishga mo'ljallangan matolar devor tomonga qarab qo'yilgandi, ramka qo'yiladigan moslama, stol va stul bor edi. Hech qanday gilam ham, kamin o'choq ham ko'rinmasdi. Stol ustidagi bo'yoqlar, kurakchalar, axlatga tashlasa bo'ladigan turli buyumlar orasida sham qoldig'i ko'zga tashlandi. Men uni yoqdim. Karavot kalta bo'lgani uchun, Striklend juda g'alati alfozda, g'ujanak bo'lib, ustiga bor kiyim-kechaklarini tashlaganicha yotardi. Birinchi ko'rgandayoq isitmasi balandligini sezish qiyin emasdi. Struve uning yoniga shoshildi, azbaroyi ta'sirlanib ketganidan titroq ovoz bilan ming'irladi.

- Ey, bechora do'stim, sizga ne bo'ldi? Kasal bo'lib qolganligingizdan mutlaqo bexabar ekanman. Nega menga xabar bermadingiz? Siz uchun har narsaga tayyorligimni bilasiz-ku, axir. O'shanda men sizga aytgan gapimni o'ylab o'tirmang. Men nohaq edim.

Sizdan xafa bo'lganligim, tentakligim, xolos...

- Yo'qollaring, - tahdid qildi Striklend.

- Esingizni yig'ib oling. Sizni o'rnatibiroq yotqizib qo'yishga ijozat eting. Nahotki, bu yerda sizga qarab turadigan biror odam topilmasa?

U sarosima ichida faqirona chordoqqa qaradi. Choyshab va yostig'ini tuzatdi. Striklend og'ir nafas olar, o'qrayib qaraganicha miq etmasdi. Keyin men tomonga qahrli nigoh tashladi. Men bamaylixotir turardim, o'z navbatida men ham unga tikildim.

- Agar men uchun biror narsa qilmoqchi bo'lsangizlar, sut olib kelinglar, - dedi nihoyat u. - Ikki kundan beri xonadan tashqariga chiqmayapman.

Karavot yonida bo'sh sut shishasi yotardi, non qoldiqlari gazeta parchasiga o'ralgandi.

- Shu vaqt ichida nima yedingiz? - so'radim undan.

- Hech narsa.

- Shuncha vaqtdan beri-ya? - qichqirib yubordi Struve. - Nahotki siz ikki kundan beri biror narsa yemay va ichmay yotibsiz?

Dahshat-ku!

- Suv ichdim.

Uning ko'zlari karavotdan qo'l uzatsa yetadigan joydagi kattakon finjonga qadaldi.

- Hozir chopqillab borib ovqat olib kelaman, - dedi pitirlab Struve, - ayting-chi, ko'nglingiz nima tusaydi?

Men gapga aralashib, issiq o'lchagich, ozroq uzum va non sotib olish kerakligini aytdim. Struve foydasi tegishi mumkinligidan xursand bo'lib zipillab pastga tushib ketdi.

- Shaytonning tentagi, - ming'irlab qo'ydi Striklend.

Men uning tomir urishini ushlab ko'rdim. Tomirlari bilinar-bilinmas, lekin tez urardi. Savollarimga, javob bermasdi. Savollarni qaytaraverganimdan keyin u jahl bilan devor tomonga o'girilib oldi. O'n daqiqalardan keyin Struve xalloslaganicha yetib keldi. Aytilgan narsalardan tashqari sham, sho'rva, spirt lampa keltiribdi. Chaqqon uy sohibiday darhol sutni pishirishga kirishdi. Men Striklendning isitmasini o'lchadim. Termometr uning issig'i qirqu o'ndan uch darajaligini ko'rsatdi. U jiddiy betob edi.

Yigirma beshinchi bob

Bir ozdan keyin xonadan chiqib ketdik. Dirk uyiga borib ovqatlanishi lozim edi, men esa, do'xtir olib kelaman, dedim. Lekin

chordoqning bo'g'iq havosidan tashqariga, toza havoga chiqishimiz bilanoq, gollandiyalik oshnam u bilan ustaxonasiga birga borishimni so'radi. Miyasiga bir fikr kelib qolganligini, uni hozir aytmaligini, ammo men muqarrar ravishda u bilan birga borishim zarurligini bildirdi. Doktor hozirgi pallada biz qilishimiz mumkin bo'lgan ishdan ortiqroq ish qilolmasligiga ishonganimdan uning taklifiga rozi bo'ldim. Biz uyga kirib borganimizda Blansh Struve dasturxon tuzatayotgandi. Dirk to'g'ri xotining yoniga bordi-da, qo'lini ushlagancha shunday dedi:

- Jonginam, sendan bir narsani iltimos qilmoqchiman.

Ayol unga jiddiy va ravshan nigoh bilan boqdi. Bunday nigoh tashlashi ayolga juda yarashar, ehtimol, uning asosiy latofati edi. Struvening badani azbaroyi terlab ketganidan yanada qizargan, dumaloq, hammavaqt jovdirab turadigan ko'zlarida qat'iyat zuhur etar, hozirgi holati har qachongidan ham kulgili edi

- Striklend og'ir kasal. Ehtimol, kuni bitay deb qolgandir. U iflos boloxonada yasharkan, unga qaraydigan biror odam zoti yo'q ekan. Uni biznikiga olib kelishga ijozat et.

Ayol epchillik bilan qo'lini erining qo'lidan tortib oldi. Men hech qachon uning bunday chaqqon harakatini ko'rmagandim. Oqish yuzlari birdaniga lovullab ketdi.

- Yo'q, bo'lmaydi!

- Jonginam, iltimosimni qaytarma. Men axir uni yolg'iz qoldira olmayman. Fikri yodim o'shanda.

- Marhamat qilib, uyiga borgin-da, qarayver unga, qarshi emasman.

Ayolning ovozi sovuq va takabburona jarangladi.

- Lekin u o'lib qoladi.

- O'lsa o'laversin.

Struve xuddi baliqqa o'xshab og'zini kappa-kappa ochdi, yuzlaridagi terni artdi, qo'llab-quvvatlashimni iltijo qilganday, men tomon yalingannamo qarab qo'ydi. Lekin men nima deyishimni bilmasdim.

- U ulug' rassom.

- Ishim nima? Men undan nafratlanaman.

- Azizam, sevgilim, bunday dema. Sendan iltijo qilaman, uni uyga olib kelishga ruxsat ber. Biz uni shu uyga joylashtiramiz, ehtimol, hayotini saqlab qolarmiz. Senga malol keladigan ish bo'lmaydi, hammasini o'zim qilaman. Ustaxonadan joy qilib beraman unga. Axir uning itday o'lib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu insoniylik emas.

- Nega uni kasalxonaga yotqizish mumkin emas?

- Kasalxonaga? U mehr va muhabbat bilan parvarish qilinishi lozim.

Blanshning nihoyatda hayajonlanib ketgani meni hayron qoldirdi. U dasturxon tuzatishda davom etar, ammo qo'llari qaltirardi.

- Sabr kosamni to'ldirma! Agar sen kasal bo'lguday bo'lsang, Striklendning parvoyiga kelmasding.

- Nega unday deysan? Menga sen qararding. Uning yordami menga kerak bo'lmasdi. Bundan tashqari, u bilan mening oramizda farq katta bor. Uning oldida men kimman?

- Tentak kuchuk bolasiga o'xshaysan. Yerga yotib olib odamlar ustingga chiqib toptashiga yo'l qo'lasan.

Struve kulib yubordi. Xotini g'azab otiga minganining sababini anglaganday bo'ldi.

- Jonginam, rasmlarimni ko'rgani kelganini hecham esingdan chiqara olmaysan-da. Rasmlarim unga yoqmagan bo'lsa, ota go'ri qozixona bo'ptimi? Unga rasmlarimni ko'rsatib o'tirgan men o'zim tentakman. Bundan tashqari, haqiqatan ham ular unchalik yaxshi asarlar emas.

U ma'yus nigoh bilan ustaxonaga ko'z tashladi. Moslamadagi hali tugallanmagan rasmda kulib turgan ital'yan dehqoni tasvirlangan bo'lib, bir bosh uzumni qora ko'zli qizning boshi uzra tutib turardi.

- Rasmlaring yoqmagan taqdirda ham odob yuzasidan indamasligi lozim edi. Nega u seni haqorat qildi? Nafratini ifodalamoqchi bo'ldimi? Sen esa uning qo'llarini o'pishga tayyorsan. Men undan nafratlanaman!

- Tentakkinam, axir u daho-ya. O'zimni genial rassom deb hisoblashimni istaysan, shekilli. Albatta, shunday bo'lishini istardim.

Lekin men unda daholik alomatlarini aniq ko'rib turibman, shu tufayli ham butun borlig'im bilan uning oldida sajda qilaman.

Dunyoda bundan ham g'aroyibroq narsa bormi... Lekin bunday fazilat egalaring qismati og'ir bo'ladi. Daho odamlarga sabr-bardosh va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lmoq kerak.

Oilaviy mojarolar mening oldimda bo'layotganidan xijolat chekib, Struve nega meni bu yerga zo'r lab olib kelganiga tushunmay, chekkaroqda turardim. Xotining ko'zlari jiqqa yosh edi.

- Gapimni tushun, u faqat daho rassom bo'lgani uchungina emas, kasal va qashshoq odam bo'lgani uchun ham uyimizga qabul qilishingni iltijo qilayapman!

- Men uni hech qachon uyimga qo'ymayman! Hech qachon!

Struve men tomonga o'girildi.

- Gap hayot va o'lim masalasi ustida ketayotganini sen tushuntir unga. Axir uni la'nati katalakda qoldirib bo'lmaydi-ku.

- Tabiiyki, xasta odamga bu yerdan qarab turilsa yomon bo'lmasdi, - dedim, - lekin masalaga boshqa tomondan yondoshilsa, u kelsa juda siqilib qolasizlar. Uni kunduzlari ham, kechalari ham tanho qoldirib bo'lmaydi.

- Sevgilim, sen axir kasal odamga g'amxo'rlik qilishdan qo'rqib, qarshilik qilish mumkin emas.

- Agar u bu yerga kelsa, men uydan chiqib ketaman! - o'zini yo'qotar darajada qichqirdi Struve xonim.

- Seni tanimay qoldim. Hamisha rahmdil va oqko'ngil eding-ku.

- Xudo haqi, meni tinch qo'y. Bu ahvolda jinni qilib qo'lasan meni.

Nihoyat, ayolning ko'zlariga shashqator yosh keldi. Kursiga o'zini tashlab, qo'llari bilan yuzini berkitdi. Yelkalari bezgak tutayotgandek titrardi. Dirk shu lahzadayoq uning oyoqlari ostiga cho'kkaladi. U xotini quchoqlab olganicha, qo'llarini o'par, erkalatuvchi so'zlar aytib ovutar, ayolning yuzlaridan esa yosh oqardi. Ayol erining quchog'idan chiqib ko'zlarini artdi.

- Qo'yib yubor meni, - dedi Struve xonim sal yumshab va kulishga harakat qilib, menga murojaat etdi: - Endi men haqimda qanday xayollarga borasiz?

Struve nimadir demoqchi bo'ldi, lekin jur'at etolmadi, hamon xotini hayronu hars bo'lib qarab turardi. Uning peshonasi tirishdi, qip-qizil lablari qimirladi. U negadir qo'rqib ketgan dengiz cho'chqasiga o'xshardi.

- Demak, baribir в Ђњуо'qvЂќ deysanmi, jonginam?

Ayol endi o'ziga kelgandi, faqat qo'lini horg'in silkitdi.

- Ustaxonang bor. U yerdagi barcha narsalar seniki. Agar uni bu yerga olib kelishni xohlasang, men qanday qarshilik ko'rsata

olardim?

Dirkning dumaloq yuzida kutilmaganda paydo bo'lgan tabassum chehrasini yoritib yuborganday bo'ldi.

- Rozimisan? Men buni bilardim! Jonginam!

Ayol o'zini qo'lga olib, eriga g'amgin nigoh tashladi. Keyin bamisoli yuragini tinchlantirmoqchi bo'lganday, ikkala qo'lini yuragining ustiga qo'ydi.

- O, Dirk, butun hayotim mobaynida hech qachon sendan hech narsani iltimos qilmaganman.

- Sen uchun hamma narsaga tayyorligimni bilasan-ku, axir.

- Iltijo qilaman, Striklendni bu yerga olib kelma. Kimni xohlasang olib kelaver, faqat uni emas. O'g'ri, ichkilikboz, ko'chadagi birinchi uchragan daydi bo'lsa ham mayli. Unga mamnuniyat bilan qarashga va'da beraman. Faqat Striklendni emas. O'lboraman sendan, Dirk.

- Nega?

- Men undan qo'rqaman. U bizga dahshatli darajada tashvish va qayg'u keltiradi. Men buni bilaman. Shundoqqina sezib turibman.

Agar uni keltirsang, bu ish xayrlik tugamaydi.

- Telba-teskari gaplarni gapiryapsan!

- Yo'q, yo'q! Nima deyaotganimni bilib turibman. Qandaydir dahshatli narsa ro'y beradi.

- Unga yaxshilik qilganligimiz, muruvvat ko'rsatganimiz uchunmi?

Ayol notekis nafas olar, yuzini qo'quv ifodasi qoplagandi. Uning xayolida qanday fikrlar g'ujg'on o'ynayotganini bilmasdim-u, lekin qandaydir majhul qo'rquv o'zini yo'qotish darajasida junbushga keltirgandi. Odatda, ayol vazminlik va bosiqlik bilan o'zini tutardi, lekin hozirgi holati aql bovar qilmaydigan darajada edi. Struve birmuncha muddat hayratdan lol bo'lib unga tikilib turardi.

- Sen xotinihsan, olamdagi barcha narsadan men uchun azizroqsan. Sening ijzotingsiz biror odam ostona hatlab bu uyga kira olmaydi.

Struve xonim bir daqiqa ko'zlarini yumdi. Nazarimda, u o'zidan ketib qolayotgandek tuyuldi. Men uning asablari kasal ekanligini bilmasdim, g'azabim qo'zg'adi. Keyin yana Struvening sukunatni buzuvchi ovozi eshitildi:

- Axir senga yordam qo'lini cho'zishganda qanday yomon holatda eding? Bunday vaqtadagi yordam nima ekanligini o'zing yaxshi bilasan-ku. Imkoniyat topganingda boshqa odamni falokatdan qutqarib qolishni xohlamaysanmi?

Bular juda odmi so'zlar edi, lekin mening quloqlarimga nasihatomuz so'zlarday eshitildi, shu tufayli bo'lsa kerak, o'zimni kulgidan arang tutib turardim. Er-xotinning harakati meni hayron qoldirardi. Blansh Struve bir seskanib ketdi, anchagacha eriga tik qarab qoldi. Er yerga o'tirdi, chamasi, u o'zini yo'qotib qo'ygan edi. Asta-sekin ayolning yuzlari qizardi, lekin shu ondayoq tanasidagi butun qon tomirlarida qotib qolganday yuziyu qo'llarigacha oqarib ketdi. U bezgak tutayotganday titrardi. Ustaxonaga chuqur sukunat cho'kdi. Men o'zimni tamomila yo'qotib qo'ydim.

- Striklendni olib kelaqol, Dirk. Men uning uchun qo'limdan kelgan hamma ishni qilaman.

- Jonginam, - kulib xotiniga qo'llarini uzatdi, lekin u o'zini chetroqqa oldi.

- Men odamlardagi muloyimlikni yoqtirmayman, Dirk. Bu ahmoqlik.

Ayol yana avvalgi holatiga qaytdi. Hech kim bir daqiqa oldin u o'zini bilmaydigan darajada jazavada bo'lganligini hozir ayta olmasdi.

Yigirma oltinchi bob

Ertasiga Striklendni olib keldik. Bu ishga ko'ndirish uchun anchagina qat'iyat va sabr-toqat ko'rsatishga to'g'ri keldi. Lekin u haqiqatan anchagina og'ir xasta edi, shu tufayli, Struvening iltijolariyu mening qat'iyatimga dosh bera olmadi. Biz uni kiyintirgunimizcha, ming'illab so'kinib turdi. Zinadan olib tushdik-da, izvoshga o'tqazib, Struvening ustaxonasiga olib keldik. Striklend bunday harakatlardan obdon tinkasi quridi, ko'rpa-to'shak qilib yotqizib qo'yishimizga ham qarshilik ko'rsata olmadi. Bir yarim oygacha mazasi bo'lmadi. Shunday kunlar ham bo'ldiki, nazarimizda, bir necha soatlik umri qolgandek tuyulardi. Bunday og'ir holatdan faqat Struvening favqulodda qat'iyligi tufayligina omon qolganiga ishonaman.

Men umrim bino bo'lib bunday bemorni ko'rmaganman. U qaysar va yo'q narsalarni talab etaveradigan bemor emasdi, aksincha, hech qachon hech narsadan shikoyat qilmas, hech narsa so'ramas, qariyb hech narsa demasdi. Bizning g'amxo'rlikimiz uning g'azabini keltirayotganday edi. O'zini qanday his etayotgani, biror narsa kerak, kerakmasligini so'raganimizda esa masxaralash bilan javob qaytarar yoxud so'kinardi. Men endi uni butunlay yomon ko'rib qolgandim, kasallik xavf-xataridan qutulishi bilanoq, bu to'g'risida unga to'g'ridan-to'g'ri aytdim.

- Tuyoqlaringni shiqillatlaring, - uning javobi shunday bo'ldi. - Ha, shunaqa.

Dirk Struve ishlarini butunlay yig'ishtirib qo'ydi, xuddi sodiq enagaday uning atrofida kuymalandi. U hayron qoladigan darajadagi chaqqonlik bilan bemorning o'rnini tuzatar, ilgarilari men unda sezmagani ayyorlik bilan dorilarni ichishga majbur etardi. Har qanday mehnatu tashvishlar uni bu yo'ldan qaytara olmasdi. Garchi uning topgani er-xotinning yashashiga ortiqcha sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymagan holda uchma-uch yetib turgan bo'lsa-da, endilikda u Striklendning qaysar ishtahasini ochish uchun turli-tuman tansiq taomlarga ayamay pul xarj qilardi. Xasta rassomga iloji boricha ko'proq ovqat yeyishi uchun sabr-toqat bilan yalinib-yaltoqlanishini hech qachon unutmayman. Bunday munosabatga javoban aytilayotgan qo'pol gaplar, haqoratlar hech qachon Dirkn muvozanatdan chiqara olmasdi. Bu gaplarni u eshitmaganga olardi, judayam og'ir botgan kezarida esa kulib qo'yaqolardi. Striklend tuzala boshlaganda esa yaxshi kayfiyatining ifodasi sifatida Struveni masxaralashni boshlardi. Bunday paytlarda uni xursand qilish uchun Struve atayin maynavozchilik qilar, mana nihoyat tuzalayapti, deganday, menga mamnuniyat bilan zimdan qarab qo'yardi. Struve haqiqatan ajoyib edi.

Lekin Blansh undan ham ko'proq hayron qoldirardi. U kasal boqishga qobiliyatligina emas, nihoyatda vafodor va g'amxo'r ham chiqib qoldi. Uning bu holatini ko'rib xasta Striklendni erining ustaxonasiga joylashtirishga avvaliga sira rozi bo'lmaganiga ishonish qiyin edi. U Dirk bilan barobar kasalga qarashish istagini bildirdi. U xastaning o'rin-ko'rpasini shu qadar uddaburronlik bilan joylashtirdiki, hatto choyshabni almashtirganda ham Striklend unchalik bezovta bo'lmadi. Bemorni yuvib-tarardi. Epchilligiga qoyil qolayotganimni izhor qilganimda, muloyim, yoqimtoy kulib qo'yar, bir vaqtlar kasalxonada ishlaganini eslatardi. Striklendga bo'lgan qahr g'azabini na biror so'zida, na biror harakatida sezdirardi. Ayol bemor bilan kam gaplashar, lekin nima istayotganini darhol fahmlar va bajo keltirardi. Ikki hafta mobaynida esa hatto kechalari bemorni yolg'iz qoldirish mumkin emasdi. Ayol bemor yonida eri bilan birga galma-gal navbatchilik qilishdi. Qorong'i xonada bemor yonida soatlab o'tirganda, ayol nimalarni o'yladiykin? Striklendga qiyo boqishning o'zi dahshatli edi: u qizargan ko'zlari bilan bo'shliqqa tikilib

yotardi. Ilgarilarga qaraganda ham oriqlab ketgan, sarg'imir soqollari rosa o'sgan, ko'zlari avvalgidan ko'ra kattaroq ko'rinardi.

- Kechasilari u siz bilan biror marotaba bo'lsin gaplashdimi?

- Yo'q.

- Siz hamon uni yoqtirmaysizmi?

- Har qachondagidan ko'proq yoqtirmayman.

U menga katta-katta ko'zlari bilan tikildi. Chehrasi g'oyat sokin edi. Shunday ayol ba'zi paytlarda g'azabdan junbushga kelishiga odamning ishongisi kelmasdi. Bunga o'zim guvoh bo'lgandim.

- Unga qilgan yaxshiliklaringiz uchun biror marotaba bo'lsin sizga tashakkur bildirdimi?

- Yo'q, - tabassum qildi u.

- Dahshatli odam!

- Jirkanch va yaramas.

Struvening og'zi qulog'ida edi, xotini bunday tashvishni chin ko'ngildan o'z bo'yniga olayotganiga qanday qilib minnatdorchilik bildirishni ham bilmasdi. Uni faqat Striklend va Blansh o'zaro qanday munosabatda bo'lishayotgani bir oz tashvishga solardi.

- Bilasanmi, ular soatlab bir-birlariga bir so'z aytmay o'tiraverisharkan.

Striklend ancha tuzalib, o'rnidan turishiga biror kun qolganda, hammamiz ustaxonada o'tirgandik. Dirk menga nimanidir gapirib berayotgandi, Struve xonim esa nimadir tikardi. Mening nazarimda, bu Striklendning ko'yilgiga o'xshardi. Shunda men tasodifan Striklendning ko'zlari istehzoli va qiziqish bilan Blansh Struvega tikilib turganini sezib qoldim. Uning tikilib turganini his etgan ayol ham boshini ko'tarib unga qaradi, bir necha soniya mobaynida ular bir-birlariga tikilib qolishdi. Ayolning nigohi qanday ma'no anglatishini men unchalik tushuna olmadim. Bu nigohda o'zini qandaydir g'alati, xijolat zuhr etganday edi. Shu lahzada Striklend ko'zlarini undan olib qochib yana tepaga, shiftga tikilishda davom etdi. Ayol esa ma'nosini anglash qiyin bo'lgan nigoh bilan unga tikilishda davom etdi.

Oradan bir necha kun o'tgach, Striklend xona bo'ylab yura boshladi. Uning terisi bilan suyagi qolgandi, xolos. Kiyimlari xuddi ilgakka osilganday shalvirab turardi. Pahmoq sarg'ish soqoli, o'sib ketgan sochlari, ozib ketgan bo'lishiga qaramay, kattakon kallasi g'alati ko'rinardi, lekin negadir ilgarigi kishi jirkanadigan qiyofasidan farq qilardi. Bu odamdagi g'alati kelishmaganlikka qaramay, qandaydir ulug'vorlik ko'rinardi. U menda uyg'otgan taassurotni aniq tasvirlay olmayman. Lekin nima bo'lganda ham uning yuzidagi ifoda o'ta ta'sirchan edi. Xuddi vujudiga yunonlarning yarim odam, yarim hayvon shaklidagi qora kuchlari joylab qo'yilganday, Striklenddan ibtidoiy jamiyatning hidi anqib turardi. Xayolimga ashula aytishda Apollon bilan bahslashmoqchi bo'lib jazosini olgan Marsiy keldi. Striklend o'z qalbida g'aroyib bo'yoqlar uyg'unligi, misli ko'rilmagan obrazlarni saqlab yurganday tuyulardi. Mening nazarimda, uning hayoti azob-uqubat va xorlik-zorlikda tugaydiganday tuyulardi. ВЪНУning yuragiga shayton o'rnatilib olgan, lekin bu yomonlik shaytoni emas, balki yaxshilik va yomonlikning paydo bo'lishidan avvalgi kuchdir, deb o'yladim. ВЪНУ

Striklend hali judayam holsiz edi, rasm chiza oladigan kuchi yo'q edi. Shu tufayli u ustaxonada qandaydir xayollarga borgancha jim o'tirar yoxud kitob o'qirdi. Hech kutilmagan, xayolga kelmagan kitoblarni ko'rardim unda. Mallarme she'rlarini xuddi yosh bolalardek lablarini ovozsiz qimirlatib o'qirdi. Shoir she'rlari unda qanday tuyg'ular uyg'otayotganini bila olmasdim. Boshqa safar esa Gaborioning sarguzasht romanini berilib o'qiyotgani ustidan chiqdim. Kitob tanlashda favqulodda shaxsining o'zaro qarama-qarshi xususiyatlari katta o'rin tutishi ham meni qiziqtirardi. Xasta bo'lishiga qaramay, o'ziga zarracha erk bermasligi qiziq edi. Struve qulay sharoitni yaxshi ko'rardi. Ustaxonasida ikkita chuqur oromkursi va katta divan bor edi. Striklend biror marotaba bo'lsin, ularga yaqinlashmagandi. Buni u shunchaki matonatini ko'z-ko'z qilish uchun emas, balki qulay sharoitga o'rganmaganligidan shunday qilar, uch oyoqlik stulda o'tirardi. Buni u oromkursidan afzalroq bilardi. Bu narsa mening jig'imga tegardi. Men hech qachon atrofda sharoitga bu qadar beparvo boshqa odamni ko'rmaganman.

Yigirma yettinchi bob

Oradan ikki yoki uch hafta o'tdi. Kunlardan bir kun ertalab, ishlarim uncha yurishmayroq turganligi tufayli, dam olish maqsadida, Luvrga yo'l oldim. Zallarni kezarkanman, o'zimga yaxshi tanish rasmlarni yana bir marotaba tomosha qildim, ular menda uyg'otgan tuyg'ular bilan xayolotimni boyitishga harakat qildim. Zaldan zalga o'tiladigan joylarning birida to'satdan Struveni uchratib qoldim. Men kulib yubordim, zero uning yumaloqqina gavdasi albatta, odamning kulgisini qistatardi. Lekin unga yaqinroq kelib, yuziga razm solganimda odatdagidan boshqacharoq, xafaqonroq ekanligini fahmladim. Boshi egilgan, nimadandir mahzun alpozda edi. U hozirgi ahvolda ham kulgili tuyulardi, kutilmaganda, suvga yiqilib tushib, hozirgina o'limdan qutqarib qolingan odamga o'xshardi. Hozirgi holatini qo'rquvdan haligacha o'ziga kelmagan, lekin o'zining ahmoqona ko'rinishini tushunib turgan odamga mengzasa bo'lardi. Ko'zoynagi orqasidagi dumaloq ko'm-ko'k ko'zlari xavotir bilan yiltillab turardi.

- Struve, - chaqirdim men uni.

U avvaliga seskanib tushdi, keyin kulib qo'ydi, lekin bu qandaydir g'amgin va tashvishli kulgu edi.

- Bunday bekorchilikni ixtiyor qilib qolibsiz? - deb shodon so'radim undan.

- Anchadan beri Luvrda bo'lmagandim. Biror yangi asar paydo bo'lib qolmadimkin deb tomosha qilmoqchi edim.

- Lekin sen chizayotgan rasmingni shu haftada tugatmoqchiliginгни aytganding-ku?

- Striklend mening ustaxonamda ishlayapti.

- Ishlasa nima bo'libdi?

- Ustaxonamda ishlashni unga o'zim taklif qildim. Men ikkalamiz birgalikda ishlayveramiz, deb o'ylagandim. Lotin mavzeida yashaydigan rassomlarning ko'pchiligi shunday ishlashadi. Bunda ish yaxshi yurishadiganday tuyulardi menga. Men doimo ishdan toliqqan paytlaringda sheriging bilan bir-ikki og'iz gaplashib olsang, yaxshi bo'ladi, deb o'ylardim.

U sekin, tutilib-tutilib, samimiy, ammo tentaknamoroq ko'zlari bilan menga qaragancha gapirardi. Bu ko'zlar jiqqa yosh edi.

- Men sening gaplaringni tushunmayapman.

- Striklend ustaxonada yana biror odam bo'lsa ishlay olmas ekan.

- Bunisi bilan sening necha pullik ishing bor? Axir ustaxona seniki-ku!

Struve menga shikoyatomuz tikilib qoldi. Uning lablari titrardi.

- Nima gap o'zi, tushuntir, - talab qildim undan.

U qizarib ketdi-yu, indamadi. Keyin aftodahol bir alpozda qandaydir rasmga tikilib qoldi.

- U mening rasm chizishimga ruxsat bermadi. Bu uydan chiqib ketishim kerakligini aytdi.

30 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Nega sen o'zing unga istagan tomoningga tuyog'ingni shiqillat, demading?
- U meni uydan haydab chiqardi. U bilan urishib o'tirarmidim? Orqamdan shlyapamni uloqtirib, eshikni berkitib oldi.
Men shu daqiqada Striklendni o'ldirib tashlashga tayyor edim. Lekin bechora Struvening hozirgi holatidan kulib yuborishdan o'zimni arang ushlab turganligim bois, o'zimdan ham xafa edim.
- Bu ishga xotining qanday munosabatda bo'ldi?
- U yo'q edi, do'konga xarid qilishga chiqib ketgandi.
- U xotiningni uyga qo'yadimi?
- Bilmadim.
Men hayronlikdan dong qotib, Dirka qarab turardim. U muallimi oldida ayb ish qilib qo'ygan o'quvchiga o'xshardi.
- Hoziroq borib Striklendni uydan haydab chiqarishimni xohlaysanmi?
U bir seskanib tushdi. Yiltillab turgan qizg'ish yuzlari yana ham qizarib ketdi.
- Yo'q. Sen, yaxshisi, aralashmay qo'yaqol.
Struve bosh qimirlatib, mendan uzoqlashdi. U negadir bu voqeani muhokama qilib o'tirishni istamasdi. Nega shundayligini esa men tushuna olmadim.

Yigirma sakkizinchi bob

Bir haftadan keyin hammasi ravshan bo'ldi. Restoranda apil-tapil ovqatlandim-da, kichkinagina mehmonxonamda o'tirganча kitob o'qishga tutindim. Kechki soat o'nlarda qo'ng'iroqning do'rillagan ovozi eshitildi.

Men eshikni ochdim. Qarshimda Struve turardi.

- Kirsam bo'ladimi?

Nimqorong'i zinapoyada men unga yaxshi razm sololmadim, lekin ovozi juda g'alati chiqdi. Men uning ichkilik ichmasligini bilmaganimda hozir uni mast bo'lsa kerak, deb o'ylagan bo'lardim. Uni mehmonxonaga boshlab kirib oromkursiga o'tkazdim.

- Xudoga shukur, seni topdim! - xitob qildi u.

- Nima gap o'zi? - so'radim uning bunday hayajonlanayotganidan hayron bo'lib.

Endigina unga razm soldim. Doim bashang kiyinadigan Dirk juda aftodahol ko'rinaridi. U ko'proq ichib qo'ygan, degan qarorga kelib, endi uni masxara qilay deb turganimda, gap qotdi:

- O'zimni qayoqqa qo'yishni bilmay, uyingga qidirib kelgandim. Yo'q ekansan.

- Bugun kechroq ovqatlandim. Dirkning bunday holatiga ichimlik sabab emasligini tushundim. Odatda, qip-qizil yuzlarida hozir qizil dog'lar paydo bo'lgandi. Qo'llari titrardi.

- Senga nima bo'ldi? - so'radim undan.

- Xotinem tashlab ketdi.

U bu so'zlarni arang aytdi, nafasi tiqildi, dumaloq yuzlaridan yosh oqdi. Men nima deb taskin berishni bilmasdim. Xayolimga dastlab xotini Striklendning o'zini ahmoqona tutishiga dosh berolmay, Dirkdan uni uydan haydab chiqarishni talab qilgan, degan fikr keldi. Bu ayol tashqi ko'rinishidan xotirjam ko'rinsa-da, aslida qanchalik g'azabnok bo'lishini men bilardim. Agar Struve uning talabini rad etgan bo'lsa, bu dargohga butunlay qaytib kelmaslikka ont ichib, uydan o'zi chiqib ketgan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Bechora, shunday bir bechorahol ahvolda ediki, bu safar men uning ustidan kula olmadim ham.

- O'zingni qo'lga ol, bunchalik kuyaverma, do'stingnam. U qaytib keladi. AyolB-larning jahl ustida aytgan so'zlarini jiddiy qabul qilaverish yaxshi emas, axir.

- Sen tushunmayapsan... U Striklendni sevib qolibdi.

- Nima-a?! - Men lol bo'lib qoldim. Lekin gapining ma'nosini anglashim bilanoq, bularning barchasi yolg'on, degan qarorga

keldim. - Qayoqdagi yolg'on gaplarni gapiryapsan o'zing. Kelib-kelib uni Striklenddan rashk qilayapsanmi? - Men kulib yuborishdan o'zimni arang tiyib turardim. - Xotining uni yomon ko'rishini mendan ko'ra yaxshiroq bilasan-ku.

- Sen hech narsani tushunmaysan, - nola qilardi u.

- Sen qip-qizil eshshaksan, - chidab turolmay baqirdim. - Qani yur-chi, senga araq quyib beray, ko'ngling salgina bo'lsa-da, taskin topadi.

Inson bolasi o'zini o'zi azoblashning ustasi. Dirkning kallasiga xotinem Striklendni yoqtirib qolgan degan fikr kelganda, bu fikrini odatdagiday qo'pol tarzda uning yuziga solib, xotinini haqoratlagan. Xotini esa erining bu gapidan to'nini teskari kiyib olgan-da, alam ichida go'yo uning shubhalari asosliday tutgan o'zini.

- Gap bunday, - dedim unga, - hozir uyingga boramiz. Hamonki, shunday ekan, o'zing pishirgan ovqatni o'zing yeysan. Xotining, bilishimcha, kekchi ayol emas.

- Axir men qanday qilib uning oldiga boraman? - horg'in gapirdi Dirk. - Axir ular o'sha yerda. Men ustaxonani ularga tashlab chiqdim.

- Demak, xotining seni tashlab ketmagan, sen uni tashlab ketgansan.

- Xudo haqqi, bunday dema!

Men hamon uning so'zlarini jiddiy qabul qilolmayotgan edim. Biror daqiqa bo'lsin, bu gaplarning to'g'riligiga ishonmayotgandim. Lekin Dirk g'am-alamdan o'zini yo'qotib qo'ygandi.

- Axir sen mening oldimga yuragingni yorgani kelgansan-ku. Ro'y bergan voqeani bir chekkadan gapirib bersang-chi.

- Bugun men bundan bu yog'iga chiday olmasligimni his etdim. Striklendga sen endi tuzalding, uyingga jo'nab ketishing mumkin, ustaxona o'zimga kerak, deb aytdim.

- Yer yuzidagi biror boshqa odamga bunday gapni aytib o'tirishning hojati yo'q edi, - dedim men. - Xo'sh, u nima dedi?

- U kuldi. Axir sen uning kulishini bilasan-ku. U kulganda har qanday odam ham o'zini ahmoq bo'lganday his etadi. U darhol chiqib ketishini aytdi. U buyumlarini yig'ishtirishga tushdi - esingdami, uning uyidan zarur bo'lib qolishi ehtimol bo'lgan narsalarni olib kelgandik. Keyin Blanshdan qog'oz va arqon so'radi.

Struvening tili gapga kelmay qoldi, u to'xtab-to'xtab nafas olar, bamisoli o'zidan ketib qoladigan ahvolda edi. E'tirof etishim kerakki, men undan hozir aytayotgan so'zlarini kutmagandim.

- Bo'zarib ketgan Blansh u so'ragan narsalarini muhayyo qildi. Lekin Striklend hech narsa demadi. Bizga zarracha e'tibor ham bermadi. Ko'zlari esa kulimsirab turardi. O'sha damlarda yuragim qanchalik orqaga tortib ketganini tasavvur ham qila olmasan.

Nazarimda, hozir biror dahshatli hodisa ro'y beradiganday edi. U bilan shunday gaplashganimga pushaymon qila boshladim. U

atrofga alanglab, shlyapasini qidira boshladi. Xuddi shu daqiqada xotinim menga: вѢДѢDirk, men Striklend bilan birga ketaman. Bundan bu yog'iga sen bilan yashay olmaymanвѢќ, - dedi. Men unga bir narsalar demoqchi bo'lardim-u, tilim so'zga kelmasdi. Striklend jim turardi, ohista hushtak chalar, go'yo bu gaplarning unga hech qanday aloqasi yo'qday tutardi o'zini.

Struve yana gapira olmay qoldi, yuzidagi terni artdi. Men miq eta olmasdim. Endi uning gaplariga ishonayotgan edim-u, azbaroyi lol qolganimdan hamon hech narsaga tushuna olmayotgandim.

Keyin u ovozi bo'linib-bo'linib yuzlaridan yosh oqqancha, xotinini quchoqlamoqchi bo'lganini, xotini esa yaqinlashmaslik va qo'l tekkizmaslikni talab qilib o'zini orqaga tashlaganini gapirib berdi. U ketmagin deb xotiniga yolvoribdi. Juda yaxshi ko'rishini yana bir bora eslatibdi, baxtli kunlarini, mehr va muhabbat bilan o'tgan damlarini yodga olibdi. Hozir ham undan xafa emasligini, bu narsani hech qachon yodiga solmasligini bildiribdi.

- Dirk, marhamat qilib, bu uydan bamaylixotir chiqib ketishimga imkon ber, - debdi xotini nihoyat. - Axir sen Striklendni yaxshi ko'rib qolganimni tushunmayapsanmi? Men u bilan dunyoning narigi chekkasiga ham ketaveraman.

- Axir sen u bilan hech qachon baxtli bo'la olmaysan. O'zingni o'ylasang-chi. Seni nimalar kutayotganini bilmaysan-ku.

- Bu sening aybing. Uni bu yerga keltirishga o'zing majbur qilganding.

Shunda u Striklendga yopishibdi.

- Unga rahmingiz kelsin, - deb yolvoribdi. - Bunchalik telbalik qilishiga yo'l qo'ymang.

- U istagan ishini qilishida tomomila erkindir, - javob beribdi Striklend. - Men bilan ketishga majbur qilayotganim yo'q.

- Men o'z yo'limni aniq belgilab oldim, - bo'g'iq ovoz bilan gapirdi Blansh.

Striklendning odamni xit qilib yuboradigan vazminligi Dirkning sabr-bardoshini izdan chiqarib yubordi. U jazava ustida nima qilayotganini o'zi ham anglamagan holda Striklendga tashlandi. Bunday bo'lishini kutmagan Striklend gandaraklab ketdi, lekin u kasaldan keyin ham juda kuchli edi. Dirk ko'z ochib-yumguncha yerga ag'anab tushganini o'zi ham tushunmay qoldi.

- Juda qiziq ekansan-ku, odamcha, - dedi Striklend.

Struve o'rnidan turdi. Bo'layotgan voqealarni vazminlik bilan kuzatib turgan xotini oldida Struve yana bir marotaba izza bo'ldi,

yanada kulgiliroq ko'rinish ketdi. Haligi kurash vaqtida ko'zoynagi uchib ketganligi tufayli, aftodahol bir alpozda atrofga alanglardi. Xotini ko'zoynakni yerdan olib, indamay unga uzatdi. Shunda o'z baxtsizligining butun ko'lamini, kulgili va nochorligini yurakdan his etdimi, o'kirib yig'lab yubordi. U qo'llari bilan yuzlarini berkitib oldi. Ularning ikkalasi esa joylaridan qimirlamay unga tikilib turishardi.

- Sevgilim, - deb nola qildi nihoyat, - sen shunchalik berahmmisan?

- Men o'zimni idora qilolmay qoldim, Dirk, - javob berdi u.

- Men seni erkak zoti biror ayolni sevishi mumkin bo'lgan darajadan ko'proq sevdim, senga sajda qildim. Agar men sening oldingda biror gunoh ish qilib qo'ygan bo'lsam, nega aytmayсан, men o'z gunohimni yuvgan bo'lardim. Men sen uchun qo'limdan nima kelsa, hammasini qildim.

Ayol javob bermasdi, yuzi toshday qotgandi. O'zining yolborishlari xotining joniga tegayotganini ko'rib turardi. Xotini pal'tosi va shlyapasini kiyib, eshik tomon yo'l oldi. Dirk yana biror daqiqadan keyin xotini uydan chiqib ketishini angladi. U xotini tomon tashlandi, qo'llarini ushlab olgancha, tizzasi oldida cho'k tushdi: qadr-qiymat tuyg'usi uni tamomila tark etgandi.

- Jonginam, ketma! Men sensiz yashay olmayman! O'zimni o'ldiraman. Agar biror ayb ish qilib qo'ygan bo'lsam, o'tinaman, kechiraqol! Aybimni yuvishga imkon ber. Sen baxtli bo'lishing uchun hamma ishni qilaman.

- O'rningdan tur, Dirk! O'zingni masxaraboz qilib ko'rsatma.

U gandaraklagancha o'rnidan turdi, lekin xotinini qo'yib yuborgisi kelmasdi.

- Qayoqqa ketasan? - entikib gapirardi u. - Striklend qanday yashashini tasavvur ham qila olmaysan. Sen u yerda yashay olmaysan. Bu dahshat.

- Menga qayerda yashash baribir. Senga buning nima daxli bor?

- Bir daqiqa to'xtab tur. Men gapimni aytib olishim kerak... Sen menga bir narsani taqiqlay olmaysan...

- Nimani? Men bir qarorga keldim. Nima deyishingdan qat'i nazar, fikrim o'zgarmaydi. Qarorim qat'iy.

Struve hiqillardi, xuddi og'riqni to'xtatmoqchi bo'lganday qo'llari bilan yuragini changalladi.

- Men qaroringni o'zgartirishingni iltimos qilayotganim yo'q, faqat gapimga quloq sol. Bu mening oxirgi iltimosim. Yo'q, dema.

Ayol to'xtab, o'ychan, endilikda tamomila begona va sovuq nigohi bilan unga tikildi, eshikdan nariroq borib javon oldida turdi.

- Gapingni eshitaman.

Struve arang o'zini qo'lga oldi.

- Sal bo'lsa ham esingni yig'. Sen faqat havo bilan yashay olmaysan-ku, axir. Striklendning sariq chaqasi ham yo'q.

- Buni bilaman.

- Dahshatli kunlarni boshingdan kechirasan. Nima uchun ancha vaqtgacha tuzala olmaganini bilasanmi o'zing? U ancha vaqtdan beri och edi.

- Men ishlab topaman uning uchun.

- Qanday qilib?

- Bilmadim. Biror narsa o'ylab toparman.

Struvening xayoliga dahshatli fikr kelib, seskanib tushdi.

- Sen, ehtimol, aqldan ozib qolgandirsan? Nima bo'ldi o'zi?

Ayol yelkasini qisdi.

- Endi ketaversam maylimi?

- Yana bir soniya to'xta.

Struve ustaxonaga ko'z yugurtirib chiqdi. U ish joyini yaxshi ko'rardi. Chunki Blanshning bu yerda bo'lishi ustaxonani yoqimli va saromjon-sarishta ko'rsatardi. Bir soniyaga ko'zlarini yumdi, so'ng uni yana ochdi-da, xotiniga tikildi. Bu bilan go'yo xotining qiyofasini qalbida manguga muhrlab qolmoqchiday bo'ldi. Keyin shlyapasini qo'lga oldi.

- Sen qolaver shu yerda. Men ketaman.

- Sen?

Ayol lol bo'lib qoldi va hech narsaga tushunmadi.

- Bunday iflos bir chordoqda yashashingga yo'l qo'ya olmayman. Bu uy menga qanchalik aloqador bo'lsa, senga ham shunchalik aloqador. Bu yerda senga yaxshiroq bo'ladi. Hech bo'lmaganda dahshatli darajada turmush kechirishdan ozod bo'lasan bu yerda.

U javonni ochib, chog'roq bir dasta pul oldi.

- O'zimda bor pulning yarmini senga beraman.

U pulni stol ustiga qo'ydi. Striklend va Blansh miq etishmasdi.

- Mening buyumlarimni yig'ishtirib, bino nazoratchisiga berib qo'yishingni iltimos qilaman. Ertaga kelib olib ketaman. - U kulmoqchi bo'ldi. - Azizam, alvido! Menga baxsh etgan baxtli damlaring uchun senga tashakkur.

U uydan chiqib, eshikni orqasidan yopdi. Mening ko'z o'ngimda Struve chiqib ketgach, Striklend shlyapasini stolga tashlab o'tirgani va papiros cheka boshlagani manzarasi namoyon bo'ldi.

Yigirma to'qqizinchi bob

Men ancha vaqtgacha jim bo'lib qoldim, Struve aytib bergan narsalarni mushohada qildik. Bunday irodasizlikka toqat qilish qiyin edi. Mening holatimni Struve ham fahmladi.

- Striklend qanday yashashini mendan ko'ra yaxshiroq bilasan-ku, - dedi u qaltiroq ovoz bilan. - Men Blansh ham shunday sharoitda yashashiga yo'l qo'ya olmasdim... Ha, yo'l qo'ya olmasdim.

- Bu sening ishing, - javob berdim unga.

- Mening o'rnimda bo'lganingda nima qilarding?

- Qanday ishga qo'l urayotganini xotining bilardi. Agar yetishmovchilik va yomon sharoitdan iztirob chekadigan bo'lsa - bu uning ishi.

- Ha, lekin sen uni sevmaysan-da.

- Sen esa uni hamon sevasanmi?

- Ilgarigidan ham ko'proq! Striklend ayolni baxtli qila oladiganlar toifasidan emas. Bu uzoq davom etmaydi. Men hech qachon uni tashlab ketmasligimni u bilib qo'yishi kerak.

- So'zlaringni qanday tushunmoq kerak? Sen uni qaytadan xotin qilib olishga tayyormisan?

- Buni bir soniya ham o'ylab o'tirmasdim. Bunday vaziyatda men unga avvalgidan ham ko'proq kerak bo'lardim. Uning yakkayu yolg'iz, tahqirlangan, ruhi tamomila tushgan, qayoqqa borishini bilmay garangsib turgan holda ko'rish naqadar dahshatli bo'lur edi. U hatto o'zini tahqirlangan hisoblamasdi ham. Men esa, tabiiyki, uning irodasizligidan g'azablanib ketdim. Chamasi, u mening xayolimdagi fikrni uqdi va shunday dedi:

- Xotinimning uni sevganimdek seva olishiga umid qila olmasdim. Men masxarabozroqman. Ayollar bunaqalarni yaxshi ko'rishmaydi. Buni hammavaqt ham bilganman. Xotinim Striklendni sevib qolgani uchun uni ayblay olmayman.

- Senda zarracha g'urur degan narsa yo'q ekan. Bu juda kam uchraydigan xususiyat.

- Men uni o'zimdanda ham ko'proq yaxshi ko'raman. Nazarimda, hammadan ko'ra o'zingni yaxshiroq ko'rgan paytingdagina g'urur sevgiga aralashishi mumkin. Axir boshqa ayollar bilan aylanishadigan xotinli erkaklar ko'p-ku. Keyinroq hammasi ortda qoladi-da, bunday erkaklar o'z oilalariga qaytishadi. Buni odamlar tabiiy bir hol deb hisoblashadi. Nega ayollar boshqacharoq bo'lishlari kerak?

- Ancha mantiqli mulohaza, - kuldim men, - lekin ko'pchilik erkaklar boshqacharoq yaralgan. Ular bunday paytda kechirisha olmaydi, bo'lar gap shu.

Men gapirayotganimda ham ro'y bergan hodisaning hech kutilmaganda sodir bo'lganligi ustida bosh qotirardim. Nahotki Struve hech narsadan gumonsiramagan bo'lsa? Men bir kuni Blanshning ko'zlarida yilt etib ketgan g'alati ifodani esladim. Ehtimol, o'sha vaqtdayoq u o'z yuragida nish urayotgan qandaydir g'alati tuyg'uni g'ira-shira bo'lsa-da, his etgandir.

- Shu kungacha ularning o'rtasida nimadir borligini sezganmiding? - so'radim men.

Struve javob bermadi. U stoldan qalam oldi-da, beixtiyor ravishda bosma qog'ozga qandaydir ayolning kallasini chizdi.

- Savollarim malol kelayotgan bo'lsa to'g'risini aytaver.

- Yo'q, gapirsam yengil tortaman... Eh, menga qanday dahshatli qiynoqlar azob berishini bilsayding! - U qalamni otib yubordi. -

Ha, men buni ikki hafta oldin bilgan edim.

- Marhamat qilib ayt-chi, nega endi Striklendni uyingdan haydab chiqarmading?...

- Men bunga ishonmovdim. Bo'lmagan narsaday tuyulgandi. Xotinimning uni ko'rgani ko'zi yo'q edi-ku, axir. Bo'lishi mumkin bo'lmagan narsaga o'xshardi. Buni shunchaki rashkka yo'ydim. Bilasanmi, men hammavaqt rashkchi bo'lganman, buni boshqalarga sezdirmaslikka o'zimni o'rgatganman. Uni barcha tanish erkaklardan, sendan ham rashk qilardim. U meni men uni sevganimchalik sevmasligini bilardim. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi. Lekin uni sevishimga izn berardi. Shuning o'zi o'zimni baxtli hisoblashimga yetarli edi. Men uyda ularni yolg'iz qoldirish uchun bir necha soatlab uydanda chiqib ketishga o'zimni majbur etardim, nomunosib gumonlar uchun o'zimni qarq'ardim. Uyga qaytib kelishim ularga, to'g'rirog'i, ayolinga yoqmayotganini bilardim. Striklendga mening uyda borligim-u, yo'qligim baribir edi. O'pish uchun oldiga yaqinlashganimda Blansh titrab ketardi. Nihoyat, ular o'rtasidagi yangicha munosabatga ishonch hosil qilganimdan keyin qanday yo'l tutishimni bilolmay qoldim. Janjal ko'tarsammikin? Bunday qilsam faqat ustimdan kulishadi. Ehtimol, tishni tishga qo'yib indamay yuraverish, hech narsa ko'rmaganday, hech narsa bo'lmaganday yuraverilsa, hammasi tinchib ketarmikin? Men buni bamaylixotirlik bilan, janjal ko'tarmay kutishga qaror qildim. Eh, mening naqadar azob chekayotganimni sen bilsayding!

Shundan keyin Dirk Striklenddan uydanda chiqib ketishni iltimos qilganini qayta so'zlab berdi. U orada qulay fursat topib, bu voqeani shunchaki gap orasida yo'l-yo'lakay aytib bermoqchi bo'ldi. Lekin o'zini unchalik bosib ololmayotgani ovozidan sezilib turardi. Uning ovozida rashk alamlarining ohangi bor edi. U Striklendning o'sha damdayoq lash-lushlarini yig'ishtira boshlashini sira kutmagan, buning ustiga, xotini ham u bilan ketishga o'tlanishini xayoliga keltirmagan ekan. Men uning endilikda o'zini tuta olmay, Striklendga shunday gaplarni aytib yuborganidan pushaymonB-ligini ko'rib turardim. Rashk azoblarini ayriliq azoblaridan ko'ra afzalroq deb bilgandi u.

- Men uni o'ldirmoqchi edim, lekin o'zimni masxaraboz qilib ko'rsatishga urindim, xolos.

U uzoq vaqtgacha jim qoldi, anchadan keyin men undan kutayotgan gap tiliga ko'chdi.

- Agar men hovliqib bu gaplarni aytmaganimda, hammasi o'tib ketarmidi. Bunchalik besabr bo'lish yaxshimas. Bechora xotinimni shunchalikka olib bordim-a!

Men faqat yelkamni qisib qo'ydim. Blansh Struve menga yoqimtoy ayol bo'lib ko'rinmasdi. Lekin fikrimni unga aytish Dirknini yangi azoblar domiga giriftor qilish bilan barobar edi. U hozir hayajonlanishning shunday darajasida ediki, bunaqa paytda odam o'zini gapdan to'xtata olmaydi. Uyda bo'lib o'tgan la'nati manzarani qayta-qayta gapiraverardi. O' menga aytmagan biror gapini

This is not registered version of TotalDocConverter

esla, yemirib olinganiga bo'lsa, to'g'ri va o'zining so'zlaridan shikoyat qilardi, boshqacharoq harakat qilganidan afsuslanardi.

Vaqt allamahal bo'lgan, men ham undan kam charchamagan edim.

- Xo'sh, endi bu yog'iga nima qilmoqchisan? - deb so'radim nihoyat.

- Nima qilmoqchisan? Xotinim meni chaqirtirmaguncha uni kutmoqchiman.

- Nega ozroq fursatga bo'lsa ham biror joyga ketmaysan?

- Yo'q-yo'q. Men unga kerak bo'lib qolishim mumkin. Uning qo'li yetadigan joyda bo'lib turishim kerak.

U o'zini butkul yo'qotib qo'ygandi. Fikrlarini bir joyga jamlashga ham kuchi yetmasdi. Unga yotib dam olishi zarurligini aytganimda, baribir, uxlay olmayman, deb e'tiroz bildirdi. U uydan chiqib to sahargacha ko'chalarda kezmoqchi bo'ldi. Hozir uni yolg'iz qoldirish mumkin emasdi. Nihoyat, menikida tunab qolishga ko'ndirdim-da, uni o'z o'rniga yotqizdim. Mehmonxonada divan bo'lib, shunda bemalol dam olishim mumkin edi. Dirak shu qadar holdan toygan ediki, qarshilik ko'rsatishga darmoni yetmadi. Bir necha soatga bo'lsa-da, uni tinchitish maqsadida, bir yo'la anchagina veronal ichirdim. Bechoraga hozirgi daqiqada bundan ko'ra yaxshiroq davo topish amrimahol edi.

AvvalgiI- qismB Keyingi